

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

I.Ixlosov, D.M.Rizaeva

UDK 528. BBK. 26.17

**DAVLAT KADASTRLARI
ASOSLARI**

**Oliy ta'lif muassasalarining 5311500 – «Geodeziya,
kartografiya va kadastr» bakalavriat ta'lif yo'nalishi bo'yicha
ta'lif olayotgan talabalari uchun
o'quv qo'llanma**

Toshkent 2018

O‘quv qo‘llanma katta o‘qituvchilar **I.I.Ixlosov**, D.M.Rizaevlar tomonidan nashrga tayyorlangan. DAVLAT KADASTRLARI ASOSLARI: Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2018, bet.

Ushbu o‘quv qo‘llanma oliy ta’lim muassasalarining 5311500 – «Geodeziya, kartografiya va kadastr» yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalarga mo‘ljallangan bo‘lib, unda kadastr ishlarini rivojlantirish tarixi, xorijiy davlatrlarda kadastr ishlarini olib borish tajribasi, O‘zbekiston Respublikasida davlat kadastrlarini yaratish va yuritish tartibi, normativ huquqiy asoslari, respublika hududlarini kadastr birliklariga bo‘lish va kadastr raqamlash, Davlat kadastrlari yagona tizimi (DKYAT)ni tashkil etish va yuritish bayon etilgan. Unda ko‘chmas mulk kadastri guruhi, chiziqli, tabiiy resurs va tabiiy hududlar guruqlariga kiruvchi kadastrlarni yaratish va yuritishni o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Shunindek, Davlat kadastrlari yagona tizimiga tarmoq kadastrlaridan kiritiladigan ma’lumotlar tarkibi va ularni taqdim etish tartibi bayon qilingan.

O‘quv qo‘llanmadan talabalar, magistrantlar, doktorantlar va umumiyo‘rtta’lim muassasalarining o‘qituvchilari ham foydalanishlari mumkin. Kitob tarmoq davlat kadastrlari mutaxassislari uchun ham foydali bo‘lishi mumkin.

OSNOVY GOSUDARSTVENNYIX KADASTROV: Uchebnoe posobie dlya vysshix uchebnix zavedeniy. Tashkent, 2018, str.

Uchebnoe posobie prednaznachena dlya studentov, obuchayushchixsyu v 5311500 - «Geodeziya, kartografiya i kadastr», v nem izlojenы istoriya kadastrovых rabot, opыt kadastrovых rabot v zarubejnyx stranax, poryadka sozdaniya i vedeniya gosudarstvennyx kadastrov Respublikи Uzbekistan, normativnye pravovye osnovy, kadastrovoe razdelenie respubliki i kadastrovaya numeratsiya, sozdanie i podderjanie Edinoy sistemy gosudarstvennyx kadastrov. V nem opisyvayutsya osobennosti sozdaniya i upravleniya kadastrami, vklyuchennymi v gruppu kadastra nedvijimosti, lineynyx, prirodnix resursov i prirodnix territoriy. Krome togo, izlojenы struktura dannix, sobrannye iz setevix kadastrov i vklyuchaemye v Edinaya sistema gosudarstvennyx geograficheskix bankov dannix i poryadok ix predstavleniya.

Uchebnoe posobie mojet byt poleznym dlya studentam, magistram, doktorantam i uchitelyam srednego obrazovaniya, a takje kniga mojet byt polezna spetsialistam, rabotayushchim v oblasti gosudarstvennyx kadastrov.

BASICS OF STATE CADASTORS: A textbook for higher educational institutions. Tashkent, 2018, p.

The manual is intended for students studying in 5311500 - "Geodesy, cartography and cadastre", it describes the history of cadastral work, experience of

cadastral work in foreign countries, the order of creation and maintenance of state cadastres of the Republic of Uzbekistan, regulatory legal framework, cadastral division of the republic and cadastral numbering, creation and maintenance of the Unified System of State Cadastres. It describes the creation and management of cadastres included in the real estate cadastre, linear, natural resources and natural areas. In addition, the data structure collected from the network cadastres is included and included in the Unified System of State Geographic Data Banks and the procedure for their submission.

The manual can be useful for students, masters, doctoral students and teachers of secondary education, and the book can be useful to specialists working in the field of state cadastres.

TAQRIZCHILAR:

1. Toshkent Irrigatsiya va Qishloq xo'jaligini mehanizatsiyalash muxandislari instituti Geodeziya va kadastr kafedrasи

2. U. Imomqulov - Geodeziya va kartografiya Milliy markazi Davlat kadastrlari yagona tizimi bo'limi boshlig'i.

MAS'UL MUHARRIR:

X.Muborakov – O'zbekiston Milliy universiteti Ilmiy Kengashining fanlari nomzodi.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Ilmiy Kengashining 2018 yil ///// iyuldagagi majlisi qarori bayonnomasi № // bilan nashrqa tavsiya etilgan

KIRISH

Xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida o‘tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning rivojlanishni hisobga olib, tabiiy va xo‘jalik resurslaridan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza qilishni boshqarish tizimini takomillashtirish hamda hududlarning tabiiy-iqtisodiy salohiyatini majmuaviy tahlil qilish va baholash eng zarur masalalardan biri hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotining asosiy elementlaridan hisoblangan kadastr tizimi O‘zbekiston Respublikasi rivojlanishining asosiy tamoyillariga va mazmuniga to‘la muvofiq keladi. Bugungi kunda iqtisodiy sohalardagi islohotlarni chuqurlashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Davlat kadastrlarini yaratish va yuritish uslubiyoti, ilmiy tomoyillarini va konsepsiyalari Davlat kadastrini yurituvchi mas’ul vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idorolar tomonidan belgilab berilgan.

Respublikamizda yer, konlar, foydali qazilmalar va texnogen hosilalarning yuzaga chiqish hollari davlat kadastri; davlat suv kadastri; davlat o‘rmon kadastri; qo‘riqlanadigan tabiiy hududlar davlat kadastri; binolar va inshootlar davlat kadastri; gidrotexnika inshootlari davlat kadastri; madaniy meros obyektlari davlat kadastri; avtomobil yo‘llari davlat kadastri; temir yo‘llar davlat kadastri; aloqa obyektlari davlat kadastri; energetika obyektlari davlat kadastri; chiqindilarni ko‘mish va utilizatsiya qilish joylari davlat kadastri; tabiiy xavf yuqori bo‘lgan zonalar davlat kadastri (xavfli geologik jarayonlar bo‘limi) kartografiya-geodeziya va hududlari davlat kadastrlari tashkil etilib, mas’ul davlat organlari zimmasiga yuklatilgan.

Davlat kadastrlari ma’lumotlari asosida geografik axborot tizimi qatlamlari yaratilib, ushbu axborotlar bazasi vazirliklar, davlat qo‘mitalari, mahalliy hokimiyat, soliq organlari yuridik va jismoniy shaxslar uchun zaruriy ma’lumotlarni olishga xizmat qiladi.

Ushbu o‘quv qo‘llanma Davlat kadastrlarini yaratish va yuritish sohasida ortirilgan ko‘p yillik tajriba va yig‘ilgan materiallarni o‘rganish natijalari hisoblanadi. O‘quv qo‘llanmani nashr etishdan maqsad Respublikamizda Davlat

kadastrlarini yaratish va yuritishning normativ huquqiy bazasi to‘lig‘icha tashkil etilgan bo‘lib, bu jarayon bo‘yicha tizimli ta’lim berish uchun yangi avlod darsliklarini, o‘quv qo‘llanmalarini va boshqa o‘quv materiallarini ishlab chiqish va ularni o‘quvchilarga taqdim etishdan iborat. Shu sababdan, Respublikamizda Davlat kadastrlarini yaratish va yuritishni mukammal ta’riflab bera oladigan o‘quv qo‘llanmani yaratishni maqsad qilib qo‘ydiq.

O‘quv qo‘llanma oltita bobdan iborat bo‘lib, **Birinchi bobda** Davlat kadastrlarini yaratish va yuritishni tashkil etish va uni boshqarishga oid masalalar bayon etiladi, unda kadastr ishlarining rivojlantirish tarixi, davlat kadastrlarini yaratish va yuritishda xorijiy mamlakatlarning tajribalari, O‘zbekiston Respublikasida davlat kadastrlarini yaratish va yuritishda xorijiy mamlakatlarini tajribalari, O‘zbekiston Respublikasida davlat kadastrlarini yaratish va yuritish tajribalari, O‘zbekiston Respublikasida davlat kadastrlarini yaratish va yuritishni tashkil etish va boshqarish, O‘zbekiston Respublikasi hududlarini kadastr bo‘yicha bo‘lish hamda kadastr raqamlarini shakllantirish, Davlat kadastrlari yagona tizimini (DKYAT) yaratish va yuritish kabi asosiy masalalar o‘z aksini topgan.

Ikkinchi bobda: ko‘chmas mulk kadastrlari guruhiga kiruvchi davlat kadastrlari, davlat yer kadastri, binolar va inshootlar davlat kadastri, davlat shaharsozlik kadastri, madaniy meros obyektlari davlat kadastri, gidrotexnika inshootlari davlat kadastrlarini yaratish va yuritishning o‘ziga xos xususiyatlari ta’riflab beriladi.

Uchinchi bobda: chiziqli kadastrlari guruhiga kiruvchi davlat kadastrlari; avtomobil yo‘llari davlat kadastri, temir yo‘llari davlat kadastri, aloqa obyektlari davlat kadastri, energetika obyektlari davlat kadastri, yetkazib berish quvurlari davlat kadastri, kartografiya-geodeziya davlat kadastrlarini yaratish va yuritshning o‘ziga xos xususiyatlari ta’riflab beriladi.

To‘rtinchi bobda: tabiiy resurslari guruhiga kiruvchi davlat kadastrlari: konlar, foydali qazilmalar va texnogen hosilalarning yuzaga chiqish hollari davlat kadastri, davlat suv kadastri, davlat o‘rmon kadastri, o‘simgilik dunyosi obyektlari davlat kadastri, hayvonot dunyosi davlat kadastri, chiqindilarni ko‘mish va

utilizatsiya qilish joylari davlat kadastrlarini yaratish va yuritishning o‘ziga xos xususiyatlari ta’riflab beriladi.

Beshinchi bobda: tabiiy hududlar guruhiga kiruvchi davlat kadastrlari: muhofaza etiladigan hududlar davlat kadastro, tabiiy xavf yuqori bo‘lgan zonalar davlat kadastro, texnogen xavf yuqori bo‘lgan zonalar davlat kadastro, hududlarning yaratish va yuritishning o‘ziga xos xususiyatlarini ta’riflab beradi.

Oltinchi bobda: Davlat kadastrlari yagona tizimiga tegishli davlat kadastrlari ma’lumotlarining tarkibi va ularning taqdim etish tartibi, tematik qatlamlari, Davlat kadastrlari yagona tizimiga taqdim etiladigan ma’lumotlar tarkibi, davlat kadastrlari bo‘yicha tematik qatlamlar atributiv ma’lumotlariga oid mavzular ko‘rib chiqiladi.

O‘quv qo‘llanma birinchi marotaba chop etilayotganligi sababli, barcha o‘quvchilar va qiziquvchilar tomonidan ushbu o‘quv qo‘llanmaning tuzilishi va mazmuniga kiritilgan taklif va mulohazalar minadorchilik bilan qabul qilinadi. Mualliflar o‘quv qo‘llanmani yozishda o‘z taklif va muloxazalarni bildirgan hamda maslaxatini ayamagan Geodeziya va kartografiya milliy markazining Ko‘chmas mulk bo‘limi boshlig‘i M.X.Saidovga va Geodeziya va kartografiya milliy markazining Davlat kadastrlari yagona tizimi bo‘limi boshlig‘i U.X.Imomqulovlarga o‘z minadorchiligini bildiradi.

1-BOB. DAVLAT KADASTRLARINI YARATISH VA YURITISH

1.1. KADASTR ISHLARINING RIVOJLANISH TARIXI

Hozirgi vaqtida kadastr jahondagi barcha mamlakatlarda yuritilmoxda, u tabiiy resurslardan foydalanishni, muxandislik faoliyatini, ekologik, ijtimoiy hodisalarni hisobga olish, holatini baholash, tushunchasi bilan uzviy bog‘liqdir.

Kadastr o‘z sharoiti bilan bir xil bo‘lgan hududiy birliklarni ajartishga, ularni xaritaga tushirish, sifat va miqdor tavsiflaridan foydalangan holda tariflashga mo‘ljallangan.

Shunisi ahamiyatlici xorijiy mamlakatlar tajribasida **kadastr** tushinchasini ko‘p hollarda **ko‘chmas mulk** tushunchasi bilan bog‘lashadi. Shuning bilan birglikda **ko‘chmas mulk** deganda quyidagilar tushiniladi:

- yerga mustahkam bog‘langan (bog‘liq) soni va qiymati to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega bo‘lgan, yer uchastkalarga va boshqa ko‘chmas mulklarga bo‘lgan mulkchilikni **umumiyl xatga olish** (*ro‘yhatga olish*).

“**Kadastr**” so‘zi butun dunyoga tarqalgan bo‘lib, faqat Skandinaviya davlatlari uning o‘rniga “**Reestr**” so‘zidan foydalanishadi. “**Kadastr**” so‘zini kelib chiqishini etimolog olimlar har hil tushuntirishadi. Masalan, fransuz etimologi Blondxeym “**kadastr**” so‘zi grekcha “**katastikon**” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib “**yozuv daftari**” degan ma’noni bildiradi deb hisoblaydi.

Boshqa olim, Dobner (1892 y.) “**kadastr**” so‘zini o‘rta asr lotin so‘zi “**kapitastrum**” bilan bog‘laydi, bu so‘z ikkita so‘zdan “**kapitum**” va “**registrum**” so‘zlarining qo‘shilishidan tashkil topgan bo‘lib, bo‘lingan Rim viloyatlari hududlarni baholash birligi “**reestri**” degan ma’noni beradi. Blondxeymning ta’rifi 1185 yilda yozilgan Venetsiya hujjatlariga asoslangan bo‘lib, haqiqatga yaqinroq deb tan olinadi.

1985 yilda kadastr va yer axborotlari halqora ekspertlar guruhi kadastrga kengroq umumlashtirilgan ta’rif berishdi.

Kadastr – bu davlat tomonidan yerga bo‘lgan mulkchilik ma’lumotlarini uslubiy jihatdan tartibga solish uchun aniq bir davlat yoki tuman miqiyosida mulkchilik uchastkalari chegaralarini syomka qilish natijasiga tayangan holda hisobga olish. Har bir mulkka aniq tartib raqami beriladi – identifikator. Mulkchilik chegaralari va tartib raqami odatda katta masshtabli xaritalarda aks etdiriladi. Kadastr bilan “Kadastr syomkasi” atamasi chambarchas bog‘liq bo‘lib, u ko‘chmas mulk uchastkalarining chegaralari syomkasini bildiradi.

Kadastr tushinchasi yer uchastkalaridan soliq olish, mulkiy va yuridik huquqlarini ro‘yhatdan o‘tkazish uchun kerakli bo‘lgan tizimli ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Tashkil etilish maqsadiga muvofiq turi va tasnifiga qarab kadastr har xil ma’noga ega bo‘ladi.

Maqsadiga qarab kadastrni uchta katta toyifaga ajartish mumkin:

- 1) **soliq** yoki **fiskal** (*xazina*) - soliq olish o‘lchamini va tartibini belgilash maqsadida ko‘chmas mulkni tasniflash (*ta’riflash*) uchun;
- 2) **huquqiy** yoki **yuridik** – mulkka egalik huquqini himoya qilish uchun;
- 3) **ko‘p maqsadli** – huquqiy, iqtisodiy, ekologik, shaharsozlik sohalariga (*spektraga*) oid vazifalarini yechish, shuningdek hududlarnining rivojlanishini rejalashtirish va boshqarish uchun. Ko‘p maqsadli kadastr har xil turdagи obyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi: tabiiy resurslar, infrastruktura, ijtimoyi-iqtisodiy hodisalar va x.k.

Kadastr to‘g‘risida quyidagi tushinchalar ham mavjud:

- bir xil ko‘rinishdagi kadastr, qaysiki bitta obyekt to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi (*qurilma, tom, vodoprovod, kvartira va x.k.*);
- ko‘p xil ko‘rinishdagi kadastr, qaysiki bir xil turdagи bir nechta obyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi (*muxandislik infrastrukturasi kadastri, tabiiy resurslar kadastri, ijtimoyi hodisalar kadastri va x.k.*).

Hududiy prinsiplarga muvofiq ko‘p xil ko‘rinishdagi kadastr uchta darajada yuritiladi:

Davlat darajasida – umumdavlat boshqaruvi manbayi sifatida mamlakatning barcha hududini qamrab oladi.

Davlat regionlari bo‘yicha – aniq bir viloyat (shtat, kray) hududini kamrab oladi.

Davlat hududiy bo‘linmalari bo‘yicha – tuman (shahar) hududa joylashgan, kadastr hisobiga olingan barcha obyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Kadastrning zamonoviy tushunchasi, uzoq davr tarixiy jarayonlarning natijalarini o‘z ichiga qamrab olgan. O‘tgan davr kadastro faoliyatini tahlil qilish va uni bugungi kunda yaxshiroq tashkil etish hamda ishonch bilan kadastrning kelajagini ko‘z oldimizga keltirish imkoniyatini yaratadi.

Antik davrlardan boshlab har xil davlatlarda fuqoralarga yerga egalik qilishni kafolatlash zaruriyati va soliq olishni ta’minalash yer kadastrini yaratish va yuritishga asos soldi. Masalan, o‘tkazilgan arxeologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki: bizning eramizdan 4000 yil oldin allaqochohon Xoldeeda kadastr mavjud bo‘lgan – loydan yasalgan taxtachalarga mixxatda (klinopisda) yer uchastkasi tushirilgan, tomonlari o‘lchamlari va maydoni ko‘rsatilgan.

Eramizdan 3000 yil oldin Misrliklar tomonidan kadastr syomkasi o‘tkazilgan. Bu ishlar natijasida ishlab chiqilayotgan yer uchastkasining chegaralari o‘rnatalgan, yer to‘g‘risidagi bat afsil ma’lumotlar, yer uchastkasining chegarasi va maydoni, egalik qiluvchilarning nomlarini hisobga olgan holda ro‘yhatga olingan. Keyinchalik (bizning eramizdan 1700 yil oldin) **Misrda** yangi syomka o‘tkazilgan, bundan maqsad yerni taqsimlash va ko‘chmas mulkdan soliq olishni amalga oshirish bo‘lgan. Olingan daromodning 1/5 qismi soliq sifatida to‘langanligi aniqlangan, bu miqdorga bizning davrimizgacha amal qilinib kelingan. Bunday yondoshuv to‘rt ming yildan ortiq davr mavjud bo‘lgan, keyinchalik XX asrda u mukammallashtirilgan.

Taxminan eramizdan 600 yil oldin mavjud bo‘lgan *Gretsiyadagi* jamiyat tuzilishi bir qator qonunlarga asoslangan bo‘lib, bu qonunlar kichik yer egalarining qarzlarga botishi, o‘zлari egalik qilayotgan yerlarini yo‘qotishgacha olib keldi. Eramizdan 594 yil oldin maqsadli kadastrga tayangan Solona qonunchiligi jamiyatda tartibni qayta tiklashga muvofiq bo‘ldi, ko‘chmas mulk bo‘yicha qarzlar bekor qilindi, qulchilik qarzlari va katta-katta yer maydonlarga (bo‘shliqlariga) egalik qilishni bekor qildi. Fiskal solig‘ini olishni kafolatlash maqsadida yerni qayta taqsimlash o‘tkazildi.

Rimda birinchi kadastr, eramizdan oldin VI asrda Servi Tulli tomonidan tashkil etilgan bo‘lib “Tabules senzuales” deb nomlangan. Bu kadastrda syomka ko‘chmas mulkning perimetri bo‘yicha olib borilgan, yer turining tarkibi, unga ishlov berish, sifati va hosildorligi hisobga olingan holda soliq miqdori belgilangan. Syomka ma’lumotlari mulk egalarining so‘zlaridan olingan, agar ma’lumotlarning to‘g‘riligiga shuhba tug‘ilsa yer o‘lchovchi tayinlanib u tomonidan tekshiruv o‘tkazilgan. Ko‘chmas mulk maydoni vaqtga, uni shudgor qilish uchun sarflangan qo‘sш xo‘kkiz soniga yoki ekish uchun kerakli bo‘lgan urug‘liq miqdoriga qarab baholangan.

Buyuk Karl davrida ko‘chmas mulkka soliq joriy etilgan bo‘lib, u **ushr** (*daromadning o‘ndan biri miqdori*) sifatida ma’lum. Ammo bunday soliqlarni yig‘ish qadim zamondagi Rim kitoblaridagi yozuvlarga asoslangan bo‘lganligi sababli, samarasiz bo‘lgan. Feodalizm darida eramizdan oldingi 900 yildan 1200 yilgacha syuzerenlar va ruhonilar ko‘chmas mulkka bo‘lgan egalikni hujjat imzolash orqali ro‘yhatdan o‘tkazishni qo‘llab quvvatlashgan.

Italiyada 1160 yillarda fiskal maqsadi bilan yer kadastri tashkil etilgan. Milanda 50 yil davomida (1260-1310 yillar) kadastr syomkalari o‘tkazilgan, ammo syomka natijalaridan soliq olish tizimini o‘rnatish uchun ma’lumotlar olinmagan.

Angliyada birinchi kadastr 1066 yillarda tashkil topgan sanalanadi, uning maqsadi ko‘chmas mulkka soliq belgilash bo‘lgan. Bu kadastr xalq tomonidan “Barchaning umumiy sud kuni kitobi” (“Domesday book” yoki “Книга дня

всебо́щего суда”) deb nomlangan, modomiki kimdir soliq idoralarini aldagan bo‘lsa, oqibatda unga qarshi qo‘llanishi mumkin bo‘lgan.

Fransiyada birinchi kadastrlarning ma’lum bo‘lishi 1269 yil sanalanadi. Dastlab “Hisoblar kitobi” deb nomlangan kadastr muvofaqiyatga erisha olmadi. Faqat Lui XIV davrida unga tegishli bo‘lgan “*Tabaqasidan qatiy nazar kadastr odamlarni tenglashtirish kerak*” degan mashhur so‘zidan keyin fransuzlar kadastr syomkasi asosida fiskal tizimini muvafaqqiyatl tadbiq eta olishdi.

Yangi davr yillarida ishlab chiqilgan asboblar va usullar kadastr uchun suratga olishga sezirarli darajada ta’sir ko‘rsatdi. 1608 yil Galilso Galiley tomonidan 100 baravar kattalashtirilgan teleskop kashf etildi. 1590 yilda Avstriyalik matematik Yan Priterius «Menzula Pretoriani» nomi bilan zamonoviy planshet tayyorladi. 1615 yilda Gollandiyalik Snel-Lius triangulyasiyani topografiyada qo‘llash usulini nashir etdi. 1730 yil birinchi teodolit kashf etildi.

Boshqa turdag'i kadastrlarning rivojlanishida Fransiya kadastri alohida o‘ringa ega deb hisoblanadi. 1801 yillarda Napoleon Fransiya hududida ko‘chmas mulkka soliqningadolatli taqsimlashni o‘rganib chiqish uchun komissiya tuzdi. Undan oldin 1800 alohida hududlarda kadastr uchun suratga olish ishlari o‘tkazildi. O‘tkazilgan ishlar natijasida hisoblangan soliq miqdorini boshqa hududlarda ham taqqoslash usuli bilan qo‘llash ko‘zda tutilgan edi, ammo olingan natijalar qoniqarsiz bo‘lib chiqdi, natijada butun Fransiya hududini kadastr suratiga olish lozimligi to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Shu sababli 1814 yilgacha 12 million hektar hududda 36 million obyektlarda, 9 ming hududiy okruglarda syomka ishlar o‘tkazildi. Kadastr uchun suratga olish asosan fiskal va yuridik xarakterda o‘tkazildi.

Bu vaqtga kelib turli mamlakatlar kadastr uchun suratga olishni boshlab yuborishdi. Filip 11 podshohliq davrida Ispaniyada birinchi maratoba ko‘chmas mulkni baholash bo‘yicha statistik ishlari o‘tkazildi. Shuning bilan birgalikda oppozitsiyadagi yirik latifundistlar fiskal tizimini samarali qo‘llash imkonyatini bermadi. O‘rta asrda kadastr uchun suratga olish va yer kadastrini yuritishning asosiy tamoyillari Rim imperiyasi davridagi kadastr ishlaridan kamdan-kam farq

qilar edi (yerlar arqon yoki *jezla* yordamida to‘g‘ri chiziqli o‘lchangan, geomertik bilimlar va hisoblashlardan bo‘sh foydalanilgan), 1718 yilga kelib Milanlik Djovanni Djakomo Marioni qattiy ilmiy usullarga rioya qilingan yer uchastkalarning chegaralarini triangulyasiya usulida va poligonometrik tarmoq bilan aniqlashga asoslangan birinchi kadastrni ishlab chiqdi.

Bu kadastr hujjati sifatida menzuladan foydalanib 1:2000 masshtabda bajarilgan barcha qishloq jamoalari muhit (ситуационные) xaritalari hisoblangan. Xaritada alohida jamoalarning egaligidagi yer uchastkalari (parsellar), shuning bilan birqalikda egalikning maydoni, tuproq turi, olinadigan sof foyda ko‘rsatilgan, bu ma’lumotlar soliqqa tortish uchun asos bo‘lib hisoblangan.

Bu kadastro o‘zining sifati va aniqligi tufayli **Milan** kadastro deb nom olgan, 1760 yil 1 yanvardan boshlab kuchga kiritilgan va XIX asrda Fransiya, Belgiya, Avstriya, Gollandiya, Shveytsariya kadastrlarini ishlab chiqish uchun na’muna hisoblanadi.

Rossiyada kadastr to‘g‘risidagi birinchi ma’lumotlar X asrlarga tegishli bo‘lib, yerni baholash va yer solig‘ini yig‘ish bilan bog‘liq bo‘lgan, 1483 yilda Pskovda Svyatogorskiy monastiri uchun yer ajratish ishlari kartografik asosda chegara belgilarini o‘rnatish tartibida bajarilganligi to‘g‘risida huquqiy eslatmalar mavjud. Rossiyada yer kadastro kartografik materiallari yerlarni tariflash, yig‘ilgan yozuvlar, kuzatishlar, nazorat, chegara belgilarini o‘rnatish (межевых) kitoblari va joyida o‘tkazilgan (натурада) yer o‘lchov ishlari natijalari asosida tuzilgan.

Yer o‘lchov ishlari chegara chiziqlarining uzunligini o‘lchashdan iborat bo‘lgan “*мерной веревью*” (uzunligi 80, 40, 20 sajenga teng arqon, 1 sajen 2,1336 metrga teng bo‘lgan). Chegara chizig‘i yerdagi ekin turiga qarab o‘rnatilgan va “yaxshi”, “o‘rtta”, “oriq” («добрую», «среднюю» и «худую») yer deb ajratilgan.

Zamonaviy Yevropa yer kadastro tizimi ko‘p jihatdan uning tushunchasi va mazmunini shakllantirgan Napoleon bilan bog‘liq. Lekin har bir mamlakatda kadastr rivoji o‘z sharoitlari va an‘analariga asoslanadi, shuning uchun jahonda ikkita bir xil kadastr tizimini topish mumkin emas.

Mamlakatimiz hududida o‘tgan asrda qozilar tomonidan yuritilgan “Temir daftar” nomli kadastr ko‘rinishlaridan biri amal qilgan. Amir Temurning “Temur tuzuklari” kitobida keltirilishicha yer maydonining miqdori, undan olinadigan hosil soliq miqdorini belgilangan, ekin yerlari o‘lchangan va olinadigan hosil hisobga olingan. Agarda noto‘g‘ri ma’lumotlar yig‘ilgan bo‘lsa xizmatchilar jazolangan. O‘lhash natijalarini maxsus davlat hodimlari va yerlar bilan shug‘ullanuvchi oliy mansabdorlardan iborat **xolisa** deb ataluvchi xay’at tekshirgan. Xolisa egasiz qolgan yerlarni obod qilishga yordam bergen.

1.2. DAVLAT KADASTRLARINI YARATISH VA YURITISHDA XORIJIY MAMLAKATLARNING TAJRIBALARI

Avstriya - 1985 yildan tashkiliy jihatdan Yer kitobi va kadastr bitta hisoblanadi va markazlashgan holda yuritiladi. Yer kitobi Federal adliya vazirligi, kadastr esa Federal Iqtisodiy masalalar vazirligi tasarrufidadir. Yer kitobi va kadastr Federal Hukumatga bo‘ysunadi. Ko‘chmas mulk obyektlarini shakillantirish (inventarizatsiya, baholash, kadastr sur’atga olish, yuridik hujjatlarni yig‘ish) hususiy geodezistlar tomonidan ham olib boriladi. Kelajakda Yer kitobi va kadastrning birligi keng qamrovli geografik ma’lumotlar tizimini yanada kengaytirish asosida amalga oshirish tendensiyasi ko‘zatilmoqda.

Buyuk Britaniya - Ko‘chmas mulk kadastri - mulkiy huquq himoyasi tizimining funksional birligi sifatida mavjud emas. 1862 yildan yer uchastkalariga bo‘lgan huquqni ro‘yhatdan o‘tkazish - yer uchastkalari nomlari Reestri amalga kiritildi. Ko‘chmas mulkni shakllantirish (inventarizatsiyalash, baholash, kadastr sur’atiga olish, yuridik hujjatlarni yig‘ish), o‘lhash ishlari bo‘yicha hususiy byurolar tomonidan olib boriladi, ular shuningdek, kadastr yuritishni ham amalga oshiradilar. Ingliz tizimi mulkiy huquqning himoyasini ta’minalash tizimida davlat aralashuvi (ishtiroki)ning juda kamligining namunasidir. To‘la qamrovli yer-kadastr tizimini yaratish yaqin kelajakda kuzatilmayapti.

Gollandiya - Yer kitobi va kadastrni yuritish funksiyalari Uy-joy qurilishi, rejalashtirish va atrof-muhitni himoya qilish vazirligi tasarrufidagi «Kadastr» xizmatlari tomonidan olib boriladi. Kadastrni yuritish to‘liq avtomatlashtirilgan. Ro‘yhatdan o‘tkazish va kartografik ma’lumotlar integratsiyalanish tendensiyasi asosida amalga oshirilmoqda.

Germaniya Federativ Respublikasi - Germaniya tizimi tashkiliy jihatdan Yer kitobi va Yer kadastriga bo‘linadi. Tizim tarix davomida shunday shakillanganki, Yer kitobini yuritish - yer uchastkasiga bo‘lgan yuridik ma’lumotlar Reestri sifatida (mulkka munosabat, huquq va boshqa huquqiy holatlar) Federal adliya vazirligi (ro‘yhatdan o‘tkazish sudlari) tomonidan amalga oshiriladi. Yer kadastro esa - mulkni haqiqiy holatini (tarkibini) isboti sifatida (bunda: nomi, holati, o‘lchami, qurilish inshootlari, foydalanish va boshq.) yuritiladi va Federal yer vakolatida hisoblanadi. Ko‘chmas mulkni shakillantirish hususiy geodezistlar tomonidan ham amalga oshiriladi.

Ma’muriy va byurokratik qiyinchiliklar yagona federal tizimni rivojlanishiga to‘sinqinlik qilmoqda. Tashkiliy va texnologik jihatdan kadastr xizmatlari va ro‘yhatdan o‘tkazish sudlarini birlashishi hamda ro‘yhatdan o‘tkazishni to‘liq kompyuter texnologiyalariga o‘tish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Fransiya - Ko‘chmas mulk Reestri – ko‘chmas mulkni ipotekasi va garovi kartotekalari bo‘yicha Moliya vazirligi tarkibiga kiruvchi Asosiy huquqlar va ipotekalar reestr xizmati tomonidan yuritiladi. Saqlash vazifasi (обременение) bo‘limgan yer uchastkalari ro‘yhatdan o‘tkazilmaydi. Mahalliy hokimiyat organlarining kadastr xizmatlari o‘lhashlar asosidagi, soliq solish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan grafik kadastrni yuritadilar. Kadastr yuritishni kompyuter texnologiyalariga o‘tkazish amalga oshirilmoqda, tarixdan shakllanib kelgan soliq kadastro bosqichma-bosqich geoaxborot tizimiga qayta shakllanib bormoqda.

AQSH - To‘la qamrovli kadastr mavjud emas. Yerlarni ro‘yhatdan o‘tkazish, o‘lhash yoki markirovkalash majburiyati yo‘q. Mulkni boshqa shaxsga o‘tkazish: yozma shaklda tuzilgan oldi-sotdi to‘g‘risidagi majburiyat shartnomasi, kamida so‘nggi 30 yil ichida ushbu mulkka bo‘lgan huquqni isbotlashda advokat ishtiropki,

tegishli yer uchastkasi bo'yicha sug'urta kompaniyasi tomonidan beriladigan tarixiy ma'lumot va mulkni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi Jamoa reestriga kiritiladigan hujat kabi bir nechta etaplarda amalga oshiriladi. Reestr hususiy sug'urta kompaniyalari tomonidan yuritiladi. Ayrim Shtatlarda asosan yarlarni, bino va inshootlarni hisobini olib borish maqsadida ko'chmas mulk kadastrini tashkil etish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Shveytsariya - Kadastr tizimi ikkita organ: Federal adliya vazirligi tasarrufidagi Yer kitobi, va kantonlar tasarrufidagi kadastr vositasida butun mamlakat hududida bir hil shaklga keltirilgan (unifikatsiyalangan). Ko'chmas mulkni shakllantirish ishlari shuningdek hususiy geodezistlar tomonidan ham olib boriladi. Mavjud tizimni Kadastr xaritalash Federal agentligi rahnamoligida Yer ma'lumotlari yagona milliy kompyuter tizimini yaratish yo'li bilan qayta tashkil etish rejalashtirilmoqda.

Shvetsiya - Ko'chmas mulkni shakillantirish va unga bo'lgan huquqni davlat ro'yhatidan o'tkazish Shvetsiya Milliy yer xizmatining hududiy organlari tomonidan amalga oshiriladi. Ro'yhatdan o'tkazish tartibi to'liq avtomatlashtirilgan, yer axborotlari yagona ma'lumotlar banki amal qiladi. Mazkur sohada Shvetsiya dunyoda etakchi hisoblanadi. Hozirda kompyuter tizimini isloh qilish undan bozor strukturalari tomonidan (banklar, sug'urta kompaniyalari) yanada kengroq foydalanishga, shuningdek huquqlarni ro'yhatdan o'tkazish to'g'risidagi arizalarни berishni kompyuterlashtirishga qaratilgan.

Rossiya Federatsiyasi - «Ko'chmas mulkka bo'lgan huquq va ular bilan bog'liq bitimlarni davlat ro'yhatidan o'tkazish» Qonuniga muvofiq, ko'chmas mulkka bo'lgan huquq va ular bilan bog'liq bitimlarni davlat ro'yhatidan o'tkazish hamda yagona davlat Reestrini yaratish va yuritish Adliya organlari zimmasiga yuklatilgan. Ko'chmas mulk obyektlarini texnik inventarizatsiyalash va davlat hisobini olib borish bir nechta tashkilot (organ)lar orqali amalga oshiriladi jumladan: Geodeziya va kartografiya Federal xizmati; Federal yer kadastri xizmati; Qurilish va uy-joy kommunal kompleksi davlat qo'mitasi.

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquq va ular bilan bog‘liq bitimlarni davlat ro‘yhatidan o‘tkazish borasida Adliya muassasi hamda ko‘chmas mulk obyektlarini texnik inventarizatsiyalash va davlat hisobini olib boruvchi organlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik borasida Hukumat qarori bilan Idoralalararo Kengash tashkil etilgan. Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquq va ular bilan bog‘liq bitimlarni davlat ro‘yhatidan o‘tkazish tizimini bosqichma-bosqich rivojlantish to‘g‘risida «Federal Dastur» tasdiqlangan.

Yer va mulkiy munosabatlarni tartibga solish va isloh qilish maqsadida «Davlat yer kadastrini hamda ko‘chmas mulk obyektlarini davlat hisobini yuritishning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish maqsadli Federal dastur tasdiqlangan. Manfaatdor idoralarning o‘zaro hamkorligi va faoliyatini muvofiqlashtirish tendensiyasi yuzaga kelgan.

1.3. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT KADASTRLARINI YARATISH VA YURITISH

Davlat kadastro tushunchasi va uning mazmuni. Tarmoqlar davlat kadastrlari Davlat kadastrlari yagona tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi hamda u tabiiy, xo‘jalik obyekti yoki boshqa obyekt muayyan turining geografik joylashuvi, huquqiy maqomi, miqdor, sifat tavsiflari va bahosi to‘g‘risidagi yangilanib turiladigan ma’lumotlar va hujjatlar tizimidan iborat bo‘ladi.

Kadastr tushunchasining zamonaviy ta’rifi sifatida aytish mumkinki, kadastr - mamlakatimiz hududidagi tabiiy resurslar va inson yaratgan moddiy va ma’naviy boyliklarning joriy holatiga oid ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash va foydalanuvchilarga havola qilish tizimidir.

Tabiiy va moddiy boyliklar bir qancha turlarga bo‘linganligi uchun mutanosib ravishda davlat kadastro tizimi ham bir qancha tarmoq kadastrlarini o‘z ichiga oladi. Masalan, yer kadastro, energetika resurslari kadastro, hayvonot olami kadastro, temir yo‘llar kadastro, bino va inshootlar kadastro, SUV resurslari kadastro, o‘rmon kadastro, arxitektura yodgorliklari va tarixiy obidalar kadastro, aloqa

kadastri va h.k. Mamlakat hududidagi har qanday boylik yoki yer ostida, yoki yer ustida joylashganligi tufayli mazkur kadastrlar ichida yer kadastro alohida o‘rin tutadi.

Xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida o‘tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning rivojlanishni hisobga olib, tabiiy va xo‘jalik resurslaridan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza qilishni boshqarish tizimini takomillashtirish, hududlarning tabiiy-iqtisodiy salohiyatini majmuaviy tahlil qilish va baholash eng zarur masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2000 yil 15 dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Davlat kadastro to‘g‘risida”gi qonuni mazmuni va mohiyati bilan mamlakatimizda Davlat kadastrlarini yaratish va yuritish tamoyillarini to‘liq belgilab berdi.

Ushbu qonunga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 16 fevralda qabul qilingan “Davlat kadastrlari yagona tizimini yaratish va yuritish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi 66-sonli qarori asosida respublikamizda 21 ta davlat tarmoq kadastrlarini yaratish va yuritish bo‘yicha tegishli vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar mas’ul etib tayinlangan.

Tarmoq kadastrlarini yaratish va yuritish bo‘yicha mas’ul vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatilgan:

- yuridik va jismoniy shaxslarni yer uchastkasiga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yhatidan o‘tkazish;
 - ro‘yhatga o‘tkazish jarayonidagi ma’lumotlar bo‘yicha navbatchi elektron xaritalarni yuritish;
 - barcha tuman, shahar erlarining tezkor va aniq o‘lchovini o‘tkazish;
 - topo-geodeziya ishlarining sifatini oshirish;
 - geodezik asbob-uskunlar hamda ularga tegishli dasturiy ta’mnotlar, zamonaviy kompyuterlar, shunindek yagona dasturiy tizimni joriy qilish;
 - joylarda kadastro ma’lumotlari elektron bazasini yaratish;
- Davlat kadastrlari yagona tizimiga kadastro ma’lumotlarini kiritib borish;

- ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yhatidan o‘tkazishning kompyuterlashtirilgan yagona milliy tizimini yaratish;
- yuridik va jismoniy shaxslarga interaktiv davlat xizmatlarini ko‘rsatish;
- yuridik va jismoniy shaxslarning ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llab, “bir oyna” tamoyili bo‘yicha davlat ro‘yhatidan o‘tkazish tartibini joriy etish.

Kelajakda ko‘chmas mulk to‘g‘risida atributiv va grafik ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan yagona ma’lumotlar banki yaratilishi ko‘zda tutiladi.

Davlat kadastrlarini yuritish tartibi. Davlat kadastrlarini yuritish tegishli vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi. Davlat kadastrlarini yuritishga quyidagilar kiradi:

- kadastr obyektlariga bo‘lgan mulk huquqi va boshqa huquqlarni davlat ro‘yhatidan o‘tkazish;
- kadastr obyektlarining miqdor va sifat tavsiflarini hisobga olish;
- kadastr obyektlarini sifat va qiymat jihatidan baholash;
- kadastrga doir axborotni tizimga solish, saqlash va yangilab borish;
- kadastr obyektlarining holati haqida hisobotlar tuzish;
- Davlat kadastrlari yagona tizimiga kiritish uchun tegishli axborot taqdim etish;
- foydalanuvchilarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kadastrga doir axborot bilan ta’minlash.

Kadastr obyektlarining mulkdorlari hamda kadastr obyektlariga doir boshqa huquqlarning egalari tegishli vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlariga kadastr obyektlarining geografik joylashuvi, huquqiy maqomi, miqdor, sifat tavsiflari va bahosi to‘g‘risida, shuningdek ularning holatidagi joriy o‘zgarishlar haqida axborot taqdim etishlari shart.

Davlat kadastrlarini yuritish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Davlat kadastrlari yuritilishini moliyalashtirish davlat byudjeti hisobidan amalga oshiriladi.

Kadastr obyektlariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yhatidan o‘tkazish.

Kadastr obyektlariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yhatidan o‘tkazish yuridik va jismoniy shaxslarning kadastr obyektlariga bo‘lgan huquqlari davlat tomonidan e’tirof etilishi va tasdiqlanishining yuridik hujjati hisoblanadi.

Kadastr obyektlariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yhatidan o‘tkazish hujjatlar bilan tasdiqlangan axborotlarni davlat reestrlariga kiritish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Kadastr obyektlariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yhatidan o‘tkazish kadastr obyektlarining barcha mulkdorlari va kadastr obyektlariga doir boshqa huquqlarning egalari uchun majburiydir.

Kadastr obyektlarini hisobga olish. Kadastr obyektlarini hisobga olish vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining tegishli bo‘linmalari tomonidan kadastr obyektlarining chegaralari doirasida, shuningdek, aholi punktlari, tumanlar, mintaqalar, tabiiy va iqtisodiy tegralar hamda butun O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha ularning amaldagi holati va ulardan foydalanilishiga ko‘ra olib boriladi.

Kadastr obyektlarini baholash. Kadastr obyektlarini baholash sifat va qiymat jihatidan baholashni o‘z ichiga oladi. Kadastr obyektlarini sifat jihatidan baholash ularning tabiiy va jismoniy tavsiflari asosida amalga oshiriladi.

Kadastr obyektlarini qiymat jihatidan baholash ularning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.


Kadastr hujjatlari. Kadastr obyektiga bo‘lgan mulk huquqini va boshqa huquqlarni tasdiqlovchi hujjatlar, obyektning kadastr yig‘majildi, kadastr xaritasi (plani), kadastr kitobi, kadastr obyektlarining holati haqidagi hisobot kadastr hujjatlarining asosiy turlaridir.

Kadastr yig‘majildi - kadastr obyektiga bo‘lgan huquqni shakllantirish, hisobga olish va keyinchalik davlat ro‘yhatidan o‘tkazish uchun zarur bo‘ladigan kadastr obyektini kadastr suratiga olish, texnik inventarizatsiya qilish va pasportlashtirishning, maxsus tekshirish va izlanishlarning, sifat va qiymat jihatidan baholashning hujjatlari, materiallari va ma’lumotlaridan iborat bo‘ladi.

Kadastr xaritasi (plani) - kadastr obyektlari joylashgan yerni, ularning chegaralari, muhofaza tegralari, baholash, miqdor va sifat tavsiflarini aks ettiruvchi grafik chizma hujjati bo‘lib, u qog‘ozda, magnit va boshqa vositalarda tuziladi.

Kadastr kitobi - kadastr obyektlarini ro‘yhatdan o‘tkazish va hisobga olishning asosiy hujjati hisoblanib, u kadastr obyektlarining geografik joylashuvi, huquqiy maqomi, miqdor hamda sifat jihatdan tavsiflari va bahosi haqidagi ma’lumotlardan iborat bo‘ladi.

Kadastr obyektlarining holati to‘g‘risidagi hisobot - davlat kadastrining har bir turi bo‘yicha belgilangan tartibda tuziladi hamda kadastr obyektlarining alohida hududlar va butun O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha miqdor va sifat holati, bahosi haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida Davlat kadastrlarini yaratish va yuritish tartibi

Quyidagilar respublikamizda davlat kadastrlarini yaratish va yuritishning normativ huquqiy asoslari hisoblanadi:

O‘zbekiston Respublikasi Kodekslari:

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqoralik kodeksi. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 29.08.1996 y. 257-I-son qaroriga muvofiq 1997 yilning 1 martidan kuchga kiritilgan)
2. O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksi. (O‘zR 30.04.1998 y. 598-I-son Qonuni bilan tasdiqlangan O‘zR 30.04.1998 y. 599-I-son Qarori bilan amalga kiritilgan)
3. O‘zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi. (O‘zbekiston Respublikasining 04.04.2002 y. 353-II-son Qonuni bilan tasdiqlangan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 04.04.2002 y. 354-II-son Qaroriga muvofiq amalga kiritilgan)
4. O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksi (1998 yil 24 dekabrdagi 713-I-son Qonun bilan tasdiqlangan 1998 yil 24 dekabrdagi 714-I-son Qaror bilan amalga kiritilgan 1999 yil 1 apreldan amalga kiritilgan)
5. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. (2007 yil 25 dekabrdagi 136-son O‘zbekiston Respublikasi qonuni bilan tasdiqlangan)

O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat kadastro to‘g‘risida”gi qonuni. (15.12.2000 y. N 171-II)
2. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat yer kadastro to‘g‘risida”gi qonuni. (28.08.1998 y. N 666-I)
3. O‘zbekiston Respublikasining “Baholash faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni. (09.04.2009 y. N O‘RQ-208)
4. O‘zbekiston Respublikasining “Yer osti boyliklari to‘g‘risida”gi Qonuni (23.09.1994 y. № 2018-XII)
5. O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni

6. O‘zbekiston Respublikasining “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni (26.12.1997 yil №543-I)
7. O‘zbekiston Respublikasining “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni
8. O‘zbekiston Respublikasining “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida” gi Qonuni (03.12.2004 yil № 710-II)
9. O‘zbekiston Respublikasining “Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida” gi Qonuni (20.08.1999 yil № 826-I)
10. O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni (30.08.2001 yil № 269-II)
11. O‘zbekiston Respublikasining” Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi Qonuni (02.10.2007 yil №ZRU-117)
12. O‘zbekiston Respublikasining “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida”gi qonuni (15.04.1999 yil № 766-I)
13. O‘zbekiston Respublikasining “Pochta aloqasi to‘g‘risida”gi Qonuni (31.08.2000 yil № 118-II)
14. O‘zbekiston Respublikasining “Telekommunikatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni (20.08.1999 yil № 822- I)
15. O‘zbekiston Respublikasining “Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida” gi Qonuni (20.08.1999 yil № 826-I)
16. O‘zbekiston Respublikasining "Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to‘g‘risida"gi Qonuni
17. O‘zbekiston Respublikasi “Chiqindilar to‘g‘risida”gi Qonuni (05.04.2002 yil № 362-II)
18. O‘zbekiston Respublikasining "Geodeziya va kartografiya to‘g‘risida”gi Qonuni (25.04.1997 g. № 417-I)

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 19 iyuldagи “O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi to‘g‘risidagi hamda Yer munosabatlari va davlat

kadastrlarini rivojlantirish jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi № 529-sonli qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.02.2005 y. “Davlat kadastrlari yagona tizimini yaratish va yuritish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi № 66- sonli qarori 3- ilovasi

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 26.05.1997 y. O‘zbekiston Respublikasi konlari, foydali qazilmalari inshootlari va texnogen hosilalarining davlat kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi № 258-sonli qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.06.1997 y. “O‘zbekiston Respublikasida binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish to‘g‘risida”gi № 278-sonli qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.01.1998 y. “O‘zbekiston Respublikasining davlat suv kadastrini ishlab chiqish va yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi № 11-sonli qarori

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 10.03.1998 y. “O‘zbekiston Respublikasining muhofaza etiladigan tabiiy hududlari davlat kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi № 104-sonli qarori.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.12.1998 y. “O‘zbekiston Respublikasida davlat yer kadastrini yuritish to‘g‘risida”gi № 543-sonli qarori.

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.09.2000 y. “O‘zbekiston Respublikasi o‘simlik dunyosi obyektlarning davlat kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomni va O‘zbekiston Respublikasi hayvonot dunyosining davlat kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi № 343-sonli qarori.

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.07.2002 y. “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi № 269-sonli qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.06.2005 y. “Ayrim davlat kadastrlarini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi № 152-sonli qarori.

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15.11.2005 y. “Ayrim davlat kadastrlarini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi № 250-sonli qarori.

12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.11.1999 y. “Gidrotexnika inshootlarining kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi № 499-sonli qarori.

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.12.2001 y. “O‘zbekiston Respublikasi hududlarini kadastr bo‘yicha bo‘lish hamda yer uchastkalari, binolar va inshoatlarning kadastr raqamlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” № 492-sonli qarori

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14.08.2014 y. “Hududlarning davlat kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” №231-sonli qarori.

Tarmoq davlat kadastrlarini yaratish va yuritishda O‘zbekiston Respublikasi qonunlar va qonun osti hujjatlardan tashqari mas’ul davlat organlari tomonidan: davlat kadastro obyektlari yagona klassifikatori; kadastr xizmati to‘g‘risida nizom; davlat kadastrini yuritish bo‘yicha qo‘llanma; davlat kadastr obyektlarini texnik inventarizatsiyalash va pasportlashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalar; davlat kadastro obyektlari kadastr daftarini yuritish qoidalari kabi tarmoq me’yoriy texnik xujjatlari davlat kadastrlarini yaratish va yuritishda muxim ahamiyatga ega.

Davlat kadastrlarini yaratish va yuritishda davlat boshqaruvi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahsus vakolatli organ va mahalliy davlat hokimiyati organlari hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi vakolatlari:

- davlat kadastrlarining yagona davlat siyosatini amalga oshiradi, ularni takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydi, moliyalashtirish va investitsiya masalalarini hal qiladi;
- Davlat kadastrlari yagona tizimini yuritish tartibini belgilaydi;
- kadastr obyektlariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yhatidan o‘tkazish, kadastrga doir axborotni foydalanuvchilarga taqdim etish tartibini belgilaydi;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrovi davlat qo‘mitasi (Davyergeodezkadestr qo‘mitasi) davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi maxsus vakolatli organ hisoblanadi. Davyergeodezkadestr qo‘mitasi vakolatlariga quydagilar kiradi:

- vazirliliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlarining davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;
- Davlat kadastrlari yagona tizimini yuritadi;
- vazirliliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarni tegishli davlat kadastrlarini yuritish uchun zarur bo‘lgan kartografiya materiallari bilan belgilangan tartibda ta’minlaydi;
- davlat kadastrlari yuritilishiga doir normativ hujjatlarni belgilangan tartibda tasdiqlaydi;
- mutaxassislar tayyorlash va malakasini oshirish ishlarini tashkil etadi;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.
- Davyergeodezkadestr qo‘mitasi davlat kadastrini yuritish sohasida vazifalari:
 - davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;
 - Davlat kadastrlari yagona tizimiga kiritiladigan tarmoq kadastr axborotlarini yig‘ish, tahlil qilish, turkumlash, saqlash va yangilashni amalga oshiradi;
 - davlat yer kadastrini yuritadi;
 - binolar va inshootlarning davlat kadastrini yuritadi;

- davlat kartografiya-geodeziya kadastrini yuritadi;
- hududlarning davlat kadastrini yuritadi;
- ilmiy-tadqiqot va tajriba-texnologiya ishlarini bajaradi, normativ-texnik hujjatlarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;
 - viloyatlar, tumanlar va aholi punktlarining ma'muriy chegaralarini belgilash (aniqlash) ishlarini tashkil qiladi va amalga oshiradi;
 - foydalanuvchilarni kadastr axborotlari bilan ta'minlaydi;
 - ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni va ko'chmas mulkka doir bitishuvlarni davlat ro'yhatidan o'tkazishni amalga oshiradi;
 - ko'chmas mulkka huquqlar, ularning bir huquq egasidan ikkinchisiga o'tishi to'g'risidagi, ko'chmas mulkka huquqlarni chegaralash va ko'chmas mulkka doir boshqa bitishuvlar to'g'risidagi ma'lumotlar bankini tashkil qiladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi vakolatlari:

- kadastr obyektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yhatidan o'tkazishni tashkil etadilar;
- davlat yer kadastrini, binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish ishlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mahalliy byudjet hisobidan moliyalashtiradilar;
- tegishli hududlar davlat kadastrining yuritilishini tashkil etadilar.

1-jadval

Davlat kadastrlarini yaratish va yuritish uchun ma'sul davlat organlari

№	Davlat kadastrlarining nomlanishi	Yaratish va yuritish uchun ma'sul davlat organi	Respublika bo'yicha yuritish uchun ma'sul tashkilot	YUrituvchi tashkilot yoki bo'lim
1	Davlat yer kadastro	Davyergeodezkadestr qo'mitasi	"O'zdavyerloyha" DILI	Hududiy "Yermulkkadestr" davlat korxonalari
2	Foydali qazilma konlari, belgilari va texnogen hosilalar davlat kadastro	Geologiya davlat qo'mitasi	Davlat geologiya axborot markazi DK	DGAM Davlat kadastro bo'limi
3	Davlat suv kadastro: (yer osti suvlar bo'yicha)	Geologiya davlat qo'mitasi	Davlat geologiya axborot markazi DK	DGAM Davlat kadastro bo'limi
	(suvdan foydalanish bo'yicha)	Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi	Irrigatsiya tizimlari basseyni boshqarmasi	Suv resurslari balansi va suvni tejash texnologiyalar boshqarmasi
	(yer usti suvlar bo'yicha)	Favqulodda vaziyatlar vazirligi xuzuridagi Gidrometeorologiya xizmati markazi	O'rta-Osiyo gidrometerologiya ilmiy-tadqiqot instituti	Suv kadastro bo'limi
4	Davlat o'rmon kadastro	Davlat O'rmon qo'mitasi	Davlat o'rmon kadastro bo'limi	Davlat o'rmon kadastro bo'limi
5	O'simliklar dunyosi obyektlari davlat kadastro	Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi	Davlat biologik nazarot boshqarmasi	O'simliklarni ximoya qilish bo'limi
6	Hayvonot dunyosi davlat kadastro	Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi	Davlat biologik nazarot boshqarmasi	Hayvonot dunyosi monitoringi va kadastro bo'limi
7	Alovida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat kadastro	Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi	Boswersuvnazorat boshqarmasi	Davlat biologik nazarot boshqarmasining muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maxsus bo'limi
8	Binolar va inshootlar davlat kadastro	Davyergeodezkadestr qo'mitasi	Hududiy "Yermulkkadestr" davlat korxonasi	Hududiy "Yermulkkadestr" davlat korxonasi filiallari
9	Davlat shaharsozlik kadastro	Davlat aritektura va qurilish	«OZGASHK» DK	Davlat shaharsozlik kadastro

		qo‘mitasi		bo‘limi
10	Gidrotexnika inshootlari davlat kadastro I, II, III kapitallik klasslari gidrotexnika inshootlari	“Davsuvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasi	“Davsuvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasi	Gidrotexnika inshootlari kadastro bo‘limi
	III dan quyi kapitallik klasslari— inshootlarning mansubligi bo‘yicha	Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi	Irrigatsiya tizimlari basseyni boshqarmasi	Suv resurslari balansi va suvni tejash texnologiyalar boshqarmasi
	III dan quyi kapitallik klasslari— inshootlarning mansubligi bo‘yicha	“O‘zbekenergo” davlat- aksiyadorlik kompaniyasi	«O‘zenergosozlash» unitar korxonasi	Energetika obyektlari kadastro sektori
11	Tarixiy va madaniy yodgorliklar davlat kadastro	Madaniyat vazirligi	Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanan ilmiy-ishlab chiqarish bosh boshqarmasi	Tarixiy-arxeologiya bo‘limi
12	Avtomobil yo‘llari davlat kadastro	«O‘zavtoyo‘l» davlat qo‘mitasi	Avtobomil yo‘llari ilmiy- tadqiqot instituti	AYDK bo‘limi
13	Temir yo‘llar davlat kadastro	«O‘zbekiston temir yo‘llari» Aksiyadorlik jamiyati	Strategik rivojlantirish boshqarmasi	DTYK bo‘limiotdela
14	Transport quvurlari davlat kadastro	«O‘zbekneftegaz» milliy xolding jamiyati (MXJ)	«O‘ztransgaz» Aksiodorlik jamiyati	Transport quvurlari davlat kadastro bo‘limi
15	Aloqa obyektlari davlat kadastro	O‘zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyasining rivojlantirish vazirligi	Ilmiy texnik va marketing tadqiqotlari markazi	Aloqa obyektlari davlat kadastro bo‘limi
16	Energetika obyektlari davlat kadastro	«O‘zbekenergo» Aksiyadorlik jamiyati	«O‘zenergosozlash» unitar korxonasi	Energetika obyektlari kadastro sektori
17	Chiqindilarni ko‘mib tashlash va utillashtirish joylari davlat kadastro	Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi	Boshersuvnazorat boshqarmasi	Davlat biologik nazarot boshqarmasining muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maxsus

				bo‘limi
18	Tabiiy xavfi yuqori bo‘lgan zonalar davlat kadastro: xavfli geologik jarayonlar ro‘y beradigan zonalar (XGJRZ) bo‘yicha	Davlat geologiya qo‘mitasi	"O‘zbekgidrogeologiya" davlat geologiya korxonasi	XGJRZ bo‘limi
	seysmik xavf yuqori bo‘lgan zonalar (SXYUZ) bo‘yicha	Fanlar akademiyasi	Seysmologiya instituti	SXYUZ bo‘limi
	gidrometeorologiya hodisalari xavfi yuqori bo‘lgan zonalar (GMHXYUZ) bo‘yicha	Favqulodda vaziyatlar vazirligi xuzuridagi Gidrometeorologiya xizmati markazi	Meteoroligik o‘lchavlar va suv kadastr boshqarmasi	Meteoroligik o‘lchavlar ya suv kadastr boshqarmasi
19	Texnogen xavfi yuqori bo‘lgan zonalar davlat kadastro; kuchli ta’sir qiluvchi zaharli ximikatlar, pestitsidlar, radioizotop buyumlar, radioaktiv va boshqa moddalarni ishlab chiqarish, qayta ishslash, saqlash va ulardan foydalanish obyektlari bo‘yicha	O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi	Respublika davlat sanitariya-epidemiologiya nazorat markazi	Texnogen xavf yuqori bo‘lgan zonalarning kadastr markazi
	odamlarni evakuatsiya qilishni yoki ko‘chirishni talab qiladigan xavf yuqori bo‘lgan zonalar bo‘yicha	Favqulodda vaziyatlar vazirligi	Texnogen xavf yuqori bo‘lgan zonalarning kadastr markazi	Texnogen xavf yuqori bo‘lgan zonalarning kadastr markazi
	yadro fizikasi korxonalarida radiatsiya xavfi yuqori bo‘lgan zonalar bo‘yicha	Fanlar akademiyasi	Yadro fizikasi instituti	Texnogen xavf yuqori bo‘lgan zonalarning kadastr markazi
	portlash va yong‘in chiqishi xavfi yuqori bo‘lgan zonalar (obyektlar) bo‘yicha	Ichki ishlar vazirligi	Davlat yong‘in xavfsizligi xizmati	Texnogen xavf yuqori bo‘lgan zonalarning kadastr markazi

	ishlab chiqarish obyektlarida, portlash-yong‘in chiqishi va radiatsiya xavfi mavjud bo‘lgan obyektlarda avariya hollari sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan yuqori xavfli zonalar bo‘yicha	Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishi bo‘yicha davlat inspeksiyasi «Sanoatgekontexnazorat» DI	Texnogen xavf yuqori bo‘lgan zonalarning bosh kadastr markazi	tarmoq va mintaqaviy inspeksiyalar
20	Kartografiya-geodeziya davlat kadastro	Davyergeodezkadestr qo‘mitasi	Davlat geodeziya nazorati inspeksiyasi	Davlat geodeziya nazorati inspeksiyasi
21	Hududlar davlat kadastro	Davyergeodezkadestr qo‘mitasi	Davlat kadastrlari, geodeziya va kartografiya Milliy markazi	Hududiy “Yermulkkadestr” davlat korxonasi Tuman (shahar) “Yermulkkadestr” davlat korxonasiva uning tuman (shahar) filiallari

1.4. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDDUDLARINI KADASTR BIRLIKALARIGA BO'LISH YER UCHASTKALARI ULARDA JOYLAGHGAN BINOLAR VA INSHOOTLARNING KADASTR RAQAMINI SHAKLLANTIRISH

O'zbekiston Respublikasining barcha hududlaridagi yer uchastkalari, binolar va inshootlarga, ularning turlaridan qati nazar, kadastr raqamlari beriladi. Kadastr raqamlarini berish va hisobga olish yer uchastkalariga, binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yhatidan o'tkazish, davlat yer kadastrini hamda binolar va inshootlar davlat kadastrini yaratish va yuritish ishlarining zaruriy shartlaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududlarini kadastr birliklariga bo'lish tarkibi va prinsiplari

Kadastr bo'yicha bo'lish – bu O'zbekiston Respublikasi hududini belgilangan tartibda kartografik materiallarda (xaritalarda, planlarda, sxemalarda) kadastr birliklariga (zonalar, massivlar, mavzelar) bo'lishdir.

Kadastr bo'yicha bo'lish va ko'chmas mulk obyektlariga kadastr raqami berish tizimi ko'chmas mulkni hisobga olishning yagona tizimida har qanday yer uchastkalari, binolar va inshootlarni bir xilda identifikatsiyalashni ta'minlashi kerak.

Hududlarni kadastr birliklariga bo'lish har bir tumanda va Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda viloyatlarga bo'ysunuvchi shaharlarda tashkil etiladi. Kadastr bo'yicha bo'lish ishlari respublikaning har bir tumanida (shahrida) tashkil etiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar (shaharlar), kadastr zonalari (bir nechta kadastr massivlarining birlashmasi), kadastr massivlari (bir nechta kadastr mavzelarining birlashmasi), kadastr mavzelari (bir nechta yer uchastkalarining birlashmasi) va yer uchastkalari O'zbekiston Respublikasi hududlarini kadastr bo'yicha bo'lish birliklari hisoblanadi.

Ayrim holatlarda tuman va shahar hududining xususiyatlariga, yer uchastkalarining soniga, katta-kichikligiga qarab, ayrim zonalar bitta massivdan

(massivga 01 kodi beriladi), ayrim massivlar bitta mavzedan (mavzega 01 kodi beriladi) va ayrim mavzelar bitta yer uchastkasidan (yer uchastkasiga 0001 kodi beriladi) tashkil topgan bo‘lishi mumkin.

Ma’muriy tuman (shahar) hududlarini kadastr zonalariga bo‘lish

Zonalar. Ma’muriy tuman (shahar) hududini kadastr bo‘lib, ular tumanda joylashgan - qishloqlar, ovullar va tumanga bo‘ysunuvchi shaharlar (shaharchalar) hududlari qabul qilinadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasiga hamda viloyatga bo‘ysunuvchi shaharlar hududini bo‘lishda kadastr zonalari sifatida shahar tumanlari (mavjud bo‘lsa) yoki turli (tabiiy, imoratning qurilishi xususiyati, foydalanish maqsadi kabi) belgilari bo‘yicha ajralib turadigan shaharlar qismlari, masalan: sanoat zonasasi, turar joy massivlari, istirohat bog‘lari, dam olish zonalari va shu kabilar, qabul qilinadi.

Kadastr zonalari chegaralari kadastr massivlarining tashqi chegaralari tabiy obyektlar (daryolar, temir yo‘llar, magistral kanallar, kollektorlar, boshqa muntazam obyektlar) bo‘ylab o‘tishi kerak.

Kadastr zonasini kadastr massivlariga bo‘lish. Kadastr massivlari kadastr zonasining shartli ravishda bo‘lingan birligi bo‘lib, massiv sifatida qishloq aholi punktlari, tabiiy va sug‘orish sharoitlari bilan ajralib turadigan qishloq xo‘jaligi va boshqa maqsadlardagi yerlar qabul qilinadi. Tumanga bo‘ysunuvchi shaharlarda (shaharchalarda) kadastr massivlari sifatida mahalla hududi yoki shahar va shaharchalarning ayrim qismlari qabul qilinadi.

Bunda kadastr massivlari chegarasi ko‘chalar, boshqa inshootlar bo‘ylab qabul qilinadi va kadastr zonalarining tashqi chegaralari bo‘ylab o‘tishi va aholi punktlarining ko‘chalari yoki tashqi chegaralari bilan mos kelishi kerak.

Kadastr massivini kadastr mavzelarga bo‘lish. Kadastr mavzelari shartli ravishda bo‘lingan kadastr birligi bo‘lib, qishloq joylarida qishloq xo‘jaligi va boshqa maqsadlardagi yerlar, bog‘dorchilik-uzumchilik shirkatlari hududi qabul qilinadi. Ularning chegaralari kanallar, kollektorlar, yo‘llar bo‘yicha o‘tkaziladi.

Shahar va shaharchalarda kadastr mavzesi sifatida shahar va shaharchalarning bosh planida, mavjud uzun obyektlar (ko‘chalar, yo‘llar, daryolar, kanallar va boshqalar), boshqa tabiiy obyektlar chegarasi hisobga olingan holda har xil belgilar (tabiiy, imoratning qurilishi xususiyati, foydalanish maqsadi va hokazolar) bo‘yicha ajralib turadigan yer uchastkalarining jami qabul qilinadi.

Xar bir kadastr mavzesining hududini shunday shakllantirish kerakki, undagi yer uchastkalarining soni to‘rt razryadli o‘nli sondan (ya’ni 9999 dan) ortmasligi zarur.

Aholi punktlarining muayyan yuridik va jismoniy shaxslarga biriktirilmagan umumiy foydalanadigan yerlarga (ko‘chalar, maydonlar, ko‘kalamzorlar va shu kabilarga) tumandagi zaxira erlarga kadastr raqami berilmaydi.

Hududlarni kadastr bo‘yicha bo‘lish Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar yer resurslari va davlat kadastri boshqarmalari tomonidan tashkil etiladi va ta’minlanadi.

Yer uchastkasi, bino va inshootlar kadastr raqamini shakllantirish tartibi.

Yer uchastkalari, binolar va inshootlarni O‘zbekiston Respublikasida identifikatsiyalash tizimi yagona prinsip bo‘yicha yaratiladi, bunda yer uchastkasining kadastr raqami asos qilib olinadi.

Kadastr raqami – bu yer uchastkasi, bino, inshootga tegishli O‘zbekiston Respublikasi hududida takrorlanmaydigan raqamdir. U qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibda uni shakllantirishda beriladi va u ro‘yhatdan o‘tkazilgan huquqning yagona obyekti sifatida foydalanishi davomida saqlanib qolinadi.

Quyidagilar kadastr raqamining majburiy elementlarini tashkil etadi:

- hududlar kodi;
- hududlar tarkibidagi ma’muriy tumanlarning (shaharlarning) kodi;
- kadastr zonasi kodi;
- kadastr massivi kodi;
- kadastr mavzesi kodi;
- yer uchastkasining kodi;
- bino, inshootning kodi;

- bino, inshoot bir qismining kodи.

Yer uchastkasi, bino va inshootlarning kadastr raqami quyidagi belgilar ko‘rinishida ifodalanadi:

AAVVSSDDEEFFFGGGHHH,

Bu erda:

AA – hududlarning (Qoraqalpog‘iston Respublikasining, viloyatlarning va Toshkent shahrining) kodini bildiruvchi ikki razryadli o‘nli son;

VV – hududlar tarkibidagi ma’muriy-hududiy tuzilmalarning (ma’muriy tumanlar, Qoraqalpog‘iston Respublikasiga, viloyatga bo‘ysunuvchi shaharlarning) kodini bildiruvchi ikki razryadli o‘nli son;

SS – kadastr zonalari kodini bildiruvchi ikki razryadli o‘nli son;

DD – kadastr zonalari doirasida kadastr massivlari kodini bildiruvchi ikki razryadli o‘nli son;

EE – kadastr massivlari doirasida kadastr mavzelari kodini bildiruvchi ikki razryadli o‘nli son;

FFFF – kadastr mavzelari doirasida yer uchastkalari kodini bildiruvchi to‘rt razryadli o‘nli son;

GGGG – yer uchastkalari doirasida bino va inshootlar kodini bildiruvchi to‘rt razryadli o‘nli son;

NNN – bino va inshootlar bir qismi kodini bildiruvchi uch razryadli o‘nli son.

Ushbu tartibdan kelib chiqib, yer uchastkalarining kadastr raqami 14 razryadli o‘nli sondan iborat bo‘ladi.

Bino va inshootning kadastr raqami, ushbu bino va inshoot joylashgan yer uchastkasining kadastr raqamiga bino va inshshotga berilgan to‘rt razryadli o‘nli son qo‘sib, 18 razryadli o‘nli sondan iborat bo‘ladi.

Tumanlar (shaharlar) doirasida kadastr zonalarini, kadastr zonalari doirasidagi massivlarni hamda massivlar doirasidagi mavzelarni raqamlash (kodlash), ularni zonalarga, massivlarga va mavzelarga bo‘lish jarayonida amalga oshiriladi. Kadastr zonalari, massivlari va mavzelari barcha hujatlarda ularning

kodi bilan belgilanadi, ularga nom berilmaydi.

Kadastr zonalari, massivlari va mavzelarining chegaralari, odatda, shaharlar, shahar tumanlari, qishloqlar, ovullarning ma'muriy chegaralari bo'yicha qabul qilinadi. Keyinchalik, ma'muriy chegaralar o'zgarganda, kadastr bo'yicha bo'linish tizimiga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

Yer uchastkasiga kadastr raqamini berish yer uchastkasi ko'chmas mulk obyekti sifatida shakllantirilgandan keyin tuman (shahar) yer kadastri daftarini to'ldirish jarayonida amalga oshiriladi. Yer uchastkalariga berilgan kadastr raqami ularni hisobga olish reestrida aks ettiriladi.

Tuman (shahar) hududida joylashgan tegishli soha kadastrlarida aynan nom yoki raqam bilan alohida hisobga olinadigan uzun muxandislik obyektlari (kanallar, kollektorlar, avtomobil va temir yo'llari) joylashgan yerlar mustaqil yer uchastkalari hisoblanadi va ularga tuman (shahar) doirasida, ular qanday zonalar, massivlar va mavzelarda joylashishidan qat'i nazar, 14 razryadli sondan iborat yagona kadastr raqami beriladi.

Chizikli obyektlar yer uchastkalarining kadastr raqamini shakllantirishda, ular qaysi zonada ko'proq joylashgan bo'lsa, usha zona kodi, shu zonadagi qaysi massivda ko'proq joylashgan bo'lsa, usha massiv kodi, ushbu massivda qaysi mavzeda ko'proq joylashgan bo'lsa, usha mavze kodi va ushbu mavzedagi navbatdagi yer uchastkasi kodi beriladi.

Hududlar kadastr birliklariga bo'linadigan keyin yangi yer uchastkasi bir nechta mavzelar hududidan berilgan bo'lsa, shu yer uchastkasining katta qismi qaysi mavzeda joylashgan bo'lsa, usha mavzening kodi beriladi va hududlarini kadastr bo'yicha bo'lish kartografik materiallarga tegishli o'zgartishlar kiritiladi.

Yangi plan yoki xarita tuzish (tuzatishlar kiritish), ro'yhatga olish, yangi kadastr xaritalarini (planlarini) tayyorlash jarayonida yer uchastkasi, bino va inshootning (ularning bir qismidan tashqari) kadastr raqamini tashkil etuvchi majburiy elementlari (kodlar) o'zgartirilmaydi.

Bino va inshootning bir qismi asosiy binodan boshqacha huquqiy maqomga ega (rasmiy huquq egasi boshqa shaxs) bo‘lgan uning ayrim xonalari (kvartiralar, alohida xonalari va ulardan ajralib turgan boshqa qismlari) hisoblanadi.

Ko‘p qavatli uylardagi kvartiralarga kadastr raqamini shakllantirish jarayonida uy-joy mulkdorlari shirkatlari yoki shu uyni ishlatib turadigan boshqa tashkilotlarning yer uchastkasi va aynan uyning kadastr raqami asos qilib olinadi. Yer uchastkasidagi binoning bir qismi sifatida kvartira tartib raqami qabul qilinadi.

Binolar va inshootlarga kadastr raqami ushbu binolarga va inshootlarga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yhatidan o‘tkazish jarayonida yer uchastkasining bino va inshootlar aks ettirilgan plani tayyorlangandan keyin beriladi. Butun yer uchastkasiga, bino va inshshotlarga bo‘lgan huquq boshqa shaxsga o‘tganda va (yoki) ularga bo‘lgan huquq turi o‘zgarganda, ushbu ko‘chmas mult obyektlarining kadastr raqami o‘zgarmaydi.

Yer uchastkalarining chegaralari va maydoni, ularni bo‘lish yoki qo‘sish yohud bir qismini olib qo‘yish natijasida o‘zgarganda hamda yangi yer uchastkasi tashkil etilganda, ularga belgilangan tartibda yangi kadastr raqami beriladi. Bunda oldin berilgan kadastr raqamlari bekor qilinadi va ular keyinchaliq qo‘llanilmaydi.

Yer uchastkalari, binolar va inshootlarga berilgan kadastr raqamlari yer kadastri kitobida, yerga bo‘lgan huquq davlat reestrida, bino va inshootlarning kadastr kitobida, bino va inshootlarni hisobga olish reestrida va boshqa kadastr hujjatlarida aks ettiriladi.

Yer uchastkasi, bino va inshootlarning kadastr raqamlarini shakllantirishga misol.

1. Yer uchastkasining kadastr raqami:

Toshkent viloyati Chirchiq shahrida joylashgan bo‘lsin:

Toshkent viloyatining kodi	– 11,
Chirchiq shahrining kodi	– 20,
Yer uchastkasi joylashgan kadastr zonasini kodi	– 01,
Yer uchastkasi joylashgan kadastr massivini kodi	– 02,

Yer uchastkasi joylashgan kadastr mavzesi kodi – 04,
Kadastr mavzesida joylashgan yer uchastkasining kodi – 0157,
Yuqoridagilarni hisobga olib yer uchastkasining kadastr raqami
11200102040157 bo‘ladi.

2. Bino va inshootning kadastr raqami:

Olingan yer uchastkasida agar 5 ta bino yoki inshoot joylashgan bo‘lsa, ular har birining yer uchastkasining kadastr raqamiga to‘rt razryadli sonlarni qo‘sib yozib shakllantiriladi, ya’ni:

112001020401570001

112001020401570002

112001020401570003

112001020401570004

112001020401570005

Kadastr hujjatlarida bino va inshootning kadastr raqami quyidagicha umumlashtirilgan shaklda yoziladi: **112001020401570001-5**

3. Ko‘p qavatli turar joydagi kvartiraning kadastr raqami:

Yuqorida olingan yer uchastkasida joylashgan va 0001 kod berilgan turar joy binosi bo‘lsa, undagi kvartiraning tartib raqami 27 bo‘lsa, kvartiraning tuliq kadastr raqami **112001020401570001027** yoziladi.

Hududlarni kadastr birliklariga bo‘lish xaritalarini tayyorlash tartibi

Tuman, shahar va shaharchalarning hududlarini kadastr bo‘yicha bo‘lish kartografik materiallarda (xaritalar, planlar yoki sxemalarda) amalga oshiriladi. Tuman, shahar va shaharchalarning hududlarini kadastr bo‘yicha bo‘lish uchun har qanday qo‘lay masshtabda mavjud tuman qishloq xo‘jaligi xaritalari, topografik xaritalar asosida tuman, shahar va shaharchalarning maxsus elektron xaritalari va planlari tayyorlanadi.

Hech qanday xarita bo‘lmagan taqdirda, ularning maxsus sxemalari tayyorlanadi. Ushbu sxemalarda zonalarning, massivlarning va mavzelarning

chegaralari o‘tadigan topografik elementlar (yo‘llar, kanallar, ariqlar, koolektorlar, zovurlar va h.q.) aniq tushirilgan bo‘lishi zarur.

Tuman va shaharlar hududining katta-kichikligiga qarab, zona yoki massivni aloxida xarita yoki plani tayyorlanishi mumkin. Hududlarni kadastr bo‘yicha bo‘lish xarita, plan, sxemalarida zonalarning, massivlarning va mavzelarning chegaralari va kodlari alohida ranglarda ko‘rsatiladi.

Hududlarni kadastr bo‘yicha bo‘lish xaritalari, planlari, sxemalari ularni tuzuvchi mutaxassis hamda tuman (shahar) yer resurslari va davlat kadastro bo‘limlari boshlig‘i tomonidan imzolanadi, tumanlar (shaharlar) arxitektura va qurilish boshqarmalari (bo‘limlari) bilan kelishiladi.

Hududlarni kadastr birliklariga bo‘lish materiallariga o‘zgartishlar kiritish tartbi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1998 yil 21 dekardagi 35-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yer uchastkalari, bino va inshootlarni kodlashtirishning yagona tizimi”ga muvofiq ilgari berilgan kadastr raqamlari saqlanib qolinadi. Ushbu tartibga muvofiq berilgan yer uchastkalarining kadastr raqami 16 sondan va bino - inshootlarning kadastr raqami 20 sondan iborat bo‘lishi belgilangan.

Ushbu tartibga muvofiq berilgan kadastr raqamlari yer uchastkasining chegaralari va maydonlari o‘zgarganda, ko‘chmas mulk bo‘yicha xarakatlar amalga oshirilayotganda, ko‘chmas mulk obyektlarining huquq egalari o‘zgarganda, yuridik va jismoniy shaxslar murojaat qilganda, ularga yangi kadastr raqami beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2001 yil 31 dekardagi 492-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi hududlarini kadastr bo‘yicha bo‘lish hamda yer uchastkalari, bino va inshootlarning kadastr raqamlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risida nizom”ga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qarorlari bilan hududlarni kadastr bo‘yicha bo‘lish materiallari tasdiqlangandan

keyin eski tartibda yer uchastkalariga berilgan kadastr raqamlari yangi tartibga muvofiq o‘zgartiriladi.

Hududlarni kadastr bo‘yicha bo‘lish amalga oshirilgandan keyin ma’muriy-hududiy tizimga o‘zgarishlar kiritilgan taqdirda, hududlarini kadastr bo‘yicha bo‘lish xaritalariga, planlariga va sxemalariga tegishli o‘zgartishlar kiritiladi. Tumanlar tugatilganda, ularning kodlari bekor qilinadi va bu kodlar boshqa foydalanilmaydi. Yangi tumanlar tashkil etilganda, ularga navbatdagi kod beriladi. Tumanlar tugatilib, ularning hududi boshqa tumanlarga berilganda, tugatilgan tumanlardagi zonalar, massivlar va mavzelar, iloji boricha, saqlanib qolinadi, zonalarga esa navbatdagi kod beriladi.

Tumanga bo‘ysunuvi shaharchalar toifasiga o‘tkazilgan viloyatga bo‘ysunuvchi shaharlar ma’muriy-hududiy tuzilmalar tarkibidan chiqarib tashlanadi. Bunda viloyat bo‘yicha tumanlarga (shaharlarga) ilgari berilgan kodlar qayta ko‘rib chiqilmaydi va ular saqlanib qolinadi.

Viloyatga bo‘ysunuvchi shaharlar tumanga bo‘ysunuvi shaharchalar toifasiga o‘tkazilgan taqdirda, ular tuman doirasida zona sifatida qabul qilinadi va ularga navbatdagi zona kodi beriladi. Ushbu shaharlarda ilgari shakllantirilgan zonalar va ularning kodlari bekor qilinadi, massiv va mavzelar ilgari berilgan kodlar bilan saqlanib qolinadi.

Tumanga bo‘ysunuvi shaharlar viloyatga bo‘ysunuvchi shaharlar toifasiga o‘tkazilganda, ularga ma’muriy-hududiy tuzilmalar sifatida navbatdagi kod beriladi va ularning hududi zonalarga bo‘linadi, massivlar va mavzelar saqlanib qolinadi.

Qishloq aholi punktlari shaharchalar toifasiga o‘tkazilganda, ularga zona sifatida navbatdagi kod beriladi va ularning hududi massivlar va mavzelarga bo‘linishi yangidan kodlanishi mumkin.

Tuman (shahar) bo‘yicha zonalar, massivlar va mavzelarning yangi ro‘yhati hamda hududlarni kadastr bo‘yicha bo‘lish xaritalari, planlari, sxemalari tuman (shahar) hokimlarining qarorlari bilan tasdiqlanadi, ularning qarorlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar

hokimlarining qarorlari bilan tasdiqlanadi.

Keyinchalik ma'muriy-hududiy tuzilmalar tarkibida o'zgarishlar paydo bo'lган taqdirda, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qarorlariga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

Yer uchastkalarining kadastr raqamlarini hisobga olish

Yer uchastkalariga kadastr raqamlarini berish jarayonini tartibga solish va navbatdagi kadastr raqamlarini to'g'ri aniqlash maqsadida, berilgan kadastr raqamlari muntazam ravishda hisobga olib boriladi. Yer uchastkalarining kadastr raqamlarini hisobga olish maxsus reestrda ushbu ishlarni bajarish uchun belgilangan mas'ul hodim tomonidan amalga oshiriladi. Yer uchastkalarining kadastr raqamlarini hisobga olish reestri har bir tumanda (shaharda) mavzelar bo'yicha elektron yoki qog'oz shaklida yuritiladi.

<hr/> <i>(hudud nomi)</i>		kodi			
<hr/> <i>(tuman, shahar nomi)</i>		kodi			
01-zona, 01-massiv, 01-mavze					
T/r	Yer uchastkasidan foydalanuvchining nomi	Yer uchastkasiga berilgan kadastr raqami	Yer uchastkasidan foydalanish turi	Yer uchastkasining maydoni, ga	Kadastr raqamining bekor qilinganligi to'g'risida belgi (asos, sana)
1	2	3	4	5	6

2-rasm. Yer uchastkalarining kadastr raqamlarini hisobga olish reestri

Reestrning boshida hududning, zonaning, massivning va mavzening kodi keltiriladi. Kadastr raqamlarini hisobga olish reestrda yer uchastkasidan foydalanuvchining nomi, yer uchastkasiga berilgan kadastr kodi, yer uchastkasining joylashgan joyi, uning maydoni, kadastr raqamining bekor

qilinganligi to‘g‘risida ma’lumotlar aks ettiriladi. Yer uchastkalarining kadastr raqamlarini hisobga olish reestri shakli quyida keltiriladi:

1.5. DAVLAT KADASTRLARI YAGONA TIZIMINI YARATISH VA YURITISH

Davlat kadastrlarining yagona tizimi (DKYAT). Davlat kadastrlarining yagona tizimi O‘zbekiston Respublikasi va uning ayrim hududlari tabiiy-iqtisodiy salohiyatining yagona umumdavlat hisob-kitobi yuritilishini, baholanishini ta’minlashga mo‘ljallangan ko‘p maqsadli axborot tizimi tarzida yaratiladi. Davlat kadastrlari yagona tizimiga kiritiladigan davlat kadastrlarining axborotini taqdim etish tartibi davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi maxsus vakolatli organ tomonidan belgilanadi.

Davlat kadastrlari yagona tizimiga quyidagilar kiradi:

- davlat yer kadastro;
- foydali qazilma konlari, belgilari va texnogen hosilalar davlat kadastro;
- davlat suv kadastro;
- davlat o‘rmon kadastro;
- o‘simliklar dunyosi obyektlari davlat kadastro;
- hayvonot dunyosi davlat kadastro;
- muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat kadastro;
- binolar va inshootlar davlat kadastro;
- davlat shaharsozlik kadastro;
- gidrotexnika inshootlari davlat kadastro;
- tarixiy va madaniy yodgorliklar davlat kadastro;
- avtomobil yo‘llari davlat kadastro;
- temir yo‘llar davlat kadastro;
- transport quvurlari davlat kadastro;
- aloqa obyektlari davlat kadastro;
- energetika obyektlari davlat kadastro;
- chiqindilarni ko‘mib tashlash va utilashtirish joylari davlat kadastro;

- tabiiy xavfi yuqori bo‘lgan tegralar (zonalar) davlat kadastro;
- texnogen xavfi yuqori bo‘lgan tegralar davlat kadastro;
- kartografiya-geodeziya davlat kadastro;
- hududlar davlat kadastro.

Davlat kadastrlari yagona tizimi (DKYAT) - davlat kadastrlarining turlarini birlashtiruvchi ko‘p maqsadli axborot tizimidir. Davlat kadastrlari yagona tizimini yuritish O‘zbekisgop Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro davlat qo‘mitasi (Davyergeodezkadastr qo‘mitasi) tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat kadastrlari yagona tizimini yaratish va yuritish Hukumatimiz tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solib boriladi. Davlat kadastrlari yagona tizimi davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini, yuridik va jismoniy shaxslarni ularning faoliyati uchun zarur bo‘lgan barcha turdagи davlat kadastrlari axborotlari bilan tezkor taminlash uchun muljallangan.

Belgilangan tartibga muvofik aniklangan kadastr obyektlarining huquqiy maqomi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, kartografiya-geodeziya materiallari, statistik hisobga olish ma’lumotlari, davlat kadastrlari ma’lumotlari Davlat kadastrlari yagona tizimining asosini tashkil etadi. Davlat kadastrlari yagona tizimi doirasida hududlarni kompleks baholash uchun zarur bulgan boshqa ma’lumotlar ham jamlanadi.

Davlat kadastrlari obyektlari va subyektlari tavsifi. Yer, konlar hamda foydali qazilmalar va texnogen hosilalarning yuzaga chiqish hollari, suv, o‘rmon, o‘simlik va hayvonot dunyosi, alohida qo‘riqlanadigan tabiiy hududlar, binolar va inshootlar, shahar va shaharchalar, gidrotexnika inshootlari, madaniy meros obyektlari, avtomobil yo‘llari va temir yo‘llar, etkazib berish quvurlari, aloqa obyektlari, energetika obyektlari, chiqindilarni ko‘mish va yo‘q qilish joylari, texnogen xavf yuqori bo‘lgan zonalar, geodeziya punktlari va Davlat kadastrlari yagona tizimi masalalarini hal etish uchun zarur bo‘lgan boshqa obyektlar Davlat kadastrlari yagona tizimining *obyektlari* hisoblanadi. Tegishli davlat kadastrlarini yuritish bo‘yicha vakolatli organlar davlat kadastrlari *subyektlari* hisoblanadi.

Davlat kadastrlarini yuritish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan tegishli nizomlar bilan belgilanadi.

Davlat kadastrlarini yuritishning asosiy prinsiplari

Davlat kadastrlari yagona tizimi ma’lumotlari davlat boshqaruvi barcha organlari, yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan xorijiy yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiy kuchga egadir. Kadastr hujjatlari mulkchilik va xo‘jalik yuritishning barcha shakllaridagi obyektlar to‘g‘risidagi huquqiy, iqtisodiy va texnik ma’lumotlarning boshlang‘ich manbai sifatida kabul kilinishi kerak. Quyidagilar Davlat kadastrlari yagona tizimini yuritishning asosiy prinsiplari hisoblanadi:

- har bir kadastr obyektlari turi bo‘yicha O‘zbekistan Respublikasining barcha hududlarini to‘liq qamrab olish;
- fazoviy koordinatalarining yagona tizimini qo‘llash;
- kadastr axborotlarini shakllantirish uslubiyatining yagonaligi;
- kadastr axborotlarining ishonchliligi;
- kadastr axborotlarining ochikligi.

Davlat kadastrlari yagona tizimini yaratish va yuritish bilan bog‘lik ishlar davlat byudjeti mablag‘lari hisobiga moliyalashtiriladi.

Davlat kadastrlariga doir axborotni taqdim etish. Davlat kadastrlariga doir axborot davlat hokimiyati organlariga bepul, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga esa belgilangan tartibda haq evaziga taqdim etiladi. Davlat siri hisoblangan davlat kadastrlariga doir axborotdan foydalanish qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Kadastr obyektlari to‘g‘risidagi kadastr ma’lumotlarining kompyuter bazasi davlat kadastrlarini yurituvchi ma’sul organ tomonidan tuman, shahar kadastr, reestr daftariga kiritilgan ma’lumotlari asosida tuziladi. Kadastr obyektlari to‘g‘risidagi kompyuter ma’lumotlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo‘yicha yilning har choragida umumlashtiriladi, bir tizimga solinadi va ular ma’lumotlari asosida O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha kadastr

obyektlari to‘g‘risidagi kadastr ma’lumotlarining bir tizimga solingan kompyuter bazasi shakllantiriladi.

Davlat kadastrlari ma’lumotlari (kadastr axboroti) DKYATga alfavit-raqamli (matnlar, jadvallar, vedomostlar, yilnomalar va h.k.) va grafik (xaritalar, planlar, kesmalar, sxemalar va h.k.) shakllarda an’anaviy (qog‘oz) va (yoki) elektron shakllarda taqdim etiladi.

Davlat kadastrlari ma’lumotlari belgilangan tartibda tasdiqlangandan so‘ng DKYATga 1 yanvar holati bo‘yicha, tegishli kadastrlarni yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomlar bilan belgilangan muddatlarda, lekin hisobot yilidan keyingi yilning 1 apreldidan kechiktirmay taqdim etiladi. Davlat kadastrlarining tezkor tavsifdagi ma’lumotlari belgilangan tartibda tasdiqlangandan so‘ng DKYATga zaruratga qarab taqdim etiladi. Davlat siri bo‘lgan kadastr axborotini taqdim etish O‘zbekiston Respublikasining “Davlat sirlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Davlat kadastrlari ma’lumotlarini elektron (raqamli) shaklda taqdim etish ArcGIS oilasiga mansub dasturiy mahsulotda raqamli kartografik asosda unga atributiv ma’lumotlar bazasini bog‘lagan holda GAT-loyiha yoki 1:200 000 bazaviy masshtabdagi tematik qatlam ko‘rinishida amalga oshirilishi lozim. Raqamli kartografik asos va ma’lumotlar bazasining texnik parametrlari (klassifikatorlar, shartli belgilar va boshqalar) Davyergeodezkadastr qo‘mitasi bilan davlat kadastrining har bir turi bo‘yicha alohida kelishuvdan o‘tkaziladi.


Davlat kadastrlari yagona tizimi obyektlari to‘g‘risidgi ma’lumotlar respublika uchun yagona texnologiya bo‘yicha quyidagi vazirlik va idoralar tomonidan taqdim etiladi:

- davlat yer kadastri bo‘yicha - Davyergeodezkadastr qo‘mitasi;
- konlar, foydali kazilmalar va texnogen xosilalarning yuzaga chiqish hollari davlat kadastri bo‘yicha - O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi;
- davlat suv kadastri bo‘yicha - Favqulodda vaziyatlar vazirligi huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati markazi (tabiiy suv manbalari), O‘zbekiston

Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi (yer osti suvlari), O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xujaligi vazirligi (suv resurslaridan foydalanish va yerlarning meliorativ xolati);

- davlat o‘rmon kadastro bo‘yicha - O‘zbekiston Respublikasi Davlat o‘rmon qo‘mitasi;
- o‘simlik dunyosi obyektlari davlat kadastro bo‘yicha - O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi;
- hayvonot dunyosi davlat kadastro bo‘yima - O‘zbekistan Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi;
- muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat kadastro bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi;
- binolar va inshootlar davlat kadastro bo‘yicha – Davyergeodezkadastr qo‘mitasi;
- davlat shaharsozlik kadastro bo‘yicha - O‘zbekistan Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi;
- gidrotexnika inshootlari davlat kadastro bo‘yicha - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yirik va alohida muhim suv xo‘jaligi obyektlarining texnik holatini hamda bexatar ishlashini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, boshqa vakolatli organlar;
- madaniy meros obyektlari davlat kadastro bo‘yicha - O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi;

ДАВЛАТ КАДАСТРЛАРИ ЯГОНА ТИЗИМИНИ ТАШКИЛИЙ ТУЗИЛМАСИ



3-rasm. Davlat kadastrlari yagona tizimini tashkiliy tuzilmasi

- avtomobil yo'llari davlat kadastro bo'yicha - “O'zavtoyo'l” davlat qo'mitasi;
- temir yo'llar davlat kadastro bo'yicha - “O'zbekiston temir yo'llari” aksiyadorlik jamiyati;
- yetkazib berish quvurlari davlat kadastro bo'yicha - “O'zbekneftegaz” milliy holding kompaniyasi;
- aloqa obyektlari davlat kadastro bo'yicha - O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalarni va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi;
- energetika obyektlari davlat kadastro - “O'zbekenergo” aksiyadorlik jamiyati;

- chiqindilarni ko‘mish va utilizatsiya qilish joylari davlat kadastro bo‘yicha - O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi;
- texnogen xavf yuqori bo‘lgan zonalar davlat kadastro - “Sanoatgeokontexnazorat” davlat nazorati;
- kartografiya-geodeziya davlat kadastro bo‘yicha - Davyergeodezkadastr qo‘mitasi;
- hududlar davlat kadastro bo‘yicha - Davyergeodezkadastr qo‘mitasi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Kadastr deganda nimani tushunasiz?
2. Idenifikator bu nima?
3. “Kadastr syomkasi” nima uchun o‘tkaziladi?
4. Maqsadga qarab kadastrni nechta toifaga ajratish mumkin?
5. Soliq yoki fiskal toifadagi kadastr qaysi maqsadlar uchun yuritiladi?
6. Huquqi yoki yuridik toifasidagi kadastr qaysi maqsadlar uchun yuritiladi?
7. Ko‘p maqsadli kadastr qaysi obyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi?
8. Davlat kadastrlari to‘g‘risidagi normativ-huquqiy hujjatlarga nimalar kiradi?
 9. Nima uchun hududlar kadastr birliklariga bo‘linadi?
 10. Kadastr birliklari bo‘lib qaysi hududlar xisoblanadi?
 11. Kadastr zonasini qaysi hudud ichida tashkil etiladi?
 12. Kadastr massivlari deb qaysi hududlar qabul qilinadi?
 13. Kadastr mavzelar deb qaysi hududlar aytildi?
 14. Davlat kadastrlari yagona tizimiga (DKYAT) kiritiladigan davlat kadastrlarining axborotini taqdim etish tartibi qaysi organ tomonidan belgilanadi?
 15. Davlat kadastrlya yagona tizimi nima uchun yaratiladi va yuritiladi?
 16. Davlat kadastrlari yagona tizimiga (DKYAT) qaysi organ tomonidan yuritiladi?
 17. Davlat kadastrlari yagona tizimining tarkibi nechta tarmoq davlat kadastrlari kiradi?
 18. Davlat kadastrlari to‘g‘risida ma’lumotlar DKYATga qanday shaklda taqdim etiladi?
 19. Davlat kadastrlari to‘g‘risida ma’lumotlarni DKYATga qaysi muddatgacha taqdim etilishi kerak?
 20. Davlat kadastrlari ma’lumotlarini elektron (raqamli) shaklda taqdim etish qaysi dastur asosida amalga oshiriladi?

21. Davlat kadastrlarini yuritishda fazoviy koordinatlarning yagona tizimi qo'llash degani nima?
22. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi vakolatlariga nimalar kiradi?
23. Kadastr obyektlarini miqdor tavsiflari nima?
24. Kadastr obyektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yhatidan o'tkazish qanday amalga oshiriladi?
- 27 Kadastr obyektlarini birlamchi hisobga olish qaerda amalga oshiriladi?
- 28 Kadastr obyektining kadastr yig'ma jildi qaysi hujjatlardan tashkil topadi?
- 29 Kadastr xaritasi (plani)da nimalar aks etiladi?

2-BOB. KO‘CHMAS MULK KADASTRLAR GURUHIGA KIRUVCHI DAVLAT KADASTRLARI VA ULARNI YURITISH XUSUSIYATLARI

Ko‘chmas mulk kadastrlari guruhiga quyidagilar kiradi:

1. Davlat yer kadastro;
2. Binolar va inshootlar davlat kadastro;
3. Davlat shaharsozlik kadastro;
4. Madaniy meros obyektlari davlat kadastro;
5. Gidrotexnika inshootlari davlat kadastro;

2.1. DAVLAT ER KADASTRI

Davlat yer kadastro yerlarning tabiiy, xo‘jalik va huquqiy maqomi, toifalari, sifat xususiyatlari va qiymati, yer uchastkalarining o‘rni va o‘lchamlari, va ularni yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijara chilar va mulkdorlar o‘rtasidagi taqsimoti to‘g‘risidagi ma’lumotlar va hujjatlar tizimidan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasining yer fondi davlat yer kadastro obyekti hisoblanadi. Yerning tabiiy xossalari, huquqiy holatini va undan foydalanishni har tomonlama o‘rganish va baholash davlat yer kadastrining mavzusi hisoblanadi.

Yer kadastriga doir **axborotini ishlab chiqilishi uslubiyotining birligi va uzluksizligi;**

Yer kadastro axborotining ishonchligi va tejamligi.

Davlat yer kadastro ma’lumotlari asosiy (daslabki) va joriy ma’lumotlarga bo‘linadi. Asosiy ma’lumotlar daslabki ro‘yhatdan o‘tkazish vaqtida olingan va davlat yer kadastriga kiritilgan ma’lumotlar hisoblanadi. Davlat yer kadastro ma’lumotlarini qayta ro‘yhatdan o‘tkazish yoki o‘zgartirish jarayonida olingan ma’lumotlar joriy ma’lumotlar hisoblanadi.

Davlat yer kadastro Davlat kadastrlari yagona tizimini, boshqa kadastr tizimlari va monitoringlarini yaratish va yuritish uchun fazoviy-huquqiy asos hisoblanadi. Davlat kadastrlari yagona tizimiga kiritish uchun yer kadastro axborotining tarkibi va taqdim etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Yer

resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrovi davlat qo‘mitasi tomonidan belgilanadi. Davlat yer kadastrini yuritish ishlari davlat byudjetidan va boshqa manbalar hisobidan mablag‘ bilan ta’minlanadi.

Quyidagilar davlat yer kadastrining mazmunini tashkil etadi:

- yer uchastkalariga bo‘lgan mulk huquqini davlat ro‘yhatidan o‘tkazish;
- yer miqdori va sifatini hisobga olish (tuproq bonitetini aniqlash);
- yerni qiymat jihatidan baholash;
- yer kadastrovi axborotini tizimlashtirish, saqlash, yangilash va manfaatdor shaxslarga tegishli shakllar va hajmlarda berish.

Mulk huquqi subyektini, yer uchastkalariga egalik qilish va foydalanishni belgilovchi, yer uchastkasiga bo‘lgan huquqlar kafolatlanishini ta’minlovchi, yerni hisobga olish va baholash uchun asos yaratuvchi yerni ro‘yhatdan o‘tkazishga doir axborot yer kadastrovi axborotining asosiy, dastlabki tarkibiy qismi hisoblanadi.

Dastlabki ro‘yhatdan o‘tkazish axborotini shakllantirish paytida ishlarni o‘tkazish paytigacha tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish bilan bog‘liq holda paydo bo‘luvchi yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlar chegaralari belgilanadi va ro‘yhatdan o‘tkaziladi (qayta ro‘yhatdan o‘tkaziladi).

Yer uchastkalariga bo‘lgan mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar, ushbu huquqlarning paydo bo‘lishi, boshqa shaxsga o‘tishi, cheklanishi va to‘xtatilishi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro‘yhatidan o‘tkaziladi.

Yer uchastkalarining naturada chegaralarini belgilash geodeziya usullari bilan yoki kartografik materiallardan foydalanib joyning o‘zida chegaralarning burilish nuqtalarini zarur aniqlikda belgilash va ularni chegara qoziqlari bilan mahkamlash yo‘li bilan amalga oshiriladi. Yer uchastkalarining umumiyligi maydoni talab qilinadigan aniqlikda analitik, grafik-analitik va mexanik usullar bilan aniqlanadi. Yerni ro‘yhatdan o‘tkazish axboroti avtomatlashtirilgan yerga doir axborot tizimiga kiritiladi.

Joriy ro‘yhatdan o‘tkazish axborotini shakllantirishda ro‘yhatga oluvchi hujjatlar mundarijasiga mulkdorlar, yer uchastkalari egalari va foydalanuvchilarining huquqiy holati, shuningdek, yerning maydoni, chegaralari,

undan foydalanish maqsadi va foydalanish rejimi bo‘yicha yuz bergan o‘zgarishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar kiritiladi. Naturada ro‘y bergan o‘zgarishlar, ular hujjatlar bilan rasmiylashtirilgandan keyin, yer kadastro kitobiga hamda avtomatlashtirilgan yerga doir axborot tizimiga kiritiladi.

Yer uchastkalarining umumiyligi maydonini hisoblash asosan geodeziya usullari bilan, yuqori aniqlikni talab etmaydigan hollarda esa kartometrik usullar bilan bajariladi. Ekinlar turlari bo‘yicha yer maydonini asosiy hisobga olish tegishli darajadagi yangilangan plan-kartografik materiallar asosida kartometrik usul bilan amalga oshiriladi.

Yer sifatini hisobga olish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- tabiiy-qishloq xo‘jaligi va yer kadastro bo‘yicha rayonlashtirish;
- yer tasnifi, ularni ekologiya, texnologiya va shaharsozlik belgilari va boshqa belgilar bo‘yicha tavsiflash;
- tuproq va yerni guruhlarga ajratish.

Yerlarning o‘lchami, joylashgan o‘rni, ekin maydonlari turlari va sifat holatiga oid qayd etiladigan ma’lumotlar yerni hisobga olish axborotini tashkil etadi. Ma’muriy-hududiy darajaning oshishiga qarab yerni hisobga olish axboroti uning ko‘rsatkichlarining qiyosiyligiga rioya qilingan holda umumlashtiriladi.

Yerlar qiymatini baholash turli maqsadlarga mo‘ljallangan yerlardan foydalanish samaradorligining hozirgi vaqtidagi darajasini aniqlash, kelajakda uni oshirish imkoniyatlarini tahlil qilish, asoslash, yer solig‘i va boshqa to‘lovlarini, uning normativ bahosini hisoblab chiqarish, erlardan oqilona va samarali foydalanishni rag‘batlantirish uchun amalga oshiriladi. Barcha toifadagi erlarni baholash qonunchilik bilan belgilangan tartibda natura (yerlarning har bir toifasi uchun o‘ziga xos bo‘lgan) va qiymat ko‘rsatkichlari tizimi yordamida amalga oshiriladi.

Qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi maqsadlaridagi yerlar uchun ham tuproqning unumдорлик quvvati – tuproq boniteti bo‘yicha qiyosiy baholash amalga oshiriladi. Yerlarning qiymat bahosiga va tuproq bonitetiga doir ma’lumotlar yer bahosiga oid axborotni tashkil etadi.

Yerni ro‘yhatga va hisobga olish, yerni baholashga doir asosiy va joriy axborotlar yer kadastri axboroti majmuini tashkil etadi, ular har xil shakllarda qayd etiladi:

- alfavit — raqamlı (matn, jadval, koordinatlar va maydonlar ro‘yhati);
- grafik (reja, xarita, sxemalar);
- elektron raqam (EHMning tezkor xotirasi, magnit manbalari).

Tuman (shahar)ning navbatchi yer-kadastr xaritasini yuritish davlat yer kadastrining tarkibiy qismi hisoblanadi. Navbatchi yer-kadastr xaritasi barcha yer uchastkalari chegaralarini yetarli darajada aniq ko‘rsatish imkonini beradigan masshtabda, elektron va qog‘oz shaklida tayyorlanadi. Navbatchi yer-kadastr xaritalarida barcha yer uchastkalarining chegaralari ko‘rsatiladi. Keyinchalik xaritaga yer uchastkalarining egalari, foydalanuvchilari, ijarachilari va mulkdorlari tarkibida, shuningdek chegaralarda bo‘lgan o‘zgarishlar muntazam ravishda kiritib boriladi. Navbatchi yer-kadastr xaritasini yuritish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi tomonidan belgilanadi.

Har bir ma’muriy-hududiy darajada taqdim etiladigan yer kadastriga doir hujjatlarning tarkibi va shakli Davyergeodezkadastr qo‘mitasi tomonidan Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, Davlat soliq qo‘mitasi va Iqtisodiyot vazirligi bilan kelishib ishlab chiqiladi.

Yer kadastriga doir ma’lumotlarning ishonchliligi uchun davlat yer kadastrini yuritish vazifasi yuklangan tumanlar (shaharlar) yer resurslari va davlat kadastri bo‘limlarining vakolatli shaxslari, shuningdek, yer uchastkalari egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va yer uchastkalar mulkdorlari javob beradilar.

Dastlabki kadastr ma’lumotlari yangilanayotganda yer uchastkalarining huquqiy holatida, yerkarning sifat holati va ulardan foydalanishda, ularni baholashda yuz berayotgan o‘zgarishlar aniqlanadi va ro‘yhatdan o‘tkaziladi.

Yer uchastkalari mulkdorlari, yer uchastkalari egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya,

kartografiya va davlat kadastrovi davlat qo‘mitasining tumanlar (shaharlar) yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastrovi davlat korxonalariga ko‘rsatib o‘tilgan o‘zgarishlar to‘g‘risida o‘n kun muddatda axborot berishga majburdirlar.

O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrovi davlat qo‘mitasining tumanlar (shaharlar) yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastrovi davlat korxonalari:

- mulkdorlardan, yer egalaridan, erdan foydalanuvchilardan va ijarchilardan huquqiy holatda, yer uchastkalarining tarkibida va yer uchastkalaridan foydalanishda yuz bergan o‘zgarishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘playdilar va naturada tekshirilgandan keyin joriy o‘zgarishlarni uch kun mobaynida yer kadastrovi axborotiga kiritadilar;

- yer-kadastr daftarini va navbatchi yer-kadastr xaritasini tashkil qiladilar va yuritadilar, tuman (shahar) yer resurslarining mavjudligi va sifat bo‘yicha holati to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasini doimiy ravishda yangilab boradilar;

- har yili 15 yanvargacha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar yer resurslari va davlat kadastrovi boshqarmalariga yerlarning miqdori va ulardan foydalanish to‘g‘risida hisobot taqdim etadilar.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar yer resurslari va davlat kadastrovi boshqarmalari:

- tumanlar (shaharlar) yer resurslari va davlat kadastrovi bo‘limlarining yer kadastrini yuritishga doir faoliyatini muvofiqlashtirib boradilar;

- tumanlar (shaharlar) yer resurslari va davlat kadastrovi bo‘limlarining hisobotlarini umumlashtiradilar, yer uchastkasiga egalik huquqi subyektlari, mintaqadagi yer resurslari miqdori, sifati va ularni baholashga doir ma’lumotlar bankini yaratadilar, Respublika yer ma’lumotlari yagona bankini yaratishda qatnashadilar;


- tabiatni muhofaza qilish organlari bilan kelishib olingan mintaqa yerlarining miqdori va ulardan foydalaniishi to‘g‘risidagi hisobotlarni har yili 1 fevralgacha Davyergeodezkadastr qo‘mitasiga taqdim etadilar.

Davyergeodezkadastr qo‘mitasi:

- davlat yer kadastro yuritilishini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarning ishlab chiqilishini ta'minlaydi;
 - viloyatlar, shaharlar, tumanlarning ma'muriy chegaralarini, keyinchalik ularning maydonlarini muvofiqlashtirgan holda, geodezik usullar bilan belgilash va joylarga biriktirib qo'yish ishlarini amalga oshiradi;
 - topografiya-geodeziya ishlarini va yerkarni tegishli masshtablarda xaritaga olishni tashkil qiladi;
 - yer resurslarini aerokosmik usullar bilan o'rganishni tashkil etadi;
 - hududiy bo'linmalarning yerkarning miqdori va ulardan foydalanilishi to'g'risidagi hisobotlarini o'rganadi, tahlil qiladi va umumlashtiradi;
 - ishlab chiqilgan yer kadastro axborotlari sifatini nazorat qiladi;
 - mutaxassislar tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etadi;
 - tuproq, geobotanik va boshqa turdag'i maxsus tadqiqotlarni, yerkarni baholashni tashkil etadi;
 - yer kadastro axborotining sifati va har xilligiga talabni muntazam o'rganib boradi, yer kadastrini yuritish texnologiyasini takomillashtirishni ta'minlaydi;
 - respublika mintaqalari bo'yicha yer kadastro hujjatlarini yangilash navbatini va muddatlarini asoslab beradi;
 - avtomatlashtirilgan yer axboroti tizimini joriy etishni va uning faoliyatini amalga oshiradi;
 - yer kadastro axborotlarini nashr etadi, manfaatdor vazirliklar va idoralarga ma'lumotlar taqdim etadi;
- Davlat kadastrlari yagona tizimiga taqdim etiladigan yer kadastro axborotlari tarkibini, hajmini va ularga texnik talablarni belgilaydi;
- har yili 1 martgacha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga yer resurslarining holati to'g'risida Milliy hisobotni taqdim etadi;

Yer kadastrini shakllantirish va undan foydalanishni umumiyl tartibi:

1. Yrr uchastkasining mulkdorlari foydalanuvchilari o‘zlariga tegishli bo‘lgan yer uchastkalari bo‘yicha kadastr axborotlarini Tuman (shahar) yer resurslari va davlat kadastri bo‘limlarga taqdim etadilar.



*) Strelkalar bilan kadastr axboroti harakati yo‘nalishlari belgilangan:

4-rasm. Davlat yer kadastrini yuritish sxemasi

2. Tuman (shahar) yer resurslari va davlat kadastri bo‘limlari yer uchastkalari mulkdorlari va foydalanuvchilaridan yer uchastkalari bo‘yicha

berilgan kadastr axborotlarini to‘playdi, o‘z hududlari doirasida kadastr ishini shakllantiradi, yer uchastkalari bo‘yicha kadastr axborotlarini Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining yer resurslari va davlat kadastro boshqarmalariga beradi.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining yer resurslari va davlat kadastro boshqarmalariga yer uchastkalari to‘g‘risidagi axborotlarni ma’lumotlar bazasiga kiritgandan keyin kadastr axborotlarini Davyergeodezkadastr qo‘mitasining DKYAT ma’lumotlar bazasiga beradi.

4. Davyergeodezkadastr qo‘mitasining Geodeziya va kartografiya milliy markazi DKYAT ma’lumotlar bazasidan yer uchastkalari bo‘yicha zarur axborotlarni Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining yer resurslari va davlat kadastro boshqarmalariga yuboradi.

5. Foydalanuvchilar so‘rov bo‘yicha Davyergeodezkadastr qo‘mitasining DKYAT ma’lumotlar bazasidan yer uchastkalari to‘g‘risidagi kadastr axborotlarini olishi mumkin.

2.1. BINOLAR VA INSHOOTLAR DAVLAT KADASTRINI YURITISH

Binolar va inshootlar davlat kadastro hududiy prinsip bo‘yicha tashkil etiladi va bu obyektlarning huquqiy, xo‘jalik va arxitektura-qurilish maqomi to‘g‘risidagi ma’lumotlar tizimini mujassamlashtiradi.

Binolar va inshootlar davlat kadastro binolar va inshootlardan samarali foydalanishni va ularni muhofaza qilishni, mulk egalarining va bu obyektlardan boshqa foydalanuvchilarning huquqlarini, shuningdek binolar va inshootlarga egalik huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar davlat ro‘yhatidan o‘tkazilishini ta’minlash uchun yuritiladi. Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish bo‘yicha munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va qonun osti xujjatlari bilan tartibga solinadi. Binolar va inshootlar davlat kadastro ma’lumotlari barcha davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiy yuridik kuchga egadir.

Kadastr hujjatlari binolar va inshootlar bilan fuqarolik-huquqiy bitishuvlarni amalga oshirishda, ularni loyihalashtirishda va boshqa yuridik harakatlarda huquqiy, iqtisodiy va texnik ma'lumotlar sifatida qabul qilinishi kerak.

Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish bu obyektlar to‘g‘risidagi kadastr ma'lumotlarini shakllantirishdagi ishonchli hujjatlar va boshqa ma'lumotlardan foydalanilgan holda amalga oshiriladi.

Binolar va inshootlar to‘g‘risidagi kadastr ma'lumotlari mulk egalari, ularga ashayoviy huquqlarga ega bo‘lgan shaxslar, uchinchi shaxslar, davlat ro‘yhatidan o‘tkazuvchi organ va boshqa davlat organlari tomonidan sudda talashilishi mumkin. Binolar va inshootlarning davlat kadastrini yurituvchilar hamda bunda qonun buzilishlarini aniqlaganlar, bu haqda tegishli davlat organlariga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yoki prokuraturaga habar berishga majburdir. Mulk egasi bo‘lgan binolar va inshootlarga ashayoviy huquqlarga ega yuridik va jismoniy shaxslar o‘z huquqlarini davlat ro‘yhatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi hujjatlarga ega bo‘lishlari shart.

Bino va inshootlarni davlat ro‘yhatidan o‘tkazish majburiyati mulk egasiga yoxud bino yoki inshootga ashayoviy huquqlarga ega bo‘lgan shaxsga yuklanadi. Ular bino yoki inshootni davlat ro‘yhatidan o‘tkazish bo‘yicha barcha yoki ayrim majburiyatlarini uchinchi shaxslarga yuklashlari mumkin. Bu huquqlarni va majburiyatlarni ro‘yobga chiqarish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Yuridik yoki jismoniy shaxslar yoki ular tomonidan vakolat berilgan shaxslar bino yoki inshootga bo‘lgan mulk huquqi yoki boshqa ashayoviy huquqlar paydo bo‘lgandan, o‘zgargandan va to‘xtagandan yoxud huquqiy holati o‘zgargandan keyin bino va inshootga kadastr yig‘majildini tayyorlash va uni davlat ro‘yhatidan o‘tkazish uchun Davyergeodezkadastr qo‘mitasining hududiy yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastri davlat korxonasiga, huquqni belgilovchi hujjatlarni ilova qilgan holda buyurtma berishlari shart.

Tumanlar va viloyatga bo‘ysunuvchi shaharlar bo‘yicha binolar va inshootlarning davlat kadastrini yuritish O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari,

geodeziya, kartografiya va davlat kadastrovi davlat qo‘mitasining hududiy yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastrovi davlat korxonalariga yuklanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘yicha kadastr ma’lumotlarini umumlashtirish tegishli ravishda O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrovi davlat qo‘mitasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastrovi davlat korxonalarini tomonidan amalga oshiriladi.

Respublika bo‘yicha kadastr ma’lumotlarini umumlashtirish, binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish ishlariga umumiyoq rahbarlik qilish, shu jumladan ularni metodik jihatdan ta’minalash O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrovi davlat qo‘mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

Binolar va inshootlar davlat kadastrini yurituvchi organlar kadastr hujjatlarini va kadastr ma’lumotlarini ruhsatsiz olish va oshkor etishdan himoya qilinishini ta’minalashlari kerak. Kadastrini yuritish bo‘yicha ishlar ushbu binolar va inshootlarni davlat ro‘yhatidan o‘tkazish uchun undiriladigan mablag‘lar va davlat mulki bo‘lgan bino va inshootlar uchun esa davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi.

Binolar va inshootlar davlat kadastrovi tuman, shahar kadastr daftaridan, kadastr rejasidan, kadastr hujjatlaridan va geofondlardan, shuningdek belgilangan tartibda shakllantiriladigan kompyuter ma’lumotlaridan iborat bo‘ladi.

Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish ham an’anaviy (kadastr daftarida ro‘yhatidan o‘tkazish, kadastr rejasiga kiritish) va ham avtomatlashtirilgan (ma’lumotlar kompyuter bankini yaratish) usullarda uch bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqich – binolar va inshootlarning tuman, shahar darajasidagi huquqiy, xo‘jalik va arxitektura-qurilish maqomi to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plash va kadastr daftarida ro‘yhatidan o‘tkazish;

2-bosqich – obyektlarni chizmada joylashtirib, kadastr planini tuzish;

3-bosqich – oldingi bosqichlarda olingan ma'lumotlarni hisobga olgan holda ma'lumotlar kompyuter bazasini yaratish.

Binolar va inshootlar davlat kadastr ma'lumotlari tumanlar, shaharlar bo'yicha tuziladi, ularning hududi hisobga olish uchastkalariga bo'linadi.

Tumanlar, shaharlar va boshqa aholi yashash punktlarining kadastr birligiga bo'linishi chegaralarni belgilash va hududlarni tuman doirasida yoxud shahar, qo'rg'on chegaralarini hisobga olish uchastkalariga bo'lishni bildiradi. Qoraqalpog'iston Respublikasiga, viloyatlarga, Toshkent shahriga, tumanlar, shaharlar va boshqa aholi yashash punktlariga, shuningdek, hisobga olish uchastkalariga yagona tizim bo'yicha kadastr kodi (raqami) beriladi.

Binolar va inshootlar davlat kadastrida ma'lumotlar belgilangan tartibda ajratilgan yer uchastkasida qurilishi tugallangandan keyin yoxud qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va shartlarda ular bo'yicha bitimlar tuzilgandan keyin hisobga olinadi. Kadastr daftarida binolar va inshootga mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqlar (ularning paydo bo'lishi, boshqa shaxsga o'tishi, cheklanishi va to'xtatilishi) to'g'risidagi, shuningdek obyektni tavsiflovchi boshqa ma'lumotlar qayd etiladi.

Maxfiylik rejimiga ega bo'lgan binolar va inshootlar to'g'risidagi ma'lumotlar maxsus kadastr daftarida qayd etiladi, ushbu daftarni yuritish xususiyatlari va mazkur obyektlarni ro'yhatdan o'tkazish bo'yicha ma'lumotlardan foydalananish shartlari qonun hujjatlarida belgilanadi.

Kadastrni yuritishda binolar va inshootlarning huquqiy, xo'jalik va arxitektura, qurilish maqomi to'g'risidagi ma'lumotlar kadastr daftariga ilovaga muvofiq kiritiladi.

Binolar va inshootlar joylashgan joy, ularning mulkiy huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqlar bilan yuridik va jismoniy shaxslarga tegishliligi, ushbu huquqlarning paydo bo'lish asoslari va muddatlari, ularning to'xtatilish muddatlari, mulkiy huquqlarni va boshqa ashyoviy huquqlarni cheklash shartlari, ushbu obyektlarga uchinchi shaxslarning huquqlari to'g'risidagi ma'lumotlar binolar va inshootlarning huquqiy holati to'g'risidagi ma'lumotlar hisoblanadi.

Binolar va inshootlarning qiymati, ulardan foydalanish xususiyatlari, ushbu obyektlarning ishlab chiqarishdagi maqsadlari, ulardan belgilangan maqsadlarda foydalanilishi va boshqa ma'lumotlar binolar va inshootlar xo'jalik maqomining asosini tashkil etadi.

Binolar va inshootlarning yer tuzish sxemalariga, shaharlarning bosh planlariga, aholi yashash punktlarini joylashtirish loyihibariga, shuningdek shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga muvofiqligi, binolar parametrlari (qavatlari, umumiyligi, yashash, ishlab chiqarish maydonlari), egallab turgan yer uchastkasi, qurilgan sanasi, muhandislik-texnik kommunikatsiyalarning mavjudligi, seysmik chidamliligi to'g'risidagi va boshqa texnik ma'lumotlar binolar va inshootlarning arxitektura-qurilish maqomi hisoblanadi.

Kadastr ma'lumotlari asl hujjatlar yoki davlat organlari qarorlarining, shartnomalarning (oldi-sotdi, hadya qilish, almashtirish, ijaraga olish, renta va boshqalar), bino va inshootlar loyiha-smeta hujjatlarining, ilgari ro'yhatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi boshqa ma'lumotlarning tegishli ravishda rasmiylashtirilgan nusxalari asosida tuziladi. Har bir bino va inshoot kadastr daftariga muayyan kadastr raqami ostida yozib qo'yiladi.

Kadastr daftaridagi yozuvlarni tuzatishga yoki to'ldirishga yo'l qo'yilmaydi. Agar kadastr daftariga yozilgan ma'lumotlarni o'zgartirish yoki to'ldirish zaruriyati paydo bo'lsa, u holda ilgarigi yozuvlar bekor qilinadi va obyekt to'g'risidagi yangi ma'lumotlar bilan aynan shu kadastr raqami ostida to'ldiriladi.


Bino va inshootlar bo'yicha nazarda tutilgan ma'lumotlar to'plangach va ro'yhatdan o'tkazilgach bino yoki inshoot kadastr planga tushiriladi. Kadastr plan va xaritalarining masshtab qatori 1:500 dan 1:10000 gacha bo'ladi, bu esa ro'yhatdan o'tkaziladigan obyektlarning joylashuvi va asosiy o'lchamlarining chizma tasvirlashni ta'minlaydi.

Bino va inshootlar ma'lumotlari asosida tuman, shahar geofondlari yuritiladi. Tuman, shahar geofondlari — binolar va inshootlarning topografiya-geodeziya, kartografiya, mahandislik-geologiya, gidrogeologiya, ekologiya, sanitariya-gigiena, sotsiologiya, loyihalash-rejalashtirish, tarixiy-madaniy, stixiyali

ofatlar va texnogen falokatlari, texnik inventarizatsiyalanganligi va pasportlashtirilganligi, mikroseysmik rayonlashtirilganligi va seysmik turg‘unligiga oid zamonaviy va tarixiy geoaxborot ma’lumotlari omboridir.

Tuman, shahar binolari va inshootlari to‘g‘risidagi kadastr ma’lumotlarining kompyuter bazasi tuman, shahar binolari va inshootlarining kadastr daftariga kiritilgan ma’lumotlari asosida tuziladi.

Binolar va inshootlar to‘g‘risidagi kompyuter ma’lumotlari Qorqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo‘yicha yilning har choragida umumlashtiriladi va bir tizimga solinadi.



**Strelkalar bilan kadastr axboroti harakati yo‘nalishlari belgilangan.*

5-rasm. Bino va inshootlar davlat kadastrini yuritish sxemasi

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining binolar va inshootlar to‘g‘risidagi kompyuter kadastr ma’lumotlari asosida O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha binolar va inshootlar to‘g‘risidagi kadastr ma’lumotlarining bir tizimga solingan kompyuter bazasi shakllantiriladi.

Ma’lumotlarning kompyuter bazasi binolar va inshootlarni klassifikatsiyalashning quyidagi belgilar bo‘yicha obyektlarning guruhlari bo‘linishi asos qilib olinadigan yagona tizimi bo‘yicha shakllantiriladi:

- binolar va inshootlarning maqsad yo‘nalishi;
 - mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqlari;
 - qurilish-texnik tavsiflari;
 - hududiyligi;
- yuridik va jismoniy shaxslarga tegishliligi.

Binolar va inshootlarning yilning 31 dekabr holati bo‘yicha kadastr ma’lumotlari Davyergeodezkadastr qo‘mitasi tomonidan har yili tumanlar, shaharlar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri va O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha nashr etiladi.

Bino va inshootlar davlat kadastrini tuzish va foydalanish tartibi:

1. Turar uy-joy, bino va inshootlarning mulkdorlari foydalanuvchilari o‘zlariga mulkiy huquq bilan tegishli bo‘lgan obyektlar bo‘yicha kadastr axborotlarini Tuman (shahar) yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastr xizmatlariga taqdim etadilar.

2. Tuman (shahar) yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastri davlat korxonalari obyektlar mulkdorlari va foydalanuvchilaridan turar-joy, bino va inshootlar bo‘yicha kadastr axborotlarini to‘playdi, o‘z hududlari doirasida kadastr ishini shakllantiradi, ular bo‘yicha kadastr axborotlarini Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastri davlat korxonasiga beradi.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastri davlat korxonalari yer uchastkalari, bino va

inshootlar to‘g‘risidagi axborotlarni ma’lumotlar bazasiga kiritib ularni Davyergeodezkadastr qo‘mitasining DKYAT ma’lumotlar bazasiga beradi.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastro davlat korxonalarini so‘rov bo‘yicha Davyergeodezkadastr qo‘mitasining DKYAT ma’lumotlar bazasidan yer uchastkalari, bino va inshootlar bo‘yicha axborotlarni olishi mumkin.

5. DKYATdan foydalanuvchilar so‘rov bo‘yicha Davyergeodezkadastr qo‘mitasining DKYAT ma’lumotlar bazasidan yer uchastkalari, bino va inshootlar to‘g‘risidagi kadastro axborotlarini olishi mumkin.

2.3. DAVLAT SHAHARSOZLIK DAVLAT KADASTRI

Davlat shaharsozlik kadastro - ushbu kadastro obyektlari, ularning geografik holati, huquqiy maqomi, miqdor va sifat tavsiflari hamda iqtisodiy bahosi to‘g‘risidagi yangilab boriladigan ishonchli ma’lumotlar tizimidir.

Davlat shaharsozlik kadastro Davlat kadastrlari yagona tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi va shaharlar, aholi punktlari hamda qishloqlar orasidagi hududlarni rivojlantirishni, ular to‘g‘risidagi shaharsozlik hujjatlari talablariga rioya qilish asosida hayotiy faoliyatning qulay muhitini, muhandislik, transport va ijtimoiy infratuzilmalari faoliyatini muvofiqlashtirishni axborotlar bilan ta’minalash maqsadida yuritiladi.

Shaharsozlik faoliyati amalga oshiriladigan aholi punktlari, qishloqlar va ular orasidagi qismlari Davlat shaharsozlik kadastrining obyektlari hisoblanadi.

Shaharsozlik faoliyati deyilganda davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslarni shahar va aholi punktlarini rivojlantirishni shaharsozlik jihatidan rejalashtirish faoliyati, yer uchaskalaridan foydalanish turlarini belgilash, fuqarolar, jamoatchilik va davlat manfaatlarini, shuningdek hududlar va aholi punktlarining milliy, tarixiy-madaniy, ekologik, tabiiy xususiyatlarini hisobga olgan moddiy boyliklarni ishlab chiqarish, binolar, inshootlar va boshqa obyektlarni loyihalash, qurish va rekonstruksiya qilish tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Arxitektura va qurilish qo‘mitasi (“Davarxitektqurilish” qo‘mitasi) Davlat shaharsozlik kadastrini yuritish bo‘yicha vakolatli organ hisoblanadi. Davlat shaharsozlik kadastrini davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini, manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarni kadastr obyektlari to‘g‘risidagi ishonchli ma’lumotlar bilan ta’minlash uchun mo‘ljallangan.

Quyidagilar Davlat shaharsozlik kadastrini yuritishning asosiy tamoyillari hisoblanadi:

- O‘zbekiston Respublikasining butun hududini to‘liq qamrab olish;
- fazoviy koordinatlari yagona tizimini va yagona topografik asosni qo‘llash;
- kadastr axborotlarini shakllantirish metodologiyasining yagonaligi;
- kadastr axborotlarining ishonchliligi, ko‘rgazmaliligi va hujjatliligi;
- kadastr axborotlarining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda foydalanish qulayligi.

Hududlardan foydalanish, foydalanish shartlari, shaharsozlik qoidalari va hududda amal qiladigan shaharsozlik reglamentlari to‘g‘risidagi ishonchli ma’lumotlar Davlat shaharsozlik kadastrining asosini tashkil qiladi.

Shaharsozlik reglamenti deyilganda aholi punktlari va hududlarni qurish qoidalari bilan belgilangan shaharsozlik faoliyatini amalga oshirishda yer uchastkalaridan hamda aholi punktlari va qishloqlar orasidagi hududlarning ko‘chmas mulki boshqa obyektlaridan foydalanish parametrlari va turlari yig‘indisi tushuniladi.

Davlat shaharsozlik kadastrini material va ma’lumotlari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- topografiya-geodeziya va kartografiya materiallari;
- hududlarning ekologik, muhandislik-geologik, seysmik, gidrogeologik holati to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- muhandislik, transport va ijtimoiy infratuzilma obyektlari, shuningdek hududlarning obodonlashtirilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

- hududlarni, aholi punktlarini rivojlantirishni va ularni qurishni shaharsozlik jihatidan rejalashtirish to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- hududlarni zondlash va hududiy zonalarning shaharsozlik reglamentlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- uy-joy fondining texnik holati to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- shaharsozlik faoliyati obyektlari monitoringi ma’lumotlari.

Davlat shaharsozlik kadastrini yuritish hududiy arxitektura va qurilish hamda mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan kadastr obyektlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni majburiy ravishda tekin berishni nazarda tutadi.

Kadastr hujjatlari Davlat shaharsozlik kadastrini obyektlari to‘g‘risidagi huquqiy, iqtisodiy, texnik va rejalashtirish ma’lumotlarining boshlang‘ich manbai sifatida qabul qilinadi va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirishda barcha davlat boshqaruvi organlari, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiy kuchga ega bo‘ladi. Davlat shaharsozlik kadastrini yuritish qog‘oz va yoki elektron manbalarda amalga oshirilib kadastr obyektlari to‘g‘risidagi tizimlashtirilgan axborotlar belgilangan tartibda Davlat kadastrlari yagona tizimiga beriladi. Ushbu kadastrni yuritish ishlarini moliyalashtirish davlat byudjeti hisobiga amalga oshiriladi. Davlat shaharsozlik kadastrini yuritish "Davarxitektqurilish" qo‘mitasining quyidagi tarkibiy bo‘linmalari tomonidan amalga oshiriladi:

- "Davarxitektqurilish" qo‘mitasining vakolatli tashkiloti;
- hududiy arxitektura va qurilish bosh boshqarmalarining vakolatli idoralari.

Davlat shaharsozlik kadastrini yuritish ishlariga umumiylahorbarlik va metodik ta’minalash "Davarxitektqurilish" qo‘mitasi tomonidan amalga oshiriladi. "Davarxitektqurilish" qo‘mitasining vakolatli tashkiloti:

- Davlat shaharsozlik kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimini joriy etishni va uning faoliyatini ta’minalaydi;
- ma’lumotlar bazasi tuzilmasini ishlab chiqadi, uni hududiy arxitektura va qurilish bosh boshqarmalarining vakolatli bo‘linmalariga berishni amalga oshiradi, ma’lumotlar bazasining to‘g‘ri to‘ldirilishini nazorat qiladi;

- hududiy arxitektura va qurilish bosh boshqarmalarining vakolatli bo‘linmalari hodimlarini Davlat shaharsozlik kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimi bilan ishlashga o‘qitishni tashkil qiladi;

- hududiy arxitektura va qurilish bosh boshqarmalari tomonidan taqdim etilgan kadastr axborotlarini tizimlashtirishni va kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritishni amalga oshiradi;

- kadastrni yangi obyektlari to‘g‘risidagi hisobga olish va baholash axborotlarini nazorat qiladi;

- kadastr axborotlarini Davlat kadastrlari yagona tizimiga tezkorlik bilan berishni amalga oshiradi;

- kadastr obyektlarining holati va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi hisobotni Davlat kadastrlari yagona tizimiga har yili belgilangan tartibda taqdim etadi.

Hududiy arxitektura va qurilish bosh boshqarmalarining vakolatli bo‘linmalari:

- kadastr obyektlarining miqdor va sifat holatidagi joriy o‘zgarishlarni to‘playdi va tizimlashtiradi;

- Davlat shaharsozlik kadastri obyektlarining kadastr daftarlarini yuritadi, ma’lumotlar bazasini to‘ldiradi va ularni tizimlashtirish hamda Davlat shaharsozlik kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritish uchun "Davarxitektqurilish" qo‘mitasi vakolatli tashkilotiga beradi;

- Davlat shaharsozlik kadastri yangi obyektlarini hisobga qo‘yadi, ular to‘g‘risidagi hisobga olish va baholash axborotlarini to‘playdi.

Davlat shaharsozlik kadastrini yuritish kadastr obyektlari barcha turlarini ro‘yhatga olishni, ularning miqdor va sifat tavsiflarini, iqtisodiy bahosini hisobga olishni, shuningdek kadastr axborotlarini to‘plash, tahlil qilish, ishslash, tizimlashtirish, saqlash, yangilash va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda manfaatdor foydalanuvchilarga berishni o‘z ichiga oladi.

Davlat shaharsozlik kadastri obyektlarining barcha turlari boshlang‘ich ro‘yhatga kiritilishi kerak. Bunda asosiy ko‘rsatkichlar qayd etiladi, ularning tarkibi "Davarxitektqurilish" qo‘mitasi tomonidan Davyergeodezkadastr qo‘mitasi

bilan kelishgan holda tasdiqlanadigan tegishli normativ hujjatlar bilan belgilanadi. Ro‘yhat natijalari bo‘yicha har bir obyekt uchun pasport tuziladi. Miqdor va sifat tavsiflarining asosiy hisobi Davlat shaharsozlik kadastrining hisobga qo‘yish vaqtida belgilangan tartibda tasdiqlangan har bir obyekti bo‘yicha amalga oshiriladi.

Kadastr obyektlarining tavsiflarida kelgusida bo‘ladigan o‘zgarishlar joriy hisobga olishda qayd etiladi. Obyektlarining miqdor va sifat tavsiflari hisobi ularning iqtisodiy, shaharsozlik va ekologik belgilari bo‘yicha tasnifini o‘z ichiga oladi, ularning tarkibi kadastrni yuritish normativ hujjatlarida belgilanadi.

Davlat shaharsozlik kadastri obyektlarining miqdor va sifat tavsiflarini hisobga olish uchun "Davarxitektqurilish" qo‘mitasi tomonidan Davyergeodezkadestr qo‘mitasi bilan kelishgan holda kadastr axborotlarini taqdim etishning texnik parametrlari va formatlari ishlab chiqiladi. Hujjatlar asosida rasmiylashtirilgan va belgilangan tartibda tasdiqlangan hisobga olish axborotlari kadastr daftariga yoziladi va Davlat shaharsozlik kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritiladi.


Davlat shaharsozlik kadastri obyektlarini iqtisodiy baholash ularning o‘ziga hos xususiyatlarini hisobga olgan holda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq solish, xususiylashtirish va boshqa maqsadlar uchun har bir obyektning qiymatini aniqlash orqali amalga oshiriladi.

Davlat shaharsozlik kadastri obyektlari to‘g‘risidagi kadastr axborotlarining ishonchliligi uchun Davlat shaharsozlik kadastrini yurituvchi "Davarxitektqurilish" qo‘mitasi vakolatli tashkilotlari va hududiy arxitektura va qurilish bosh boshqarmalari vakolatli bo‘linmalarining rahbarlari javob beradilar.

1. Davlat shaharsozlik kadastrini tuzish va undan foydalanish hududiy arxitektura va qurilishi bosh boshqarmalarining (HAQBB) vakolatli bo‘linmalari Davlat shaharsozlik kadastri (DSHK) obyektlari to‘g‘risidagi kadastr axborotlarini to‘playdi.

2. HAQBB vakolatli bo'linmalari DSHK obyektlari to'g'risidagi kadastr axborotlarini "Davarxitektqurilish" qo'mitasining DSHKnii yuritish bo'yicha vakolatli tashkilotiga beradi.

3. "Davarxitektqurilish" qo'mitasining DSHKnii yuritish bo'yicha vakolatli tashkiloti kadastr axborotlarini DKYAT ma'lumotlar bazasiga beradi.



**) Strelkalar bilan kadastr axboroti harakati yo'nalishlari belgilangan:*

6-rasm. Davlat shaharsozlik kadastrini yuritish sxemasi

4. "Davarxitektqurilish" qo'mitasining DSHKnii yuritish bo'yicha vakolatli tashkiloti so'rovga ko'ra DKYAT ma'lumotlar bazasidan DSHK obyektlari bo'yicha axborotlarni olishi mumkin.

5. DKYAT va DSHK ma'lumotlar bazasidan foydalanuvchilar so'rovga ko'ra DSHK obyektlari bo'yicha kadastr axborotlarini belgilangan tartibda olishi mumkin.

2.4. MADANIY MEROS OBYEKTTLARI DAVLAT KADASTRI

Madaniy meros obyektlari davlat kadastro madaniy meros obyektlarining davlat muhofazasini hamda ulardan oqilona foydalanishni ta'minlash maqsadida yuritiladi. Ushbu kadastr madaniy meros obyektlarining geografik joylashishi, huquqiy maqomi, miqdoriy, sifat tavsiflari va bahosi to'g'risidagi yangilab turiladigan ma'lumotlar va hujjatlar tizimini ifodalaydi. Quyidagilar Davlat kadastrini yuritishning asosiy prinsiplari hisoblanadi:

- respublikaning butun hududida madaniy merosning barcha obyektlarini kadastr bilan qamrab olish;
- kadastr axborotini shakllantirishning yagona metodologiyasi;
- kadastr yuritishni markazlashtirilgan tarzda boshqarish;
- kadastrlar yagona tizimi talablarini ta'minlash;
- kadastr axborotining ishonchliligi hamda uni to'ldirish va yangilab borishning uzluksizligi;
- kadastr axborotidan foydalanish mumkinligi.

Davlat kadastrini yuritish madaniy meros obyektlariga mulkchilik huquqini va boshqa huquqlarni davlat ro'yhatidan o'tkazishni, madaniy meros obyektlarini miqdoriy va sifat tavsiflarini hisobga olishni, madaniy meros obyektlarini sifat va qiymat jihatidan baholashni, kadastr axborotini turkumlashtirish, saqlash va yangilashni, madaniy meros obyektlarining holati to'g'risidagi hisobotlarni tuzishni, Davlat kadastrlari yagona tizimiga kiritish uchun tegishli axborotni taqdim etishni, foydalanuvchilarni kadastr axboroti bilan ta'minlashni o'z ichiga oladi.

O'zini tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zga madaniy qimmatiga ega bo'lgan yodgorliklar, ansambllar va diqqatga sazovor joylar Davlat kadastro obyektlari hisoblanadi.

Ushbu kadastrni O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligining Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish bosh boshqarmasining kadastr xizmati, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish mintaqaviy davlat inspeksiyalari tomonidan yuritiladi.

Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish bo‘yicha ilmiy-ishlab chiqarish bosh boshqarmasining kadastr xizmati:

- madaniy meros obyektlari davlat kadastrining yuritilishini muvofiqlashtiradi;
- normativ-metodik hujjatlarni ishlab chiqadi;
- kadastr yuritilishini nazorat qiladi;
- mintaqaviy inspeksiyalar kadastr hisobotlarini turkumlashtiradi;
- kadastr xizmatlarini moddiy-texnik ta’minlaydi;
- madaniy meros obyektlarining davlat kadastri avtomatlashtirilgan axborot tizimini ishlab chiqadi;
- manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan kadastr materiallaridan foydalanish tartibi va shartlarini belgilaydi;

Davlat kadastrlari yagona tizimiga zarur kadastr axborotini beradi.

Mintaqaviy inspeksiyalar:

- madaniy meros obyektlari, mulkchilik obyektlari va subyektlari, madaniy meros obyektlariga egalik qilish, ulardan foydalanish va ular ijarasi, ulardan maqsadli foydalanish to‘g‘risidagi ma’lumotlar hisobini hamda ulardan foydalanish rejimini yuritadi;
- madaniy meros obyektlari to‘g‘risidagi miqdor va sifat axborotini to‘playdi;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘yicha madaniy meros obyektlari ro‘yhatini tuzadi;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri madaniy meros obyektlari bo‘yicha kadastr daftarini yuritadi;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri madaniy meros obyektlarining joylashishi sxemasini tuzadi.

Davlat kadastrini yuritish ishlari davlat byudjeti hisobiga mablag‘ bilan ta’milanadi va unda respublika hududidagi barcha madaniy meros obyektlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar yig‘iladi. Hisobga olish va baholash axboroti birgalikda madaniy meros obyektlari bo‘yicha kadastr axborotini tashkil etadi, ushbu axborot harfli-raqamli (matnli, jadvallar, vedomostlar) va chiziqli (rejalar, sxemalar, kesimlar va o‘lchamlar) shakllarda qog‘ozda va elektron manbalarda taqdim etiladi.

Madaniy meros obyektlari davlat kadastro:

- madaniy meros obyektlarining geografik joylashishi haqidagi ma’lumotlarni;
- madaniy meros obyektlarining miqdoriy, sifat va qiymat tavsiflari hisobini o‘z ichiga oladi.

Madaniy meros obyektlarining hisobga olish axboroti:

- kadastr tartib raqamini;
- obyekt nomini;
- joylashgan joyini;
- tipologik tegishliligini;
- sana belgilashni;
- mulkdor, egasi, foydalanuvchi yoki ijaraga oluvchi yuridik yoki jismoniy shaxsning nomi va uning manzilini;
- madaniy meros obyektining idoraviy mansubligini;
- madaniy meros obyektining maqsadli vazifasini;
- tarixiy ma’lumotlarni;
- madaniy meros obyektining dastlabki qiyofasini o‘zgartirilgani qayta qurish va yo‘qotishlarni;
- ta’mirlash ishlarini (umumiy tavsif, qiymati, vaqt, muallif, hujjatlar saqlanadigan joy);

- bino, inshoot va yer uchastkasiga bo‘lgan huquqlar davlat ro‘yhatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni;

- muhofaza zonalari va qurilishni tartibga solish zonalari chegaralarini (tasdiqllovchi hujjatga asoslangan holdagi reja, qisqacha tavsif) o‘z ichiga oladi.

Quyidagilar:

- arxeologik yodgorliklari uchun - sana qo‘yish, qidirish va qazish ishlari kim tomonidan va qachon bajarilganligi, topilgan materiallarning saqlanish joyi;

- tarixiy yodgorliklar uchun: paydo bo‘lish tarixi, obyekt yodgorlik ahamiyatiga ega ekanligi bilan bog‘liq voqealar va shaxslarning qisqacha tavsifi;

- arxitektura va monumental san’at yodgorliklari uchun - ularni muallifi, quruvchisi, buyurtmachisi, qurilgan sanasi tarixiy ma’lumotlar hisoblanadi.

Madaniy meros obyekti tavsifi bo‘lib:

- obyekt nomi;

- tipologik mansubligi;

- manzili;

- zamonaviy foydalанилиши;

- tarixiy ma’lumotlar;

- yodgorlikning dastlabki qiyofasini o‘zgartirgan qayta qurishlar va yo‘qotishlar;

- ilmiy-tarixiy va badiiy ahamiyati;

- asosiy bibliografiya, arxiv manbalari, ikonografik material;

- texnik holati;

- muhofaza qilish tizimi;

- muhofaza qilish toifasi;

- muhofaza qilishga qabul qilinganligi to‘g‘risidagi hujjatning sanasi va tartib raqami;

- muhofaza zonasini chegaralari;

- balans bo‘yicha mansubligi;

- muhofaza hujjatining sanasi va tartib raqami (majburiyatlar);

- arxeologik yodgorligi tavsifi: sanasi, eng muhim topilmalar ro'yhati va tavsifi;
- tarixiy yodgorliklari tavsifi: sanasi, marmar lavhada matnlar mavjudligi va o'rnatilgan vaqt;
- arxitektura yodgorliklari tavsifi: sanasi, rejalashtirilishi, kompozitsion-makon tuzilmasi va konstruksiyalarning o'ziga hosligi, fasad va intererlar bezagi xususiyati, rang-tasvir, haykaltaroshlik, amaliy san'at mavjudligi, qurilish materiali, asosiy o'lchamlari;
- monumental san'at yodgorliklari tavsifi: muallifi va sanasi, kompozitsion yechimi xususiyatlari, matnlar, material, texnika, hajmi;
- madaniy meros obyektining ijtimoiy, ilmiy-tarixiy va badiiy ahamiyatiga umumiy bahosidan iborat bo'ladi.

Madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlariga huquqlar yer uchastkalari (shu jumladan muhofaza zonalari)ning naturada belgilangan va mustahkamlangan chegaralari mavjud bo'lgan taqdirda binolar va inshootlarning davlat yer kadastro va davlat kadastrini olib boruvchi organlarda kadastr ro'yhatidan o'tkaziladi. Yer uchastkasi chegaralarining burilish nuqtalari qoziq belgilari yo'qolgan taqdirda ular o'sha joyda yer uchastkasi chegaralarining burilish nuqtalari o'rnatilgan holda dala geodezik o'lchashlari o'tkazib yoki tegishli ko'lamdagi fotografiya ma'lumotidan foydalanilgan holda yer uchastkalari ajratish materiallari bo'yicha tiklanadi.

Madaniy meros obyektlari soni ularning amaldagi holati va foydalanishiga ko'ra hisobga olinadi.

Madaniy meros obyektlarining sifatga doir tavsifini hisobga olish:

- sana belgilashni;
- texnik holatni;
- arxitektura bezagini;
- badiiy naqshlarni o'z ichiga oladi.

Texnik holat quyidagi tasniflash bo'yicha baholanadi: yaxshi, o'rta, yomon, avariya holatida.

Muhofaza tizimi uni toifasini (respublika ahamiyatiga, mahalliy ahamiyatga egaligi), muhofaza uchun qabul qilinishi to‘g‘risidagi hujjatning sanasi va tartib raqamini o‘z ichiga oladi.

Madaniy meros obyektlarini baholash, shu jumladan qiymatini, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan tasdiqlangan metodika bo‘yicha ulardan samarali foydalanishni belgilash, yetkazilgan zarar miqdorini aniqlash, sug‘urta, ijara to‘lovi stavkalari, ularni ta’mirlash, konservatsiya qilish xarajatlarini qoplash, joriy ta’mirlashni olib borish uchun o‘tkaziladi.

Davlat kadastro axborotning uzluksiz yangilanishini ta’minlovchi asosiy va joriy turlarni o‘z ichiga oladi. Asosiy turda madaniy meros obyektlari birlamchi hisobi amalga oshiriladi, ularning soni ko‘rsatiladi va naturada yer uchastkalari chegaralari belgilanadi (yer uchastkalarini ro‘yhatdan o‘tkazish ma’lumotlari asosida). Joriy turda asosiy turdan keyin madaniy meros obyekti bo‘yicha ro‘y bergen barcha o‘zgartirishlar kiritiladi.

Madaniy meros obyektiga kadastr hujjatlari:

- madaniy meros obyektiga mulkchilik huquqini va boshqa huquqlarni tasdiqlovchi hujjatlardan;
- madaniy meros obyekti kadastr ishidan;
- kadastr planidan (rejadan);
- kadastr daftaridan;
- madaniy meros obyektining holati to‘g‘risidagi hisobotdan iborat bo‘ladi.

Madaniy meros obyekti kadastr ishi kadastr obyektiga huquqlarni shakllantirish, hisobga olish va keyinchalik davlat ro‘yhatidan o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan pasport, boshqa hujjat va materiallar kadastr syomkasi hujjatlari, texnik xatlash va pasportlashtirish, maxsus tekshirish va qidiruvlar, kadastr obyektining sifat va qiymat bahosidan iborat bo‘ladi.

Madaniy meros obyektining kadastr xaritasi (plani) kadastr obyektlarining joylashgan joyini, ularning chegaralarini, muhofaza zonalarini, baholash, miqdoriy va sifat tavsiflarini aks ettiruvchi chiziqli hujjat hisoblanadi hamda qog‘ozda, elektron manbalarda tuziladi.

Kadastr daftari madaniy meros obyektlarini ro'yhatdan o'tkazish va hisobga olishning asosiy hujjati hisoblanadi hamda obyektning geografik joylashishi, huquqiy maqomi, miqdoriy va sifat tavsiflari va baholash haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Tarixiy-madaniy qimmatga ega bo'lgan obyektlarni Davlat kadastriga kiritish:

- davlat mulki bo'lgan madaniy meros obyektlariga nisbatan joylardagi davlat hokimiyati organlarining;

- yuridik va jismoniy shaxslarning mulki bo'lgan madaniy meros obyektlariga nisbatan yuridik va jismoniy shaxslarning takliflari asosida amalga oshiriladi.

Tarixiy-madaniy qimmatga ega bo'lgan obyektlarni kadastrga kiritish to'g'risidagi takliflarni tegishli ravishda obyektlarning egalari yoxud joylardagi davlat hokimiyati organlari bilan kelishgan holda mintaqaviy inspeksiyalar ham kiritishga haqlidir.

Joylardagi davlat hokimiyati organlari, yuridik va jismoniy shaxslarning obyektlarni kadastrga kiritish to'g'risidagi takliflari mintaqaviy inspeksiyalarga taqdim etiladi. Mintaqaviy inspeksiyalar obyektni oldindan o'rganadi, zarur kadastr hujjatlarini tuzadi. Mintaqaviy inspeksiyalar tomonidan tayyorlangan materiallar Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish bosh boshqarmasiga yuboriladi. Bu boshqarma kadastr materiallarini tarixiy-madaniy ekspertizadan o'tkazish uchun o'zini ilmiy-metodik kengashiga beradi. Kengash xulosasi asosida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligiga madaniy merosning aniqlangan obyektini Davlat kadastriga kiritish to'g'risida taklif kiritadi. Davlat kadastriga kiritilgan madaniy meros har bir obyektiga passport rasmiylashtiriladi va u mintaqaviy inspeksiyaga yuboriladi. Madaniy meros obyekti passportining shakli Davyergeodezkadastr qo'mitasi bilan kelishgan holda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan belgilanadi.

Mintaqaviy inspeksiyalar madaniy meros obyekti egasini (yuridik yoki jismoniy shaxsni) yoxud joylardagi davlat hokimiyati organini madaniy meros obyekti Davlat kadastriga kiritilganligi to‘g‘risida xabardor qiladi va unga madaniy meros obyekti pasportini beradi. Davlat mulki bo‘lgan madaniy meros obyekti pasporti tegishli mulkning balansi egasida saqlanadi. Mintaqaviy inspeksiyalar, joylardagi davlat hokimiyati organlari Davlat kadastriga kiritilgan madaniy meros obyektlarining holati ustidan nazoratni ta’minlaydilar.

Madaniy meros obyektiga nisbatan kadastr axboroti o‘zgargan taqdirda obyektlarining egalari, davlat hokimiyati organlari bir oy muddatda bu haqda tegishli mintaqaviy inspeksiyaga ma’lum qilishlari shart.

Mintaqaviy inspeksiyalar joylardagi davlat hokimiyati organlari bilan birlgilikda besh yilda bir marta madaniy meros obyektlarining holatini tekshiradilar va qayd etadilar. Tekshirish natijalari bo‘yicha, zarurat bo‘lsa, obyektlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish bosh boshqarmasiga madaniy meros obyektlarini saqlash bo‘yicha joriy va istiqbol dasturlarini ishlab chiqishga doir takliflar kiritadilar.

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi har yili kadastr axborotini hisobot yildan keyingi yilning 1 martigacha Davlat kadastrlarining yagona tizimiga taqdim etadi. Kadastr ma’lumotlarini taqdim etish shakli Madaniyat vazirligi tomonidan Davyergeodezkadastr qo‘mitasi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi. Davlat kadastro axboroti davlat hokimiyati va boshqaruva organlariga bepul, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga esa belgilangan tartibda haq to‘lash evaziga beriladi.

Davlat kadastrini yuritishni tashkil etish bo‘yicha yo‘riqnomalar Davyergeodezkadastr qo‘mitasi bilan kelishgan holda, belgilangan tartibda Madaniyat vazirligi tomonidan ishlab chiqib tasdiqlanadi.

Madaniy meros obyektlari davlat kadastridan chiqarish tartibi

1. Mintaqaviy davlat inspeksiyalari joylardagi davlat hokimiyati organlari, yuridik va jismoniy shaxslar takliflari asosida yoxud tegishli obyektlarning holatini o‘rganish natijalariga ko‘ra jismoniy jihatdan yo‘qolgan yoki madaniy meros

obyekti sifatida qadrini yo‘qotgan obyektlariga nisbatan ularni Davlat kadastridan chiqarish to‘g‘risida takliflar tayyorlaydilar.

2. Madaniy meros obyektlarini Davlat kadastridan chiqarish to‘g‘risidagi takliflar zarur materiallar bilan birgalikda Madaniyat va sport ishlari vazirligining Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish bosh boshqarmasiga yuboriladi. Materiallarni boshqarmaning ilmiy-metodik kengashi ko‘rib chiqadi.

3. Tarixiy-madaniy ekspertiza natijalariga ko‘ra Ilmiy-metodik kengash obyektni Davlat kadastridan chiqarishning maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida tegishli xulosa taqdim etadi.

4. Xulosa asosida Madaniyat vazirligiga obyektni Davlat kadastridan chiqarish to‘g‘risida takrif kiritiladi.

5. Madaniyat va sport ishlari vazirligi obyektni Davlat kadastridan chiqarish to‘g‘risida tegishli buyruq chiqaradi.

6. Buyruq asosida Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish bosh boshqarmasi Davlat kadastriga tegishli yozuvni kiritadi va Davyergeodezkadastr qo‘mitasiga Davlat kadastrlari yagona tizimiga o‘zgartirish kiritish uchun tegishli axborot beradi.

7. Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish bosh boshqarmasi madaniy meros pasportini bekor qiladi va tegishli mintaqaviy inspeksiyaga madaniy meros obyekti Davlat kadastridan chiqarilganligi to‘g‘risida axborot yuboradi.

8. Mintaqaviy davlat inspeksiyalari madaniy meros obyekti egasini (yuridik yoki jismoniy shaxsni) yoxud joylardagi davlat hokimiyati organini madaniy meros obyekti Davlat kadastridan chiqarilganligi to‘g‘risida xabardor qiladi.

Madaniy meros obyektlarining tarixiy-madaniy ekspertizasi

Tarixiy-madaniy ekspertiza:

- Madaniy meros obyektlarini davlat kadastriga kiritilishini asoslash;
- madaniy meros obyektlarining toifasini aniqlash;
- madaniy meros obyektlari toifasining o‘zgartirilishini asoslash;

- madaniy meros obyektlarini davlat kadastridan chiqarish;
- madaniy meros obyektlari muhofaza zonasi loyihalarini shaharsozlik va loyiha hujjatlariga, shuningdek, amalga oshirilishi mo‘ljallanayotgan yer tuzish, qurilish, melioratsiya, xo‘jalik ishlarni va boshqalarni madaniy meros obyektlarini saqlash talablariga muvofiqligini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.


Quyidagilar tarixiy-madaniy ekspertiza obyektlari hisoblanadi:

- xo‘jalik maqsadlarida o‘zlashtiriladigan yer uchastkalari, agar ularda madaniy meros obyektlari mavjud bo‘lsa;
- madaniy meros obyektlarining davlat kadastriga kiritilishini asoslovchi materiallar;
- madaniy meros obyektlarining davlat kadastridan chiqarilishini asoslovchi materiallar;
- madaniy meros obyektlari toifasining o‘zgartirilishini asoslovchi materiallar;
- shaharsozlik va loyiha hujjatlari, "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan hollarda;
- madaniy meros obyektlariga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan yer qazish, qurilish, melioratsiya, xo‘jalik ishlari va boshqa ishlarni amalga oshirilishini asoslovchi hujjatlar.

Tarixiy-madaniy ekspertiza O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish bosh boshqarmasi huzuridagi Ilmiy-metodik kengash tomonidan mazkur Nizomga ilova qilinayotgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

Ilmiy-metodik kengash tarkibiga (keyingi o‘rinlarda "Kengash" deb ataladi) davlat organlari, ilmiy institutlar va muassasalar, nodavlat notijorat tashkilotlar, madaniy meros obyektlarini o‘rganish, saqlash va ulardan zamonaviy foydalanish sohasidagi olimlar va yetakchi mutaxassislar kiritiladi. Kengash raisi, rais o‘ribbosarlari, a’zolar va kotibidan tashkil topadi. Kengashning tarkibi O‘zbekiston

Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Uning tarkibida tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha seksiyalar tashkil etiladi. Kengash majlislari zaruriyatga ko‘ra, lekin har chorakda eng kamida bir marta o‘tkaziladi. Kengashning ish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Kengash faoliyatining moddiy-texnika ta’minoti Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish bosh boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.



**) Strelkalar bilan kadastr axboroti harakati yo‘nalishlari belgilangan.*

7-rasm. **Madaniy meros obyektlari davlat kadastrini yuritish sxemasi**

Tarixiy-madaniy ekspertizadan o'tkazish uchun taqdim etiladigan materiallar tarkibi va mazmuni Madaniyat vazirligi tomonidan belgilanadi. Zaruriyat bo'lganda madaniy meros obyektining tarixiy-madaniy ekspertizasi obyekt joylashgan joyda o'tkaziladi. Tarixiy-madaniy ekspertizani o'tkazish metodikasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi bilan kelishgan holda Madaniyat vazirligi tomonidan belgilanadi. Ekspertizani o'tkazishda Kengash mustaqil ekspertlarni jalg qilishga haqlidir.

Tarixiy-madaniy ekspertiza natijalariga ko'ra Kengash seksiyalari ekspert xulosasi, shuningdek tarixiy-madaniy ekspertiza xulosasi loyihasini tayyorlaydi va unga barcha materiallar ilova qilingan holda Kengash majlisida ko'rib chiqiladi. Kengash majlisida tarixiy-madaniy ekspertiza xulosasining loyihasi tasdiqlanadi. Kengash qarori majlis protokoli bilan rasmiylashtiriladi. Tarixiy-madaniy ekspertizani o'tkazish muddati materiallarning yo'nalishiga, murakkabligiga va hajmiga qarab o'ttiz kundan oshmasligi kerak.

2.5. GIDROTEXNIKA INSHOOTLARI DAVLAT KADASTRI

O'zbekiston Respublikasi Gidrotexnika inshootlarining kadastro Gidrotexnika inshootlarining texnik holatini hisobga olish va baholash, ularning bexatar ishslashini ta'minlash maqsadida yuritiladi.

Gidrotexnika inshootlari kadastro inshootning tabiiy shart-sharoitlari, joylashgan o'rni, texnik, sifat va miqdor tavsifnomalari, xizmat qilish muddati, egasi to'g'risidagi va boshqa ma'lumotlarni tashkil etuvchi ma'lumotlar tizimi va hujjatlardan iborat bo'ladi.

Davlat mulki bo'lgan gidrotexnika inshootlari, shuningdek korxonalarning respublika va mintaqalar suv xo'jaligi va energetika tizimiga kiruvchi gidrotexnika inshootlari Kadastr obyekti hisoblanadi.

Gidrotexnika inshootlari kadastro inshootlarning texnik holatini har tomonlama o'rganish va baholash, sifat va miqdor tavsifnomalarini va foydalanish darajasini hisobga olish maqsadida yuritiladi.

Ma'lumotlarni ishlab chiqish, turkumlash, saqlash, yangilash va obyekt haqida axborot taqdim etish texnologiyasini takomillashtirish gidrotexnika inshootlari kadastrining asosiy vazifasi favqulodda vaziyatlarning paydo bo'lish xavfini tug'diruvchi gidrotexnika inshootlarini qamrab olish, yuritish uslubining yagonaligi, axborotlarning haqqoniyligi esa kadastrni yuritishning asosiy prinsiplari hisoblanadi.

Gidrotexnika inshootlari kadastr manfaatdor organlarni ehtimoli bo'lgan avariyalarning oldini olish maqsadida inshootlarni xavfsizligini, foydalanishni to'g'ri tashkil etish, ularning texnik holatini baholash to'g'risidagi axborotlar bilan ta'minlash uchun mo'ljallangan. Kadastrini yuritish topo-geodeziya qidiruvlarini, gidrologiya, geologiya, gidrogeologiya, geofizika, naturada kuzatishlar inshootlar tarkibi, suv xo'jaligi, suv-energetika, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar, konstruktiv chizmalar, inshoot holatini belgilovchi defektlarni aniqlash va boshqa maxsus tadqiqotlarni olib borish, shuningdek gidrotexnika inshootlarini maxsus reestrda ro'yhatdan o'tkazish bilan ta'minlanadi. Bunda kadastrni yuritish ishlari davlat byudjetidan mablag' bilan ta'minlanadi.

Gidrotexnika inshootlari kadastrida har bir inshootga kadastr raqami bergen holda inshootni maxsus reestrda ro'yhatdan o'tkazish, turkumlash, sifat va miqdorga oid tavsifnomalarni hisobga olish hamda inshoot bo'yicha ma'lumotlarni tegishli shakllarga kiritish, saqlash, yangilash va axborotlarni foydalanish uchun berish nazarda tutiladi.

Gidrotexnika inshootlari kadastrining mazmun bo'yicha shakllari O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, "O'zdavenergonazorat" davlat inspeksiyasi bilan kelishgan holda gidrotexnika inshootlari (suv ombori, nasos stansiyasi, gidrouzel, kanal, kollektor va boshqalar)ning aniq turiga muvofiq "Davsuvxo'jaliknazorat" inspeksiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Mukammalligi I, II, III klassgacha davlat mulki bo'lgan, shuningdek respublika va mintaqalar suv xo'jaligi va energetika tizimiga kiruvchi gidrotexnika inshootlari kadastr "Davsuvxo'jaliknazorat" inspeksiyasi tomonidan,

mukammalligi III klassdan past bo‘lgan boshqa gidrotexnika inshootlari bo‘yicha inshootlarning mansubligiga qarab O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, "O‘zbekenergo" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan yuritiladi.

Gidrotexnika inshootlari kadastrini yuritish yuklangan organlar gidrotexnika inshootlarining texnik holati va xavfsizligi ustidan nazorat (monitoring)ni ta’minlaydilar.


Gidrotexnika inshootlari kadastr ma’lumotlarini yangilashda inshootning tavsifnomasiga va texnik holatiga ta’sir qiluvchi rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash va boshqa omillar natijasida ro‘y bergan o‘zgarishlar aniqlanadi va ro‘yhatdan o‘tkaziladi. Inshootlar egalari bir oy muddatda gidrotexnika inshootlari kadastrini yuritish yuklangan organlarga ko‘rsatib o‘tilgan o‘zgarishlar haqida axborot taqdim etishga majburdirlar.

1. “Davsuvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasi, Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, “O‘zbekenergo” aksiyadorlik jamiyati” tizimlarida hamda ulardan tashqarida faoliyat ko‘rsatadigan gidrotexnika inshootlari mulkdorlari foydalanuvchilari inshootlari bo‘yicha kadastr axborotlarini mansubligi bo‘yicha gidrotexnika inshootlari kadastr xizmatiga topshiradilar.

2. “Davsuvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasi, Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, “O‘zbekenergo” aksiyadorlik jamiyati kadastr xizmatlari davlat yer kadastri hamda binolar va inshootlar davlat kadastridan yer uchastkalar, bino va inshootlar to‘g‘risidagi axborotlarni olib gidrotexnik inshootlari axborotlari bilan birga ma’lumotlar bazasiga kiritadilar hamda Davyergeodezkadastr qo‘mitasining DKYAT ma’lumotlar bazasiga yuboradilar.

3. Gidrotexnik inshootlari kadastr xizmatlari so‘rov bo‘yicha Davyergeodezkadastr qo‘mitasining DKYAT ma’lumotlar bazasidan energetika obyektlari bo‘yicha axborotlarni olishi mumkin.

4. DKYATdan foydalanuvchilar so‘rov bo‘yicha Davyergeodezkadastr qo‘mitasining DKYAT ma’lumotlar bazasidan Gidrotexnika inshootlari bo‘yicha kadastr axborotlarini olishi mumkin.



** Strelkalar bilan kadastr axboroti harakati yo'nalishlari belgilangan.*

8-rasm. Gidrotexnika inshootlari davlat kadastrini yuritish sxemasi


NAZORAT SAVOLLARI

1. Bino va inshootlar davlat kadastrini yuritish bo'yicha vakolatli organ qaysi davlat organi hisoblanadi? Bu kadastrni vazifasi nima?
2. Davlat shaharsozlik kadastrini yuritish bo'yicha vakolatli organ qaysi davlat organi hisoblanadi? Bu kadastrni obyektlari bo'lib nimalar hisoblanadi?

3. Gidrotexnika inshootlari davlat kadastrini yuritish bo'yicha vakolatli organ qaysi davlat organi hisoblanadi? Bu kadastrni yuritish tamoyillari nima?
4. Madaniy meros obyektlari davlat kadastrini yuritish bo'yicha vakolatli organ qaysi davlat organi hisoblanadi? Bu kadastrni obyektlari nimalar?
5. O'zbekiston Respublikasining Uy-joy Kodeksi qachon qabul qilingan?
6. O'zbekiston Respublikasining "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida"gi Qonun qachon qabul qilingan?
7. O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros obyektlarini muxofaza qilishi va ulardan foydalanish to'g'risida"gi Qonun qachon qabul qilingan?
8. O'zbekiston Respublikasining "Davlat kadastrlari to'g'risida"gi Qonuni haqida ma'lumot bering.
9. O'zbekiston Respublikasining "Davlat yer kadastro to'g'risida"gi Qonun qachon qabul qilingan?
10. Davlat shaharsozlik kadastrini yuritish tartibi to'g'risida nizom haqida nimalarni bilasiz?

3-BOB. CHIZIQLI INSHOOTLAR KADASTRLARI GURUHIGA KIRUVCHI DAVLAT KADASTRLARI VA ULARNI YURITISH XUSUSIYATLARI

3.1. AVTOMOBIL YO'LLARI DAVLAT KADASTRI



Avtomobil yo'llari davlat kadastro - avtomobil yo'llari obyektlarini, geografik holati, huquqiy maqomi, miqdor va sifat tavsiflari va iqtisodiy baholash to'g'risidagi, yangilanib turiladigan ishonchli axborot tizimi. Bu kadastr Davlat kadastrlari yagona tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi va avtomobil yo'llari obyektlarini hisobga olish hamda ularning holatini baholash maqsadida yuritiladi.

Mavjud bo'lgan va qurilayotgan avtomobil yo'llari, ulardan inshootlar hamda hududlarda joylashgan avtomobil yo'llarining boshqa obyektlari Avtomobil yo'llari davlat kadastro obyektlari hisoblanadi. "O'zavtoyo'l" davlat qo'mitasi kadastrini yuritish bo'yicha vakolatli organ hisoblanadi.

Avtomobil yo'llari davlat kadastro davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini, "O'zavtoyo'l" davlat qo'mitasi, manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarni avtomobil yo'llari obyektlari to'g'risidagi ishonchli kadastr axborotlari

bilan ta'minlash uchun mo'ljallangan. Quyidagilar ushbu kadastrni yuritishning asosiy prinsiplari hisoblanadi:

- O'zbekiston Respublikasining avtomobil yo'llari obyektlarini to'liq qamrab olish;
- fazoviy koordinatlarining yagona tizimini va yagona topografiya asoslarini qo'llash;
- barcha obyektlar bo'yicha kadastr axborotlarini shakllantirishning yagona metodologiyasi;
- kadastr axborotlarining ishonchliligi, ko'rgazmaliligi va hujjatliligi;
- kadastr axborotlarining ochiqligi.

Avtomobil yo'llari obyektlariga tegishli bo'lgan yer uchastkalari, binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yhatidan o'tkazish ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni ro'yhatdan o'tkazish uchun belgilangan tartibda vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi.

Avtomobil yo'llari obyektlariga tegishli bo'lgan, yer uchastkalari to'g'risidagi yer-kadastr axborotida maqsadli foydalanilishi bo'yicha arning tarkibi, yer uchastkalariga bo'lgan huquqni davlat ro'yhatidan o'tkazilganligi (shu jumladan, erdan foydalanishda servitlarda belgilangan mavjud cheklashlar va taqiqlar to'g'risidagi ma'lumotlar), yerning miqdori va sifati to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak.

Bino va inshootlar davlat kadastro beradigan avtomobil yo'llari obyektlariga tegishli bo'lgan binolar va inshootlar to'g'risidagi kadastr axborotida ulardan maqsadli foydalanilishi, huquqlarning davlat ro'yhatidan o'tkazilishi, asosiy miqdor va sifat tavsiflari to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak.

Avtomobil yo'llari obyektlari to'g'risidagi tizimlashtirilgan kadastr axboroti Davlat kadastrlari yagona tizimiga belgilangan tartibda beriladi. Kadastrni yaratish va yuritish ishlarini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

Avtomobil yo'llari davlat kadastrini yuritish "O'zavtoyo'l" davlat-qo'mitasining quyidagi tarkibiy bo'linmalari:

- "O'zavtoyo'l" davlat qo'mitasining vakolatli tashkiloti;
- hududiy shu'ba yo'l-qurilish tashkilotlarining kadastr bo'linmasi tomonidan amalga oshiriladi.

Avtomobil yo'llari davlat kadastrini yuritishni metodik ta'minlash "O'zavtoyo'l" davlat qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi. Bu qo'mitaning vakolatli tashkiloti:

- avtomobil yo'llari davlat kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimi joriy etilishi va mavjud bo'lishini ta'minlaydi;
- ma'lumotlar bazasi tuzilmasini ishlab chiqadi, uni yo'l korxonalariga beradi, ma'lumotlar bazasi to'g'ri to'ldirilishi ustidan nazorat qiladi;
- hududiy shu'ba yo'l-qurilish tashkilotlarining kadastr bilan ishlaydigan hodimlarini avtomobil yo'llari davlat kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimi bilan ishlashga o'qitishni tashkil etadi;
- hududiy shu'ba yo'l-qurilish tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan kadastr axborotlarini tizimlashtiradi va uni avtomobil yo'llari davlat kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritadi;
- avtomobil yo'llarining yangi obyektlari to'g'risidagi hisobga olish va baholash ma'lumotlari to'planishi ustidan nazorat qiladi;
- kadastr axborotlari Davlat kadastrlari yagona tizimiga tezkor berilishini amalga oshiradi;
- har yili belgilangan tartibda Davlat kadastrlari yagona tizimiga "O'zavtoyo'l" davlat-aksiyadorlik kompaniyasining avtomobil yo'llari obyektlarining holati va ulardan foydalanish to'g'risida hisobot taqdim etadi.

"O'zavtoyo'l" davlat qo'mitasining hududiy shu'ba yo'l-qurilish tashkilotlari:

- avtomobil yo'llari obyektlarining miqdor va sifat holatidagi joriy o'zgarishlar, ularning atrof muhitga ta'siri, ekologik-iqtisodiy baholash to'g'risidagi axborotlarni to'playdi va tizimlashtiradi;
- avtomobil yo'llari obyektlari kadastr daftarlarni yuritadi, ma'lumotlar bazasini to'ldiradi va ularni tizimlashtirish hamda avtomobil yo'llari davlat

kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritish uchun "O'zavtoyo'l" davlat qo'mitasi vakolatli tashkilotining kadastr bo'limiga beradi;

- avtomobil yo'llarining yangi obyektlarini hisobga qo'yadi, ular to'g'risidagi hisobga olish va baholash ma'lumotlarini to'playdi.

"O'zavtoyo'l" davlat qo'mitasi tizimidan tashqarida mavjud bo'lgan avtomobil yo'llari obyektlarining egalari foydalanuvchilari kompaniyasining vakolatli tashkilotiga kadastr obyektlarining jug'rofiy holati, huquqiy maqomi, miqdor tavsiflari va baholanishi, shuningdek ular holatining joriy o'zgarishlari to'g'risidagi axborotni taqdim etishi shart.

Avtomobil yo'llari davlat kadastrini yuritish avtomobil yo'llari obyektlarining barcha turlarini ro'yhatdan o'tkazishdan, ularning miqdor va sifat tavsiflarini hisobga olishdan, obyektlarni ekologik-iqtisodiy baholashdan, shuningdek kadastr axborotlarini toplash, tahlil qilish, tizimlashtirish, saqlash, yangilashdan va uni qonunda belgilangan tartibda manfaatdor foydalanuvchilarga taqdim etishdan iboratdir.

Avtomobil yo'llari obyektlarining barcha turlari birlamchi ro'yhatga olinishi kerak. Bunda asosiy ko'rsatkichlar qayd etiladi. Asosiy ko'rsatkichlarning tarkibi Davyergeodezkadastr qo'mitasi bilan kelishuv bo'yicha "O'zavtoyo'l" davlat qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadigan tegishli normativ hujjatlar bilan belgilanadi. Ro'yhat natijalari bo'yicha har bir obyektga pasport tuziladi.

Miqdor va sifat tavsiflarining asosiy hisobga olinishi hisobga qo'yish paytida foydalanishga topshirilgan va mavjud bo'lgan avtomobil yo'llarining har bir obyekti bo'yicha amalga oshiriladi. Avtomobil yo'llari obyektlari tavsiflarida yuz beradigan bundan keyingi o'zgarishlar joriy hisobga olishda qayd etiladi.

Avtomobil yo'llari obyektlarining miqdor va sifat tavsiflari hisobga qo'yilishi ularning iqtisodiy, texnologik va ekologik belgilar bo'yicha tasniflanishini o'z ichiga oladi, ularning tarkibi Avtomobil yo'llari davlat kadastrini yuritish bo'yicha normativ hujjatlar bilan belgilanadi.

Avtomobil yo'llari obyektlarining miqdor va sifat tavsiflarini hisobga olish uchun Davyergeodezkadastr qo'mitasi bilan kelishuv bo'yicha "O'zavtoyo'l"

davlat qo‘mitasi tomonidan texnik parametrlar va kadastr axborotini taqdim etish formatlari ishlab chiqiladi. Hisobga olish axboroti korxonaning kadastr daftariga yoziladi va avtomobil yo‘llari davlat kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritiladi.


Avtomobil yo‘llari obyektlarini iqtisodiy baholash avtomobil yo‘llari har bir obyektining qiymatini belgilash, soliq solish, xususiyashtirish va boshqa maqsadlar uchun o‘tkaziladi. Avtomobil yo‘llari obyektlarini iqtisodiy baholash o‘ziga hosliklar hisobga olingan holda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

1. "O‘zavtoyo‘l" qo‘mitasi tizimida va ulardan tashqarida mavjud bo‘lgan avtomobil yo‘llari obyektlari egalari foydalanuvchilar kadastr axborotlarini avtomobil yo‘llari obyektlari bo‘yicha hududiy shu’ba yo‘l-qurilish tashkilotlarining kadastr bo‘linmalariga taqdim etadilar.

2. Hududiy shu’ba yo‘l-qurilish tashkilotlarining kadastr bo‘linmalarini ushbu obyektlarning egalari va foydalanuvchilardan avtomobil yo‘llari obyektlari bo‘yicha kadastr axborotlarini to‘playdilar, o‘z hududlari doirasida kadastr ishini shakllantiradilar, avtomobil yo‘llari obyektlari bo‘yicha axborotni AYDKni yuritish bo‘yicha vakolatli tashkilotga taqdim etadilar.

3. Vakolatli tashkilot avtomobil yo‘llari obyekti bo‘yicha axborotlarni AYDKga kiritgandan keyin kadastr axborotlarini Davyergeodezkadastr qo‘mitasi DKYATning ma’lumotlar bazasiga beradi.

4. AYDKni yuritish bo‘yicha vakolatli tashkilot so‘rov bo‘yicha DKYAT ma’lumotlar bazasidan avtomobil yo‘llari obyektlari bo‘yicha axborot olishi mumkin hamda zarur axborotni hududiy shu’ba-yo‘l qurilish tashkilotlarining kadastr bo‘linmalariga yuboradi.



*) Strelkalar bilan kadastr axboroti harakati yo'nalishlari belgilangan.

9-rasm. Avtomobil yo'llari davlat kadastrini yuritish sxemasi

5. DKYAT ma'lumotlar bazasidan foydalanuvchilar so'rov bo'yicha avtomobil yo'llari obyektlari bo'yicha kadastr axborotlarini olishlari mumkin.

3.2. TEMIR YO'LLAR DAVLAT KADASTRI



Temir yo'llari davlat kadastro - temir yo'llar obyektlari, ularning jug'rofiy holati, huquqiy maqomi, miqdor va sifat tavsiflari va iqtisodiy baholash to'g'risidagi yangilanib turiladigan ishonchli axborot tizimi. Kadastr Davlat kadastrlari yagona tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi va temir yo'llar obyektlarini hisobga olish, ular holatini baholash maqsadida yuritiladi.

Mavjud bo'lgan va qurilayotgan temir yo'llar, stansiyalar hamda O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan temir yo'llarning boshqa obyektlari Temir yo'llari davlat kadastro obyektlari hisoblanadi. "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati Temir yo'llari davlat kadastrini yuritish bo'yicha vakolatli organ hisoblanadi. Bu kadastr davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini, "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati, manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarni temir yo'l obyektlari to'g'risidagi ishonchli kadastr axborotlari bilan ta'minlash uchun mo'ljallangan. Quyidagilar Temir yo'llari davlat kadastrini yuritishning asosiy prinsiplari hisoblanadi:

- O'zbekiston Respublikasi butun hududining temir yo'l obyektlarini to'liq qamrab olish;
- fazoviy koordinatlarining yagona tizimini va yagona topografiya asoslarini qo'llash;
- barcha obyektlar bo'yicha kadastr axborotlarini shakllantirishning yagona metodologiyasi;
- kadastr axborotlarining ishonchliligi, ko'rgazmaliligi va hujjatliligi;
- kadastr axborotlarining ochiqligi.

Temir yo'llari davlat kadastrini yuritish temir yo'l obyektlarini xatlash, hisobga olish, baholash bilan ta'minlanadi hamda davlat yer kadastro, binolar va inshootlar davlat kadastro axborotlaridan majburiy foydalanishini nazarda tutadi. Temir yo'l obyektlariga tegishli bo'lgan yer uchastkalari, binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yhatidan o'tkazish uchun belgilangan tartibda vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi.

Temir yo'l obyektlariga tegishli bo'lgan, davlat yer kadastridan Temir yo'llari davlat kadastriga berilayotgan yer uchastkalari bo'yicha yerning tarkibi yer uchastkalariga bo'lgan huquq davlat ro'yhatidan o'tkazilganligi (shu jumladan yerdan foydalanishda servitutlarda belgilangan mavjud cheklashlar va taqiqlar to'g'risidagi ma'lumotlar), yerning miqdori va sifati to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak.

Bino va inshootlar davlat kadastridan temir yo'l obyektlariga tegishli bo'lgan binolar va inshootlar to'g'risidagi beriladigan kadastr axborotlarida ulardan maqsadli foydalanishi, huquqlarning davlat ro'yhatidan o'tkazilishi, asosiy miqdor va sifat tavsiflari to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak. Temir yo'l obyektlari to'g'risidagi tizimlashtirilgan kadastr axboroti Davlat kadastrlari yagona tizimiga belgilangan tartibda beriladi.

Temir yo'llari davlat kadastrini yaratish va yuritish ishlarini moliyalashtirish "O'zbekiston temir yo'llari" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi. Kadastr yuritishni "O'zbekiston temir yo'llari" davlat-aksiyadorlik kompaniyasining quyidagi tarkibiy bo'linmalari ta'minlaydi:

- "O'zbekiston temir yo'llari" davlat-aksiyadorlik kompaniyasining Strategik rivojlanish boshqarmasining temir yo'llar davlat kadastro bo'limi;
- temir yo'l korxonalarining kadastr bo'linmalarini.

Kadastrini yuritish bo'yicha ishlarga umumiy rahbarlik qilishni "O'zbekiston temir yo'llari" davlat-aksiyadorlik kompaniyasining bosh menejeri - bosh muhandisi amalga oshiradi. Temir yo'llari davlat kadastrini yuritishni metodik ta'minlashni "O'zbekiston temir yo'llari" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi amalga oshiradi.

Temir yo'llar davlat kadastro bo'limi quyidagilarni ta'minlaydi:

- temir yo'llar davlat kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimi joriy etilishi va mavjud bo'lishini;
- ma'lumotlar bazasi tuzilmasini ishlab chiqish, uni temir yo'l korxonalariga berish, ma'lumotlar bazasi to'g'ri to'ldirilishi ustidan nazorat qilishni;
- korxonalarining kadastr bilan shug'ullanadigan hodimlarini temir yo'llar davlat kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimi bilan ishlashga o'qitishni;
- korxonalar tomonidan taqdim etilgan kadastr axborotini tizimlashtirish va uni temir yo'llar davlat kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritishni;
- temir yo'llarning yangi obyektlari to'g'risidagi hisobga olish va baholash ma'lumotlari to'planishi ustidan nazorat qilishni;
- kadastr axborotlari Davlat kadastrlari yagona tizimiga tezkor berilishini amalga oshirishni;
- har yili belgilangan tartibda Davlat kadastrlari yagona tizimiga "O'zbekiston temir yo'llari" davlat-aksiyadorlik kompaniyasining temir yo'l obyektlarining holati va ulardan foydalanish to'g'risidagi hisobotni taqdim etishni.

Temir yo'l korxonalarining kadastr bo'linmalarini:

- temir yo'l obyektlarini miqdor va sifat holatidagi joriy o'zgarishlar, ularning atrof muhitga ta'siri, ekologik-iqtisodiy baholash to'g'risidagi axborotlarni to'playdi va tizimlashtiradi;
- temir yo'l obyektlari kadastr daftarlari yuritadi, ma'lumotlar bazasini to'ldiradi va ularni tizimlashtirish va temir yo'llar davlat kadastrining

avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritish uchun temir yo'llari davlat kadastro bo'limiga beradi;

- temir yo'llar yangi obyektlarini hisobga qo'yadi, ular to'g'risidagi hisobga olish va baholash ma'lumotlarini to'playdi.

"O'zbekiston temir yo'llari" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi tizimidan tashqarida mavjud bo'lgan temir yo'l obyektlarining egalari foydalanuvchilar kompaniyani kadastr xizmatiga kadastr obyektlarining jug'rofiy holati, huquqiy maqomi, miqdor tavsiflari va baholanishi, shuningdek ular holatining joriy o'zgarishlari to'g'risidagi axborotni taqdim etishi shart.

Temir yo'llari davlat kadastrini yuritish temir yo'l obyektlarining barcha turlarini ro'yhatdan o'tkazishdan, ularning miqdor va sifat tavsiflarini hisobga olishdan, obyektlarni ekologik-iqtisodiy baholashdan, shuningdek kadastr axborotlarini to'plash, tahlil qilish, tizimlashtirish, saqlash, yangilashdan va uni qonunda belgilangan tartibda manfaatdor foydalanuvchilarga taqdim etishdan iboratdir.

Temir yo'l obyektlarining barcha turlari birlamchi ro'yhatga olinishi kerak. Bunda asosiy ko'rsatkichlar qayd etiladi. Asosiy ko'rsatkichlarning tarkibi Davyergeodezkadastr qo'mitasi bilan kelishuv bo'yicha "O'zbekiston temir yo'llari" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan tasdiqlanadigan tegishli normativ hujjatlar bilan belgilanadi. Ro'yhatga olish natijalari bo'yicha har bir obyektga pasport tuziladi.

Miqdor va sifat tavsiflarining asosiy hisobga olinishi hisobga qo'yish paytida foydalanishga topshirilgan va mavjud bo'lgan temir yo'llarning har bir obyekti bo'yicha amalga oshiriladi. Temir yo'l obyektlari tavsiflarida yuz beradigan bundan keyingi o'zgarishlar joriy hisobga olishda qayd etiladi.

Temir yo'l obyektlarining miqdor va sifat tavsiflari hisobga qo'yilishi ularning iqtisodiy, texnologik va ekologik belgilar bo'yicha tasniflanishini o'z ichiga oladi, ularning tarkibi temir yo'llar davlat kadastrini yuritish bo'yicha normativ hujjatlar bilan belgilanadi.

Temir yo‘l obyektlarining miqdor va sifat tavsiflarini hisobga olish uchun Davyergeodezkadastr qo‘mitasi bilan kelishuv bo‘yicha “O‘zbekiston temir yo‘llari” davlat-aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan texnik parametrlar va kadastr axborotlarini taqdim etish formatlari ishlab chiqiladi. Hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan va belgilangan tartibda tasdiqlangan hisobga olish axboroti korxonaning kadastr daftariga yoziladi va temir yo‘llar davlat kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritiladi.

Temir yo‘l obyektlarini iqtisodiy baholash har bir obyektning qiymatini belgilash, soliq solish, xususiylashtirish va boshqa maqsadlar uchun o‘tkaziladi. Temir yo‘l obyektlarini iqtisodiy baholash o‘ziga xos hisobga olingan holda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.


Temir yo‘l obyektlari to‘g‘risidagi kadastr axborotining ishonchliligi uchun “O‘zbekiston temir yo‘llari” davlat-aksiyadorlik kompaniyasining Temir yo‘llari davlat kadastrini yurituvchi tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari javob beradilar.

1. “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati tizimida va undan tashqarida mavjud bo‘lgan temir yo‘l obyektlari egalari foydalanuvchilari obyektlari bo‘yicha kadastr axborotlarini temir yo‘l korxonalarining kadastr bo‘linmalariga taqdim etadilar.

2. Ushbu kadastr bo‘linmalari obyektlarning egalari va foydalanuvchilardan temir yo‘l obyektlari bo‘yicha kadastr axborotlarini to‘playdilar, o‘z hududlari doirasida kadastr ishini shakllantiradilar, temir yo‘l obyektlari bo‘yicha axborotni Strategik rivojlanish boshqarmasining temir yo‘llar davlat kadastri bo‘limiga taqdim etadilar.

3. Strategik rivojlanish boshqarmasining temir yo‘llar davlat kadastri bo‘limi temir yo‘l obyekti TYDKga kiritilgandan keyin kadastr axborotlarini Davyergeodezkadastr qo‘mitasi DKYATning ma’lumotlar bazasiga beradi.

4. Strategik rivojlanish boshqarmasining temir yo‘llar davlat kadastri bo‘limi so‘rov bo‘yicha Davyergeodezkadastr qo‘mitasining DKYAT ma’lumotlar bazasidan temir yo‘l obyektlari bo‘yicha axborot olishi mumkin.



* Strelkalar bilan kadastr axboroti harakati yo'nalishlari belgilangan.

10-rasm. Temir yo'llari davlat kadastrini yuritish sxemasi

3.3. ALOQA OBYEKTLARI DAVLAT KADASTRI



Aloqa obyektlari davlat kadastro bu obyektlarni, geografik holati, huquqiy maqomi, miqdor va sifat tavsiflari hamda iqtisodiy bahosi to‘g‘risidagi yangilab boriladigan ishonchli ma’lumotlar tizimidir. U davlat kadastrlari yagona tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi va O‘zbekiston Respublikasining barcha hududidagi aloqa obyektlarini hisobga olish va baholash maqsadida yuritiladi.

Quyidagilar Aloqa obyektlari davlat kadastro obyektlari hisoblanadi:

- xalqaro, shaharlararo, viloyat va tuman ahamiyatiga ega bo‘lgan telefon-telegraf stansiyalari, shu jumladan turg‘un aloqa asbob-uskunalarini va magistral liniyalari;
- aloqaning tarmoq uzellari;
- shahar aloqa telefon uzellari, shu jumladan stansiyalari va chiziqli inshootlari;
- tuman telekommunikatsiya uzellari, shu jumladan stansiya asbob-uskunalarini, hududiy va qishloq chiziqli inshootlari;
- aloqa radiorele chiziqlari stansiya va inshootlari;
- yo‘ldoshli aloqa stansiyalari;

- qabul qilish-uzatish radiostansiyalari;
- ko‘chma obyektlarga ega bo‘lgan quruqlikdagi radioaloqa stansiyalari (shaxsan radiochaqiruv, radial tizimlar, uyali telefonlar);
- radiotelevizion stansiyalar va rentranslyatorlar;
- simli eshittirish stansiyalari va tarmoqlari;
- pochta va maxsus aloqa obyektlari.

O‘zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Aloqa obyektlari davlat kadastrini yuritish bo‘yicha vakolatli organ hisoblanadi. Kadastr davlat hokimiysi va boshqaruv organlarini, O‘zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarni aloqa obyektlari to‘g‘risidagi ishonchli kadastr ma’lumotlari bilan ta’minalash uchun mo‘ljallangan. Quyidagilar Aloqa obyektlari davlat kadastrini yuritishning asosiy prinsiplari hisoblanadi:

- O‘zbekiston Respublikasi hududidagi barcha aloqa obyektlarini qamrab olish;
- makon koordinatlari yagona tizimini va yagona topografik asosni qo‘llanish;
- barcha obyektlar bo‘yicha kadastr axborotlarini shakllantirish metodologiyasining yagonaligi;
- kadastr axborotlarining ishonchliligi, ko‘rgazmaliligi va hujjatliligi;
- kadastr axborotlarining ochiqligi.

Aloqa obyektlari davlat kadastrini yuritish bu obyektlarni ro‘yhatdan o‘tkazishni ta’minalaydi, yer kadastri hamda bino va inshootlar davlat kadastrlari ma’lumotlaridan majburiy foydalanishni nazarda tutadi. Aloqa obyektlariga tegishli yer uchastkalari, bino va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yhatidan o‘tkazish vakolatli organlar tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Aloqa obyektlari to‘g‘risidagi tizimlashtirilgan kadastr axborotlari Davlat kadastrlari yagona tizimiga belgilangan tartibda, geoaxborot tizimining tugallangan

loyihasi tarzida beriladi. Ma'lumotlar elektron-raqamli bazalarining texnik parametrlari (klassifikatorlar, shartli belgilar va boshqalar) Davyergeodezkadastr qo'mitasi bilan kelishishi kerak.

Aloqa obyektlari davlat kadastrini yaratish va yuritish ishlarini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi apparati ta'minoti uchun smetada nazarda tutilgan mablag'lar, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

Kadastrini yuritish O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining quyidagi tarkibiy bo'linmalari hamda vakolatli shaxslari tomonidan amalga oshiriladi:

- vazirlikni ilmiy-texnika va marketing tadqiqotlari markazi tarkibidagi Aloqa obyektlari davlat kadastro xizmati;
- vazirlik tizimida faoliyat ko'rsatadigan mulkdorlar yoki aloqa obyektlariga boshqa huquqlar egalarining kadastro xizmatlari.

Aloqa obyektlar davlat kadastrini yuritish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish va metodik ta'minlash O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Aloqa obyektlari davlat kadastro xizmati tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Aloqa obyektlari davlat kadastro xizmati:

- kadastro xizmatlari (vakolatli shaxslar) ishlarini muvofiqlashtiradi;
- tushayotgan axborotlar sifatini nazorat qiladi, ularning ishonchliligi va Aloqa obyektlarining geoaxborot tizimiga kiritilishi uchun javob beradi;
- kadastro axborotlarining turi va sifatiga talabni muntazam ravishda o'rghanadi, kadastro yuritish texnologiyasining takomillashtirilishini ta'minlaydi;
- aloqa obyektlarining geoaxborot tizimini joriy etadi va uning faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi;

- kadastr xizmatlari aloqa obyektlarini mavjudligi, miqdori va sifati, bahosi va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi hisobotlarini o‘rganadi, tahlil qiladi va umumlashtiradi;
- O‘zbekiston Respublikasi hududida aloqa obyektlarining joylashish xaritasini tuzishni ta’minlaydi;
- manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan kadastr axborotlaridan foydalanish tartibi va shartlarini belgilaydi;
- Davlat kadastrlari yagona tizimiga zarur kadastr axborotlarining tezkorlik bilan taqdim etilishini amalga oshiradi;
- har yili, belgilangan tartibda Davyergeodezkadastr qo‘mitasiga Davlat kadastrlari yagona tizimi ma’lumotlar bazasiga kiritish uchun aloqa obyektlarining holati va ulardan foydalanilishi to‘g‘risidagi hisobotni taqdim etadi.

Mulkdorlar va aloqa kadastr obyektlariga boshqa huquqlar egalarining kadastr xizmatlari:

- tasarrufidagi bo‘linmalar vakolatli shaxslarining faoliyatini muvofiqlashtiradi;
- tasarrufidagi bo‘linmalar vakolatli shaxslarining hisobotlarini tizimlashtiradi va umumlashtiradi;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri darajasida kadastr axborotlarini shakllantiradi;
- har yili 1 martgacha O‘zbekiston axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Aloqa obyektlari davlat kadastro xizmatiga taqdim etish uchun tasarrufidagi aloqa obyektlarining holati, bahosi, ulardan foydalanilishi to‘g‘risidagi yig‘ma hisobotlarni tuzadi.

Tasarrufdagi bo‘linmalarning vakolatli shaxslari dastlabki bosqichda:

- yangi aloqa obyektlarini hisobga qo‘yadi, ular to‘g‘risidagi hisobga olish va baholash axborotlarini yig‘adi;
- aloqa obyektlarining kadastr daftarlari yuritadi;
- aloqa obyektlarining kadastr rejalarini (xaritalari, sxemalari)ni tuzadi va ularga tuzatishlar kiritadi;

- aloqa obyektlarining miqdori va sifatidagi joriy o‘zgarishlar, ularning qiymat bahosi, atrof muhitga ta’siri to‘g‘risidagi axborotlarni to‘playdi hamda ularni kadastr daftarlari, rejalar (xaritalari, sxemalari)ga kiritadi;
- har yili 15 fevralgacha mulkdorlar va aloqa kadastr obyektlariga boshqa huquqlar egalarining kadastr xizmatlariga aloqa obyektlarining holati va bahosi to‘g‘risidagi hisobotni taqdim etadi.

O‘zbekiston axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tizimidan tashqarida faoliyat ko‘rsatuvchi aloqa obyektlari mulkdorlari foydalanuvchilari vazirlik Aloqa obyektlari davlat kadastr xizmatiga kadastr obyektlarining geografik holati, huquqiy maqomi, miqdoriy tavsiflari va bahosi, shuningdek ularning holatidagi joriy o‘zgarishlar to‘g‘risidagi axborotlarni taqdim etishlari shart.


Aloqa obyektlari davlat kadastrini yuritish bu obyektlarining barcha turlari ro‘yhatini, ularning miqdor va sifat tavsiflarini hisobga olishni, iqtisodiy baholashni, shuningdek kadastr axborotlarini to‘plash, tahlil qilish, ishlash, tizimlashtirish, saqlash, yangilashni hamda ularni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda manfaatdor foydalanuvchilarga berishni o‘z ichiga oladi.

Aloqa obyektlari bo‘lmish shaharlararo aloqaning chiziqli inshootlari uchun yerlar faqat qurilish davrida ajratiladi. Aloqaning chiziqli inshootlaridan foydalanish jarayonida yerlardan foydalanish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 15 maydagi 210-sod qarori bilan tasdiqlangan Telekommunikatsiyalar liniyalari va inshootlarini muhofaza qilish qoidalari, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi. Aloqa obyektlari ro‘yhati ularning miqdor va sifat tavsiflarini hisobga olish hamda ekologik-iqtisodiy baholash uchun asos hisoblanadi.

Aloqa obyektlarining barcha turlari boshlang‘ich ro‘yhatga kiritiladi. Bunda asosiy ko‘rsatkichlar qayd etiladi, ushbu ko‘rsatkichlarning tarkibi Davyergeodezkadastr qo‘mitasi bilan kelishgan holda O‘zbekiston axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan

tasdiqlanadigan tegishli normativ hujjatlar bilan belgilanadi. Ro'yhatga kiritish natijalari bo'yicha har qaysi obyekt uchun pasport tuziladi.

Miqdor va sifat tavsiflarini asosiy hisobga olish vaqtida foydalanishga topshirilgan va faoliyat ko'rsatayotgan (sanoat maqsadida ishlatilayotgan) har qaysi aloqa obyekti bo'yicha amalga oshiriladi, keyingi o'zgarishlar joriy hisobga olishda qayd etiladi.



11-rasm. Aloqa obyektlari davlat kadastrini yuritish sxemasi

Aloqa obyektlarining miqdor va sifat tavsiflarini hisobga olish ularning iqtisodiy, texnologik va ekologik belgilari bo'yicha klassifikatsiya qilishni o'z ichiga oladi, ushbu belgilar tarkibi aloqa obyektlari davlat kadastrini yuritish bo'yicha normativ hujjatlarda belgilanadi. Aloqa obyektlarining miqdor va sifat tavsiflarini hisobga olish uchun Davyergeodezkadastr qo'mitasi bilan kelishgan holda kadastr axborotlarini taqdim etishning texnik parametrlari va hajmlari ishlab chiqiladi. Aloqa obyektlarini iqtisodiy baholash ularning xususiyatlarini hisobga olgan holda, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi va soliq solish, xususiylashtirish va boshqa maqsadlar uchun har qaysi obyekt qiymatini baholash uchun amalga oshiriladi.

Har qaysi aloqa obyekti bo'yicha baholash kadastr ko'rsatkichlari tizimi quyidagi natural (aloqa obyektining har qaysi turi uchun xos bo'lган) va qiymat ko'rsatkichlari yig'indisini o'z ichiga oladi:

- obyekt quvvati;
- smeta qiymati;
- balans qiymati;
- ishlovchilarning son tarkibi;
- ekologik ko'rsatkichlar;
- mazkur aloqa turining xizmatlar bilan ta'minlanganligi;
- shovqin, radiatsiya va elektromagnit ta'siri;
- atmosfera havosi, yer, suvning ifloslanishi;
- obyektning texnik holati;
- asosiy asbob-uskunalar va ularning texnik hamda ma'naviy eskirganligi.

Aloqa obyektlari davlat kadastrini yuritish zimmasiga yuklangan vakolatli mansabdor shaxslar kadastr axborotlarining ishonchliligi va ularning Davlat kadastrlari yagona tizimiga o'z vaqtida taqdim etilishi uchun javobgar xisoblanadi.

1. O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tizimida hamda uning tizimidan tashqarida faoliyat ko'rsatadigan aloqa korxonalari obyektlari mulkdorlari

foydanuvchilari aloqa korxonalari obyektlari bo'yicha kadastr axborotlarini kadastr xizmatlariga taqdim etadilar.

2. Kadastr xizmatlari ushbu obyektlar bo'yicha kadastr axborotlarini to'playdi, o'z hududlari doirasida kadastr ishini shakllantiradi, aloqa korxonalari obyektlari bo'yicha axborotlarni "UNIKON.UZ" davlat unitar korxonasi AODK xizmatiga beradi.

3. "UNIKON.UZ" davlat unitar korxonasi AODK xizmati davlat yer kadastridan hamda binolar va inshootlar davlat kadastridan yer uchastkalari, bino va inshootlar to'g'risidagi axborotlarni oladi.

4. "UNIKON.UZ" davlat unitar korxonasi AODK xizmati aloqa korxonalari obyekti AODKga kiritilgandan keyin kadastr axborotlarini Davyergeodezkadastr qo'mitasining DKYAT ma'lumotlar bazasiga beradi.

5. "UNIKON.UZ" davlat unitar korxonasi AODK xizmati so'rov bo'yicha Davyergeodezkadastr qo'mitasining DKYAT ma'lumotlar bazasidan aloqa korxonalari obyektlari bo'yicha axborotlarni olishi mumkin.

3.4. ENERGETIKA OBYEKTTLARI DAVLAT KADASTRI



ЭНЕРГЕТИКА ОБЪЕКТЛАРИ ДАВЛАТ КАДАСТРИ

Energetika obyektlari davlat kadastro - ushbu obyektlarni, geografik holati, huquqiy maqomi, miqdor va sifat tavsiflari hamda iqtisodiy bahosi to‘g‘risidagi yangilab boriladigan ishonchli ma’lumotlar tizimidir. Ushbu kadastr Davlat kadastrlari yagona tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi va energetika obyektlarini hisobga olish va baholash maqsadida yuritiladi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan va qurilayotgan gidro hamda issiqlik elektr stansiyalari, o‘z ichiga yordamchi stansiyalarni oladigan elektr tarmoqlari, "O‘zbekenergo" aksiyadorlik jamiyati tarkibida jamlangan havo va yer osti kabel liniyalari hamda O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan, texnologik jarayonning yaxlitligi vositasida energiya tizimi bilan bog‘langan boshqa energiya obyektlari Energetika obyektlari davlat kadastro obyektlari hisoblanadi.

"O‘zbekenergo" aksiyadorlik jamiyati Energetika obyektlari davlat kadastrini yuritish bo‘yicha vakolatli organ hisoblanadi. Kadastr davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini, "O‘zbekenergo" aksiyadorlik jamiyatini, manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarni energetika obyektlari to‘g‘risidagi ishonchli kadastr ma’lumotlari bilan ta’minlash uchun mo‘ljallangan.

Quyidagilar Energetika obyektlari davlat kadastrini yuritishning asosiy prinsiplari hisoblanadi:

- O‘zbekiston Respublikasi energetika obyektlarini to‘liq qamrab olish;
- makon koordinatlarining yagona tizimini va yagona topografik asosni qo‘llash;
- barcha obyektlar bo‘yicha kadastr axborotlarini shakllantirish metodologiyasining yagonaligi;
- kadastr axborotlarining ishonchliligi, ko‘rgazmaliligi va hujatliligi;
- kadastr axborotlarining ochiqligi.

Energetika obyektlari davlat kadastrini yuritish energetika obyektlarini xatlovdan o‘tkazish, hisobga olish, baholash bilan ta’minlanadi hamda davlat yer kadastri va bino va inshootlar davlat kadastri ma’lumotlaridan majburiy foydalanishni nazarda tutadi.

Energetika obyektlariga tegishli yer uchastkalari, binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yhatidan o‘tkazish vakolatli organlar tomonidan, ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni ro‘yhatdan o‘tkazish uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Energetika obyektlari davlat kadastrini yuritish energetika obyektlarining barcha turlarini boshlang‘ich ro‘yhatiga olish, ularning miqdor va sifat tavsiflarini hisobga olishni, obyektlarni ekologik-iqtisodiy baholashni, shuningdek kadastr axborotlarini to‘plash, tahlil qilish, ishslash, tizimlashtirish, saqlash, yangilashni hamda ularni qonun hujjalarda belgilangan tartibda manfaatdor foydalanuvchilarga berishni o‘z ichiga oladi.

Energetika obyektlarining barcha turlari boshlang‘ich ro‘yhatga kiritiladi. Bunda asosiy ko‘rsatkichlar qayd etiladi, ushbu ko‘rsatkichlarning tarkibi Davyergeodezkadestr qo‘mitasi bilan kelishgan holda "O‘zbekenergo" aksiyadorlik jamiyatni tomonidan tasdiqlanadigan tegishli normativ hujjalarni bilan belgilanadi. Ro‘yhatga kiritish natijalari bo‘yicha har qaysi obyekt uchun pasport tuziladi.

Energetika obyektlari to‘g‘risidagi tizimlashtirilgan kadastr axborotlari Davlat kadastrlari yagona tizimiga belgilangan tartibda beriladi. Kadastrni yaratish va yuritish ishlarini moliyalashtirish "O‘zbekenergo" aksiyadorlik jamiyati mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladi. Energetika obyektlari davlat kadastrini yuritish "O‘zbekenergo" davlat-aksiyadorlik kompaniyasining quyidagi tarkibiy bo‘linmalarini:

- "O‘zbekenergo" aksiyadorlik jamiyatining "O‘zenergosozlash" unitar korxonasi kadastr xizmati;
- energetika obyektlari kadastr xizmatlari - bo‘yicha bo‘linmalar tomonidan amalga oshiriladi.

Energetika obyektlari davlat kadastrini yuritishni metodik ta’minlash "O‘zbekenergo" aksiyadorlik jamiyati tomonidan amalga oshiriladi.

"O‘zenergosozlash" unitar korxonasi:

- energetika obyektlari davlat kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimi joriy etilishini va faoliyat ko‘rsatishini ta’minlaydi;
- ma’lumotlar bazasi tuzilmasini ishlab chiqadi, uni energetika korxonalariga berishni amalga oshiradi, ma’lumotlar bazasi to‘ldirilishining to‘g‘riligini nazorat qiladi;
- energetika obyektlari kadastr xizmatlari hodimlarini energetika obyektlari davlat kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimi bilan ishlashga o‘qitishni tashkil qiladi;
- energetika obyektlari kadastr xizmatlariga taqdim etilgan kadastr axborotlarini tizimlashtirishni va ularni energetika obyektlari davlat kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritishni amalga oshiradi;
- yangi energetika obyektlari to‘g‘risidagi hisobga olish va baholash axborotlari to‘planishini nazorat qiladi;
- kadastr axborotlarining Davlat kadastrlari yagona tizimiga tezkorlik bilan berilishini amalga oshiradi;

- har yili, belgilangan tartibda "O'zbekenergo" aksiyadorlik jamiyati energetika obyektlarining holati va ulardan foydalanilishi to'g'risidagi hisobotni Davlat kadastrlari yagona tizimiga taqdim etadi.

Energetika obyektlari kadastr xizmatlari:


- energetika obyektlarining miqdor va sifatini joriy o'zgarishlarni, ularning atrof muhitga ta'sirini, ekologik-iqtisodiy bahosini to'playdi va tizimlashtiradi;

- energetika obyektlarining kadastr daftarlari yuritadi, ma'lumotlar bazasini to'ldiradi va ularni tizimlashtirish hamda davlat kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritish uchun "O'zbekenergo" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi vakolatli tashkilotining kadastr bo'limiga beradi;

- yangi energetika obyektlarini ro'yhatga qo'yadi, ular to'g'risidagi hisobga olish va baholash axborotlarini to'playdi.

"O'zbekenergo" aksiyadorlik jamiyati tizimidan tashqarida faoliyat ko'rsatuvchi energetika obyektlari mulkdorlari foydalanuvchilari "O'zbekenergo" aksiyadorlik jamiyati kadastr xizmatiga kadastr obyektlarining jug'rofiy holati, huquqiy maqomi, miqdoriy tavsiflari va bahosi, shuningdek ularning holatidagi joriy o'zgarishlar to'g'risidagi axborotlarni taqdim etishlari shart. Energetika obyektlari tavsiflaridagi keyingi o'zgarishlar joriy hisobga olishda qayd etiladi.

Energetika obyektlarining miqdor va sifat tavsiflarini hisobga olish ularni iqtisodiy, texnologik va ekologik belgilari bo'yicha klassifikatsiya qilishni o'z ichiga oladi, ularning tarkibi energetika obyektlari davlat kadastrini yuritish bo'yicha normativ hujjatlarda belgilanadi. Hisobga olish axborotlari korxonaning kadastr daftariga yoziladi va energetika obyektlari davlat kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritiladi. Energetika obyektlarini iqtisodiy baholash soliq solish, xususiylashtirish va boshqa maqsadlar uchun har qaysi obyekt qiymatini baholash uchun amalga oshiriladi.



* Strelkalar bilan kadastr axboroti harakati yo 'nalishlari belgilangan.

12-rasm. Energetika obyektlari davlat kadastrini yuritish sxemasi

1. "O'zbekenergo" aksiyadorlik jamiyati tizimida hamda uning tizimidan tashqarida faoliyat ko'rsatadigan energetika obyektlari mulkdorlari foydalanuvchilari energetika obyektlari bo'yicha kadastr axborotlarini energetika obyektlari kadastr xizmati (EOKX)ga taqdim etadilar.

2. Energetika obyektlari kadastr xizmati (EOKX) ushbu obyektlar mulkdorlari va foydalanuvchilaridan energetika obyektlari bo'yicha kadastr axborotlarini to'playdi, o'z hududlari doirasida kadastr ishini shakllantiradi, energetika obyektlari bo'yicha axborotlarni "O'zbekenergo" davlat-aksiyadorlik kompaniyasining "O'zenergosozlash" unitar korxonasi kadastr xizmatiga beradi.

3. "O'zenergosozlash" unitar korxonasi kadastr xizmati davlat yer kadastridan hamda binolar va inshootlar davlat kadastridan yer uchastkalari, bino va inshootlar to'g'risidagi axborotlarni olib, EOKXga kiritilgandan keyin Davyergeodezkadastr qo'mitasining DKYAT ma'lumotlar bazasiga beradi.

4. "O'zenergosozlash" unitar korxonasi kadastr xizmati so'rov bo'yicha Davyergeodezkadastr qo'mitasining DKYAT ma'lumotlar bazasidan energetika obyektlari bo'yicha axborotlarni olishi mumkin.

5. DKYATdan foydalanuvchilar so'rov bo'yicha Davyergeodezkadastr qo'mitasining DKYAT ma'lumotlar bazasidan energetika obyektlari bo'yicha kadastr axborotlarini olishi mumkin.

3.5. YETKAZIB BERISH QUVURLARI DAVLAT KADASTRI



Yetkazib berish quvurlari davlat kadastro - yetkazib berish quvurlari obyektlarini, geografik holati, huquqiy maqomi, miqdor va sifat tavsiflari va iqtisodiy baholash to‘g‘risidagi yangilanib turiladigan ishonchli axborot tizimi. Yetkazib berish quvurlari davlat kadastro Davlat kadastrlari yagona tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi va ushbu obyektlarni hisobga olish hamda holatini baholash maqsadida yuritiladi.

Neft, gaz va gaz kondensatini yetkazib berishga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasi hududidagi mavjud va qurilayotgan quvurlar va ularga xizmat ko‘rsatish obyektlari: armaturali yetkazib berish quvurlarining chiziqli qismi, kompressor va nasos stansiyalari, elektrokimyoviy himoya vositalari, gaz taqsimlash stansiyalari, neft, gaz va gaz kondensati transporti korxonalari balansida bo‘lgan, katta uzunlikdagi, yuqori bosimli, qo‘riqlash zonasiga ega bo‘lgan ularning yuqori xavfliligi munosabati bilan Yetkazib berish quvurlari davlat kadastro obyektlari hisoblanadi.

“O‘zbekneftgaz” milliy-xolding kompaniyasi Yetkazib berish quvurlari davlat kadastrini yuritish bo‘yicha vakolatlari organ hisoblanadi. Kadastr maqsadi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini, “O‘zbekneftgaz” milliy-xolding

kompaniyasini, manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarni yetkazib berish quvurlari obyektlari to‘g‘risidagi ishonchli kadastr axborotlari bilan ta‘minlashdan iborat. Quyidagilar Yetkazib berish quvurlari davlat kadastrini yuritishning asosiy prinsiplari hisoblanadi:

- O‘zbekiston Respublikasining butun hududida lokal va magistral quvurlarning butun tizimini va ularga xizmat ko‘rsatish obyektlarini qamrab olish;
- fazoviy koordinatlarining yagona tizimini va yagona topografiya asoslarini qo‘llash;
- barcha obyektlar bo‘yicha kadastr axborotlarini shakllantirishning yagona metodologiyasi;
- kadastr axborotlarining ishonchliligi, ko‘rgazmaliligi va hujjatliligi;
- kadastr axborotlarining ochiqligi.

Yetkazib berish quvurlari davlat kadastrini yuritish quvur obyektlarini ro‘yhatga olish, baholash va davlat yer kadastri hamda bino va inshootlar davlat kadastri axborotlaridan majburiy foydalанишini nazarda tutadi. Yetkazib berish quvurlari obyektlariga tegishli bo‘lgan yer uchastkalari, binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yhatidan o‘tkazish ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni ro‘yhatdan o‘tkazish uchun belgilangan tartibda vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi.

Yetkazib berish quvurlari obyektlariga tegishli bo‘lgan, davlat yer kadastridan berilayotgan yer uchastkalari yer-kadastr axborotlari bilan ta‘minlangan bo‘lishi kerak. Bino va inshootlar davlat kadastridan Yetkazib berish quvurlari davlat kadastriga tegishli bo‘lgan bino va inshootlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar berilishi kerak.

Yetkazib berish quvurlari davlat kadastrini yuritish qog‘oz va yoki elektron manbalarda olib boriladi va tizimlashtirilgan kadastr axboroti Davlat kadastrlari yagona tizimiga belgilangan tartibda beriladi. Kadastrni yaratish va yuritish ishlarini moliyalashtirish "O‘zbekneftgaz" milliy-xolding kompaniyasining tegishli korxonalari mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladi. Yetkazib berish quvurlari

davlat kadastrini yuritish "O'zbekneftgaz" milliy-xolding kompaniyasining quyidagi tarkibiy bo'linmalari:

- "O'zLITIneftgaz" ochiq aksiyadorlik jamiyati huzuridagi Yetkazib berish quvurlari davlat kadastro xizmati;
- neft-gaz-transport korxonalarining kadastr bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Hisobga olish va baholash kadastr axborotlarini shakllantirish yetkazib berish quvurlari bo'yicha ma'lumotlar banki tashkil etilgan holda "O'zbekneftgaz" ochiq aksiyadorlik jamiyati tomonidan amalga oshiriladi.

"O'zbekneftgaz" milliy-xolding kompaniyasining yetkazib berish quvurlari obyektlarini quruvchi, foydalanuvchi, rekonstruksiya qiluvchi va ta'mirlovchi bo'linmalari ma'lumotlar bazasiga obyektlarining miqdor va sifat o'zgarishlari, holati va ulardan foydalanish to'g'risidagi axborotni kiritishlari shart.

Yetkazib berish quvurlari davlat kadastro xizmati:

- kadastrning avtomatlashtirilgan axborot tizimi joriy etilishi va mavjud bo'lishini ta'minlaydi;
- ma'lumotlar bazasi tuzilmasini ishlab chiqadi, uni neft-gaz-transport korxonalariga beradi, ma'lumotlar bazasi to'g'ri to'ldirilishi ustidan nazorat qiladi;
- hodimlarni kadastrning avtomatlashtirilgan axborot tizimi bilan ishlash bo'yicha o'qitishni tashkil etadi;
- korxonalar tomonidan taqdim etilgan kadastr axborotlarini tizimlashtiradi va davlat kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritadi;
- yangi obyektlar to'g'risidagi hisobga olish va baholash ma'lumotlari to'planishi ustidan nazorat qiladi;
- shakllantirayotgan kadastr ma'lumotlari sifati ustidan nazorat olib boradi, uning ishonchliligi va o'z vaqtida davlat kadastro avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritilishi uchun javobgar bo'ladi;
- kadastr axborotlarining xilma-xilligi va sifatiga talabni muntazam o'rjanadi, kadastrni yuritish texnologiyasi takomillashtirilishini ta'minlaydi;

Yetkazib berish quvurlari davlat kadastrı yuritishni metodik ta'minlash "O'zbekneftgaz" milliy-xolding kompaniyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Neft-gaz-transport korxonalarining kadastr bo'linmalarini:

- yetkazib berish quvurlari obyektlarining miqdor va sifat holatidagi joriy o'zgarishlar, ularning atrof muhitga ta'siri, ekologik-iqtisodiy baholash to'g'risidagi axborotlarni to'playdi va tizimlashtiradi;

- yetkazib berish quvurlari obyektlari kadastr daftarlarni yuritadi, ma'lumotlar bazasini to'ldiradi va ularni tizimlashtirib davlat kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritish uchun kadastr xizmatiga beradi;

- yangi obyektlarni hisobga qo'yadi, ular to'g'risidagi hisobga olish va baholash ma'lumotlarini to'playdi.

"O'zbekneftgaz" milliy-xolding kompaniyasi:

- butun tarmoq bo'yicha Yetkazib berish quvurlari davlat kadastrini yuritish bo'yicha kompaniyaning tarkibiy bo'linmalarini ishini muvofiqlashtiradi;

- har yili belgilangan tartibda Davyergeodezkadastr qo'mitasiga Davlat kadastrlari yagona tizimiga kiritish uchun yetkazib berish quvurlari obyektlarining holati va ulardan foydalanish to'g'risida hisobot taqdim etadi.

"O'zbekneftgaz" milliy-xolding kompaniyasi tizimidan tashqarida mavjud bo'lgan yetkazib berish quvurlari obyektlarining egalari foydalanuvchilar kadastr xizmatiga kadastr obyektlarining jug'rofiy holati, huquqiy maqomi, miqdor tavsiflari va baholanishi, shuningdek, ular holatining joriy o'zgarishlari to'g'risidagi axborotni taqdim etishi shart.

Yetkazib berish quvurlari davlat kadastrini yuritish magistral va lokal quvurlarning barcha turlarini va ularning xizmat ko'rsatish obyektlarini ro'yhatga olishdan, ularning miqdor va sifat tavsiflarini hisobga olishdan, obyektlarni ekologik-iqtisodiy baholashdan, shuningdek, kadastr axborotlarini to'plash, tahlil qilish, tizimlashtirish, saqlash, yangilash va uni qonunda belgilangan tartibda manfaatdor foydalanuvchilarga taqdim etishdan iboratdir. Yetkazib berish quvurlari obyektlari ro'yhati ularning miqdor va sifat tavsiflarini hisobga olish, ekologik-iqtisodiy baholash uchun asos hisoblanadi.

Yetkazib berish quvurlari obyektlari birlamchi ro'yhatga olinib asosiy ko'rsatkichlari qayd etiladi. Asosiy ko'rsatkichlarning tarkibi Davyergeodezkastr qo'mitasi bilan kelishuv bo'yicha "O'zbekneftgaz" milliy-xolding kompaniyasi tomonidan tasdiqlanadigan tegishli normativ hujjatlar bilan belgilanadi. Ro'yhat natijalari bo'yicha har bir obyektga pasport tuziladi.

Miqdor va sifat tavsiflarining asosiy hisobga olish foydalanishga yangi topshirilgan va mavjud bo'lgan etkazib berish quvurlarining har bir obyekti bo'yicha amalga oshiriladi. Obyektlar tavsiflarida yuz beradigan bundan keyingi o'zgarishlar joriy hisobga olishda qayd etiladi.


Obyektlarning miqdor va sifat tavsiflarini hisobga qo'yilishi ularning iqtisodiy, texnologik va ekologik belgilar bo'yicha tasniflanishini o'z ichiga oladi, ularning tarkibi yetkazib berish quvurlari davlat kadastrini yuritish bo'yicha normativ hujjatlar bilan belgilanadi.

Yetkazib berish quvurlari obyektlarining miqdor va sifat tavsiflarini hisobga olish uchun Davyergeodezkastr qo'mitasi bilan kelishuv bo'yicha "O'zbekneftgaz" milliy-xolding kompaniyasi tomonidan texnik parametrlar va kadastr axborotini taqdim etish formatlari ishlab chiqiladi.

Hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan va belgilangan tartibda tasdiqlangan hisobga olish axboroti korxonaning kadastr daftariga yoziladi va Yetkazib berish quvurlari davlat kadastri avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritiladi. Yetkazib berish quvurlari obyektlarini iqtisodiy baholash har bir obyektning qiymatini belgilash, soliq solish, xususiylashtirish va boshqa maqsadlar uchun o'tkaziladi.

Yetkazib berish quvurlari obyektlari to'g'risidagi kadastr axborotlarining ishonchliligi uchun neft-gaz-transport korxonalarining mansabdor shaxslari va "O'zLITIneftgaz" ochiq aksiyadorlik jamiyatini huzuridagi Yetkazib berish quvurlari davlat kadastri xizmati javob beradi.

1. "O'zbekneftgaz" milliy-xolding kompaniyasi tizimida va uning tizimidan tashqarida mavjud bo'lgan yetkazib berish quvurlari obyektlari egalari foydalanuvchilar kadastr axborotlarini neft-gaz-transport korxonalarining kadastr bo'linmalariga taqdim etadilar .



* Strelkalar bilan kadastr axboroti harakati yo'nalishlari belgilangan.

13-rasm. Yetkazib berish quvurlari davlat kadastrini yuritish sxemasi

2. Neft-gaz-transport korxonalarining kadastro bo'linmalari ushbu obyektlarning egalari va foydalanuvchilardan yetkazib berish quvurlari obyektlari bo'yicha kadastr axborotlarini olib, o'z hududlari doirasida kadastr ishini shakllantiradilar, ularni "O'zLITIneftgaz" ochiq aksiyadorlik jamiyatiga huzuridagi yetkazib berish quvurlari odavlat kadastri (EBQDK) xizmatiga taqdim etadilar.

3. EBQDK xizmati davlat er kadastro hamda binolar va inshootlar davlat kadastridan er uchastkalari, binolar va inshootlar to‘g‘risidagi axborotni olib, etkazib berish quvurlari obyektlari ma’lumotlari bilan axborotlar bazasiga kiritilgandan keyin axborotlarini Davyergeodezkadastr qo‘mitasi DKYATning ma’lumotlar bazasiga beradi.

4. "O‘zbekneftgaz" milliy-xolding kompaniya-sining "O‘zLITIneftgaz" ochiq aksiyadorlik jamiyatি huzuridagi EBQDK xizmati transport korxonalari obyektlari bo‘yicha axborotni so‘rov bo‘yicha Davyergeodezkadastr qo‘mitasi DKYATning ma’lumotlar bazasidan olishi mumkin.

5. Foydalanuvchilar so‘rov bo‘yicha yetkazib berish quvurlari obyektlari bo‘yicha kadastro axborotlarini Davyergeodezkadastr qo‘mitasi DKYAT ma’lumotlar bazasidan olishlari mumkin.

3.6. KARTOGRAFIYA-GEODEZIYA DAVLAT KADASTRI



Kartografiya-geodeziya davlat kadastro - O‘zbekiston Respublikasi hududida bajarilgan geodezik va kartografik ishlar materiallari, geodezik tayanch tarmoqlar punktlarining yer osti markazi va yer usti belgilari, ularning miqdor va sifat tavsiflari to‘g‘risidagi yangilab boriladigan ishonchli axborotlar tizimidir.

Quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi hududida Kartografiya-geodeziya davlat kadastrini ro‘yhatga olish obyektlari hisoblanadi:

- O‘zbekiston Respublikasi barcha hududlarining turli masshtablardagi topografik xaritalari;
- O‘zbekiston Respublikasi shaharlari, shaharchalari va qishloq aholi punktlarining topografik planlari;
- O‘zbekiston Respublikasining raqamli elektron xaritalari;
- O‘zbekiston Respublikasining navbatchi ma’lumotnoma xaritasi;
- O‘zbekiston Respublikasi hududini aerofoto va kosmik suratga olish materiallari;
- O‘zbekiston Respublikasi davlat geodeziya tarmoqlari va zichlash tarmoqlari punktlari, reperlari va ularni er usti belgilari;
- yer uchastkalari chegaralarini belgilovchi chegara tarmoqlari punktlari;
- barcha geodezik tarmoqlar punktlari, reperlari hamda chegara belgilari koordinatlari va balandliklari kataloglari;
- geodeziya, topografiya va kartografiya ishlarini bajarish sanasi ishlarni bajaruvchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlar, bajarilgan ishlar.

O‘zbekiston Respublikasi **yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro davlat qo‘mitasi** (keyingi o‘rinlarda "Dayergeodezkadastr") Kartografiya-geodeziya davlat kadastrini yuritish bo‘yicha vakolatli organ hisoblanadi. Kartografiya-geodeziya davlat kadastro davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini, manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarni kartografiya-geodeziya axborotlari bilan ta’minlash uchun mo‘ljallangan.

Quyidagilar kadastrni yuritishning asosiy prinsiplari hisoblanadi:

- O‘zbekiston Respublikasining barcha hududini to‘liq qamrab olish;
- kadastr axborotlarini shakllantirish metodologiyasining yagonaligi;
- kadastr axborotlarining ishonchliligi, ko‘rgazmaliligi va hujjatliligi;
- kadastr axborotlarining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda foydalanishga qulayligi.


Kadastrni yuritish ishlarini moliyalashtirish davlat byudjeti hisobiga amalga oshiriladi.

Davyergeodezkadastr qo‘mitasining idoraviy mansub tashkiloti - Davlat geodeziya nazorati inspeksiyasi kadastrini yuritish ishlarining ijrochisi hisoblanadi. Kartografiya-geodeziya davlat kadastrini yuritish ishlariga umumiylah rahbarlik va kadastrni yuritishni metodik ta’minlash Davyergeodezkadastr qo‘mitasi tomonidan amalga oshiriladi. Davlat geodeziya nazorati inspeksiyasi:

- geodeziya, topografiya va kartografiya ishlari materiallarini Davlat geodeziya nazorati inspeksiyasiga o‘z vaqtida taqdim etilishini nazorat qiladi;
- kadastr axborotlarini shakllantirish va taqdim etish formatlarini ishlab chiqadi, ularning sifatini nazorat qiladi;
- kadastr avtomatlashtirilgan axborot tizimi ma’lumotlar bazasi tuzilmasini ishlab chiqadi va uni to‘g‘ri to‘ldirilishini nazorat qiladi;
- hisobga olish va baholash kadastr axborotlarini tizimlashtiradi, shakllantiradi va ularni kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritadi;
- kadastr axborotlariga bo‘lgan talabni muntazam ravishda o‘rganadi, kadastrni yuritish texnologiyasini takomillashtirishni ta’minlaydi;
- O‘zbekiston Respublikasi hududining kartografiya-geodeziya jihatidan o‘rganilganligi monitoringini yuritadi;
- kadastr ma’lumotlarini davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga, jismoniy va yuridik shaxslarga taqdim etadi, ulardan foydalanish tartibi va shartlarini belgilaydi;
- kadastr axborotlarini ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilishni ta’minlaydi;
- tizimlashtirilgan kadastr axborotlarining Davlat kadastrlari yagona tizimiga tezkorlik bilan berilishini amalga oshiradi.

Geodeziya, topografiya va kartografiya ishlari materiallarining ro‘yhati ularning miqdor va sifat tavsiflarini hamda iqtisodiy bahosini hisobga olish uchun asos hisoblanadi. Kartografiya-geodeziya davlat kadastri obyektlarining barcha turlari boshlang‘ich ro‘yhatga kiritiladi, ularni yaratish uchun dastlab geodeziya, topografiya va kartografiya ishlari amalga oshiriladi, ilgari yaratilgan obyektlar to‘g‘risidagi yangilangan ma’lumotlar yoziladi. Bunda ilgari yo‘qolgan va qayta tiklangan geodeziya belgilari va reperlari, ishlarning bajaruvchilari to‘g‘risidagi

ma'lumotlar, ularni bajarish muddatlari va qiymati ham yoziladi. Ro'yhat natijalari bo'yicha har qaysi obyekt uchun pasport tuziladi.



14-rasm. Kartografiya-geodeziya davlat kadastrini yuritish sxemasi

Kartografiya-geodeziya davlat kadastro obyektlarini hisobga olish xaritalar nomenklaturasi bo'yicha, davlat geodeziya tarmoqlari klasslari va turlari bo'yicha, shu jumladan, ma'muriy-hududiy bo'linish bo'yicha hamda aholi punktlari bo'yicha alohida amalga oshiriladi. Hujjatli rasmiylashtirilgan va belgilangan tartibda tasdiqlangan hisobga olish axborotlari reestr daftariга yoziladi va Kartografiya-geodeziya davlat kadastrining avtomatlashtirilgan axborotlar tizimiga kiritiladi. Kartografiya-geodeziya davlat kadastro obyektlari to'g'risidagi kadastr axborotlarining ishonchliligi uchun Davlat geodeziya nazorati inspeksiyasi javob beradi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Avtomobil yo'llari davlat kadastrini yuritish bo'yicha vakolatli organ bo'lib qaysi davlat organi hisoblanadi? Kadastr obyekti bo'lib nimalar xizmat qiladi?
2. Temir yo'llari davlat kadastrini yuritish bo'yicha vakolatli organ bo'lib qaysi davlat organi hisoblanadi? Kadastr obyekti bo'lib nimalar xizmat qiladi?
3. Yetkazib berish quvurlari davlat kadastrini yuritish bo'yicha vakolatli organ bo'lib qaysi davlat organi hisoblanadi? Kadastr obyekti bo'lib nimalar xizmat qiladi?
4. Aloqa obyektlari davlat kadastrini yuritish bo'yicha vakolatli organ bo'lib qaysi davlat organi hisoblanadi? Kadastr obyekti bo'lib nimalar xizmat qiladi?
5. Energetika obyektlari davlat kadastrini yuritish bo'yicha vakolatli organ bo'lib qaysi davlat organi hisoblanadi? Kadastr obyekti bo'lib nimalar xizmat qiladi?
6. Kartografiya-geodeziya davlat kadastrini yuritish bo'yicha vakolatli organ bo'lib qaysi davlat organi hisoblanadi? Kadastr obyekti bo'lib nimalar xizmat qiladi?
7. O'zbekiston Respublikasi "Avtomobil yo'llari to'g'risida"gi Qonuni qachon qabul qilingan?
8. O'zbekiston Respublikasi "Telekommunikaziya to'g'risida"gi Qonuni qachon qabul qilingan?
9. Kartografiya-geodeziya davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risida nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaysi qarori bilan tasdiqlangan?
10. Temir yo'llari davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risida nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaysi qarori bilan tasdiqlangan?
11. Transport quvurlari davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risida nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaysi qarori bilan tasdiqlangan?

4-BOB. TABIIY RESURSLAR GURUHIGA KIRUVCHI DAVLAT KADASTRLARI VA ULARNI YURITISH XUSUSIYATLARI

Tabiiy resurslar kadastro guruhiga quydagilar kiritilgan:

1. Konlar, foydali qazilmalar va texnogen hosilalarning yuzaga chiqish hollari davlat kadastro
2. Davlat suv kadastro
3. Davlat o‘rmon kadastro
4. O‘simlik dunyosi obyektlari davlat kadastro
5. Hayvonot dunyosi davlat kadastro
6. Chiqindilarni ko‘mish va utilizatsiya qilish joylari davlat kadastro

4.1. KONLAR, FOYDALI QAZILMALAR VA TEXNOGEN HOSILALARING YUZAGA CHIQISH HOLLARI DAVLAT KADASTRI

Konlar, foydali qazilmalar nishonalari va texnogen hosilalari (mineral xom ashyoni qazib olish va qayta ishlash chiqishlari) davlat kadastro foydali qazilmalar nishonalari va texnogen hosilalar obyektlariga tenglashtirilgan tavsifnomalari to‘plamidan iboratdir va u O‘zbekiston Respublikasi davlat kadastirlari yagona tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi konlari, foydali qazilmalari nishonalari va texnogen hosilalarining davlat kadastro respublikaning mineral xom ashyo resurslari holatini baholash, yer osti boyliklarini geologik o‘rganish bo‘yicha ishlarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishni ta’minlash, konlar, foydali qazilmalar nishonalarining asosiy tavsifnomalari va texnogen hosilalar obyektlari bilan tezkorlik bilan tanishish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi davlat kadastirlari yagona tizimidagi yer uchastkalarini baholash uchun mo‘ljallangan.

Quyidagilar kadastrni hisobga olish obyektlari hisoblanadi:

O‘zbekiston Respublikasi foydali qazilmalari zaxiralari davlat balansida hisobga olingan foydali qazilmalar zaxiralari mavjud bo‘lgan konlar;

- foydali qazilmalar konlari uchastkalari, agar ularning zaxiralari O‘zbekiston Respublikasining foydali qazilmalari zaxiralari davlat balansida alohida satr bilan hisobga olinsa;
- O‘zbekiston Respublikasining foydali qazilmalari zaxiralari davlat balansida hisobga olinmagan, foydali qazilmalar zaxiralari mavjud bo‘lgan, lekin qidiruv (mufassal baholash) ishlari tugallanmagan konlar;
- foydali qazilmalari zaxiralari O‘zbekiston Respublikasi foydali qazilmalar zaxiralari davlat balansi hisobidan qandaydir sababga ko‘ra chiqarilgan konlar;
- tarkibida mineral xom ashyoning shunday turi bo‘yicha qazib olinayotgan konlarga sanoat talablariga javob beruvchi qimmatli komponentlar borligi jihatidan hech bo‘lmaganda bitta ruda jismi (qatlami) mavjudligi aniqlangan foydali qattiq qazilmalar nishonalari;
- tarkibidagi qimmatli komponentlar amaliy qiziqish tug‘diruvchi, shuningdek, atrof-muhitni ifloslantiruvchi va aholiga jiddiy xavf-xatar tug‘diruvchi kambag‘al rudalar ag‘darmalari, chiqindi omborlari va boshqa texnogen hosilalar.

O‘zbekiston Respublikasining konlari, foydali qazilmalari nishonalari va texnogen hosilalari davlat kadastrida quyidagi ma’lumotlar bo‘ladi.

1. Foydali qazilmalar bo‘yicha:

- obyektning geografik va ma’muriy holati to‘g‘risidagi ma’lumotlar, asosiy va ular bilan birgalikda joylashgan foydali qazilmalarning miqdoriy, sifat tarkibi hamda ularda mavjud bo‘lgan foydali va zararli komponentlar, konlarni qazishning geologik-iqtisodiy, kon-texnik, texnologik, gidrogeologik, ekologik va boshqa sharoitlari haqida.

2. Foydali qazilmalar nishonalari bo‘yicha:

Nishonaning geografik va ma’muriy holati, uning geologik jihatdan o‘rganilganlik darajasi, aniqlangan zaxiralar miqdori va baholangan, prognoz qilingan resurslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar, mineral xom ashyoning mumkin bo‘lgan xossalari, shuningdek obyektning kelgusida o‘rganish bo‘yicha tavsiyanomalar bo‘ladi.

3. Texnogen hosilalar obyektlari bo‘yicha:

Texnogen hosilalar manbalari, ularning shakllanish davri, texnogen xosilalarining ularning miqdoriy-sifat ko'rsatkilari hamda ularni saqlash konteknik sharoitlari ko'rsatilgan holdagi turi yoki xili to'g'risidagi ma'lumotlar bo'ladi.

4. Geologik-qidiruv va foydalanish ishlari, foydali qazilmaning texnologik sinovlari natijalariga doir aniq hisobotlarda, texnik-iqtisodiy tushunchalarda, dokladlar va texnik-iqtisoiy asoslashlarda, mineral xom ashyo konditsiyalarini va foydali qazilmalar zaxiralarni tasdiqlash bo'yicha protokollarda mufassalroq axborotning, shuningdek, yer osti boyliklariga oid boshqa dastlabki axborotning mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlar ham bo'ladi.

Konlar, foydali qazilmalar nishonalari va texnogen hosilalar pasportlarini tuzish uchun quyidagilar dastlabki axborot manbalari hisoblanadi:

- geologik-suratga olish, qidirish, muhandislik-geologik, gidrogeologik, gioekologik, tematik, tajriba-uslubiy, ilmiy-tadqiqot ishlari va yer osti boyliklarini o'rghanish bo'yicha boshqa ishlar natijalari to'g'risidagi tasdiqlangan hisobotlar;
- mineral xom ashyoning texnologik sinovlari natijalari to'g'risidagi hisobotlar;
- qazib oluvchi korxonalarining texnogen hosilalarning yuqori daraja xavfli obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlardan iborat bo'lgan yillik hisobotlari;
- foydali qazilmalar zaxiralari balanslari;
- mineral xom ashyo konditsiyalarini va foydali qazilmalar zaxiralarni tasdiqlash bo'yicha protokollar, shuningdek zaxiralarni hisobdan chiqarishga doir materiallar.

Geologik materiallar seysmoaktivlik, sel xavfi, xavfli geologik jarayonlar (o'pirilish, ko'chish, cho'kish, suffoziyalar, karetlar) alomatlari mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlar bilan to'ldiriladi. Konlar, foydali qazilmalar nishonalari va texnogen hosilalar pasportlari maxsus shakl (blanka)larda quyidagilar bo'yicha tuziladi:

- rudali foydali qazilmalar konlari;
- rudasiz foydali qazilmalar konlari;

- sochma konlar;
- radioaktiv xom ashyo konlari;
- ko‘mir va yonuvchi slanetslar konlari;
- neft va gaz konlari;
- rudali foydali qazilmalar nishonalari;
- rudasiz foydali qazilmalar nishonalari;
- radioaktiv xom ashyo nishonalari;
- texnogen hosilalar obyektlari.

Pasportlarni tuzish uslublari, maxsus shakllar (blankalar) O‘zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral resurslar davlat qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi konlari, foydali qazilmalari nishonalari va texnogen hosilalari davlat kadastrini yuritish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral resurslar davlat qo‘mitasi huzuridagi Davlat geologik fondi foydali qazilmalarni qazib olish va yer osti boyliklarni geologik o‘rganish ishlarini amalga oshiruvchi korxonalar (tashkilotlar) taqdim etgan dastlabki ma’lumotlarni to‘plash, hisobga olish va tartibga solish asosida amalga oshiriladi.

Hisobga olinishi kerak bo‘lgan konlar, foydali qazilmalar nishonalari aniqlangan taqdirda pasport yer osti boyliklaridan foydalanuvchi tomonidan har qaysi kon yoki foydali qazilmalar nishonasi uchun tuziladi. Qidirilayotgan (mufassal baholanayotgan) konlarni O‘zbekiston Respublikasi qazilmalari zaxiralari davlat balansida hisobga qo‘yishda pasport yer osti boyliklaridan foydalanuvchi tomonidan har qaysi kon yoki foydali qazilmalar nishonasi uchun tuziladi. Qidirish (mufassal baholanayotgan) tugallangach yangi pasport tuziladi. Qazilayotgan konlar va texnogen hosilalar obyektlari bo‘yicha pasportlar yer osti boyliklaridan foydalanuvchilar tomonidan ularning texnik chegaralarining har galgi o‘zgarishida tuziladi.

Alovida uchastkalarda (qismlarda) kon ajratmalari doirasida konning geologik tuzilishini puxta aniqlash imkonini bergen qo‘srimcha geologik-qidiruv ishlari o‘tkazilgan qazilayotgan konlar bo‘yicha pasportlar yer osti boyliklaridan

foydanuvchilar tomonidan, mazkur obyekt bo'yicha foydali qazilmalar zaxiralarini navbatdagi yillik balansi taqdim etilgan taqdirda, tuziladi.

Konlar, foydali qazilmalar nishonalari va texnogen hosilalar pasportlari yer osti boyliklarini geologik o'rganish ishlari natijalari bo'yicha hisobotlar uchun belgilangan tartibda tasdiqlanadi. Pasportni tuzgan, tekshirgan va tasdiqlagan shaxslar unda keltirilgan ma'lumotlarning to'g'riliqi uchun javob beradilar.

Pasport tuzilmagan taqdirda yoki u belgilangan talablardan chetga chiqqan holda tuzilganda, Davlat geologiya fondi foydali qazilmalar zaxiralarining tegishli hisoboti yoki balansini hisobga olishni rad etadi, shuningdek, yer osti boyliklarini geologik o'rganish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar xarajatlarini hisobdan chiqarish yuzasidan ma'lumotnomaga berishni rad qiladi.


Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi konlari, foydali qazilmalari nishonalari va texnogen hosilalari davlat kadastrini yuritish bo'yicha Davlat geologiya fondining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- pasportlarni qabul qilish, ro'yhatdan o'tkazish va saqlash;
- hisobga olish obyektlari katalogini yuritish;
- hisobga olish obyektlarining ro'yhatdan o'tkazish xaritalarini yuritish;
- konlar, foydali qazilmalar nishonalari va texnogen hosilalar davlat kadastro materiallarini to'plash, hisobga olish, tartibga olish va saqlash.

Hisobga olish obyektlari pasportlarini qabul qilish ro'yhatdan o'tkazish va saqlash, katalog va ro'yhatdan o'tkazish xaritalarini yuritish O'zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral rusurslar davlat qo'mitasi belgilaydigan tartibda amalga oshiriladi. Davlat geologiya fondi o'zining asosiy vazifalariga muvofiq quyidagilarni ta'minlaydi:

- yer osti boyliklaridan foydanuvchilar tomonidan hisobga olish obyektlari pasportlarini tuzishga uslubiy rahbarlik qilish;
- hisobga olish obyektlari pasportlarining Davlat geologiya fondiga o'z vaqtida taqdim etilishini nazorat qilish;
- materiallarni davlat boshqaruv organlariga va davlat hokimiyati organlariga taqdim etish;

- manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarning ulardan foydalanish tartibi hamda shartlarini belgilash;
- tushadigan ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan holda ishlash tizimini yaratish va uning ixtisoslashtirilgan dasturiy ta'minotini yo'lga qo'yish.



**) Strelkalar bilan kadastr axboroti harakati yo'nalishlari belgilangan:*

15-rasm. Konlari, foydali qazilmalar nishonalarini va texnogen hosilalar davlat kadastrini yuritish sxemasi

1. O‘zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral resurslar davlat qo‘mitasi huzuridagi Davlat geologik fondi tizimida hamda uning tizimidan tashqarida faoliyat ko‘rsatadigan O‘zbekiston Respublikasi konlari, foydali qazilmalari nishonalari va texnogen hosilalarining obyektlari mulkdorlari foydalanuvchilar foydali qazilmalari nishonalari va texnogen hosilalarining obyektlari bo‘yicha kadastr axborotlarini “O‘zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral resurslar davlat qo‘mitasi huzuridagi Davlat geologik fondiga taqdim etadilar.

2. Foydali qazilmalarni qazib olish va yer osti boyliklarni geologik o‘rganish ishlarini amalga oshiruvchi korxona va tashkilotlar kadastr xizmatilari ushbu obyektlar mulkdorlari va foydalanuvchilaridan konlari, foydali qazilmalari nishonalari va texnogen hosilalarining obyektlari bo‘yicha kadastr axborotlarini to‘playdi, o‘z hududlari doirasida kadastr ishini shakllantiradi, konlari, foydali qazilmalari nishonalari va texnogen hosilalarining obyektlari bo‘yicha axborotlarni O‘zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral resurslar davlat qo‘mitasi huzuridagi Davlat geologik fondi kadastr xizmatiga beradi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral resurslar davlat qo‘mitasi huzuridagi Davlat geologik fondi kadastr xizmatlari davlat yer kadastridan hamda binolar va inshootlar davlat kadastridan yer uchastkalari, bino va inshootlar to‘g‘risidagi axborotlarni olib, ma’lumotlar bazasiga kiritigandan keyin kadastr axborotlarini Davyergeodezkadastr qo‘mitasining DKYAT ma’lumotlar bazasiga beradi.

4. “O‘zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral resurslar davlat qo‘mitasi huzuridagi Davlat geologik fondi kadastr xizmati so‘rovi bo‘yicha Davyergeodezkadastr qo‘mitasining DKYAT ma’lumotlar bazasidan konlari, foydali qazilmalari nishonalari va texnogen hosilalarining obyektlari bo‘yicha axborotlarni olishi va ishlarni amalga oshiruvchi korxona va tashkilotlar kadastr xizmatiga yuboradi.

5. DKYATdan foydalanuvchilar so‘rov bo‘yicha Davyergeodezkadastr qo‘mitasining DKYAT ma’lumotlar bazasidan foydali qazilmalari nishonalari va texnogen hosilalarining obyektlari bo‘yicha kadastr axborotlarini olishi mumkin.

4.2. DAVLAT SUV KADASTRI



Davlat suv kadastro suv resurslaridan oqilona foydalanishni tashkil etish, suv xo‘jaligi munosabatlarini tartibga solish, xo‘jalik faoliyatini, ekologik vaziyatni baholash maqsadida yaratiladi. Davlat suv kadastro yagona davlat suv fondini tashkil etuvchi suv obyektlari, suv resurslari, suv rejimi, sifati va undan foydalanish haqidagi, shuningdek, suvdan foydalanuvchilar to‘g‘risidagi tartibga solingan, doimiy to‘ldirib boriladigan va zarurat bo‘lganda aniqlashtiriladigan ma’lumotlar to‘plamini o‘z ichiga oladi.

Yer usti va yer osti suv obyektlari va ularning resurslari Davlat suv kadastrining obyektlari hisoblanadi. **Kadastrni predmeti bo‘lib, tabiiy suv resurslari, ulardan miqdor va sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha foydalanish har tomonlama o‘rganish va baholash, suvdan foydalanish huquqini va suvdan xo‘jalik maqsadlarida foydalanishni ro‘yhatdan o‘tkazish uchun xizmat qiladi.**

Suv resurslarini baholash deganda bir yil hamda ko‘p yillar davomida standart gidrometrik asboblar bilan o‘lchash orqali ularni miqdor va sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha muntazam hisobga olish, olingan ma’lumotlarning ishonchliligi tahlili, ularni standart usullar bilan qayta ishlash va turli hududiy va vaqt birliklari bo‘yicha umumlashtirish tushuniladi.

Davlat suv kadastro davlat hokimiyati organlarini, yuridik va jismoniy shaxslarni suv obyektlari, suv resurslari, suv rejimi, sifati va undan foydalanish, shuningdek, suvdan foydalanuvchilar to‘g‘risidagi zarur ma’lumotlar bilan ta’minlash uchun mo‘ljallangan.

Kam xarajatlar bilan zamonaviy darajada axborotlarni to‘plash, umumlashtirish, saqlash va taqdim etish texnologiyasini doimiy ravishda takomillashtirib borish yo‘li bilan suv resurslari va suv obyektlari haqida ishonchli axborotni olish va saqlash Davlat suv kadastrining asosiy vazifasi hisoblanadi. Quyidagilar Davlat suv kadastrini yuritishning asosiy prinsiplari hisoblanadi:

- respublikaning barcha suv obyektlarini qamrab olish;
- suv resurslarini va ulardan foydalanishni hisobga olishning yagona tizimini qo‘llash;
- boshlang‘ich kadastr axborotini qayta ishslash usulining yagonaligi;
- Davlat kadastrlari yagona tizimi talablarini hisobga olish;
- Davlat suv kadastrini yuritish bo‘yicha ishlarga markazlashtirilgan tartibda rahbarlik qilish;
- suv-kadastr axborotining ishonchliligi, ko‘rgazmaliligi va hujjatlarga asoslanganligi;
- Davlat suv kadastrini yuritish bo‘yicha ishlarning uzluksizligi;
- kadastrni yuritishning avtomatlashtirilgan axborot tizimi faoliyat ko‘rsatishi;
- suv kadastrini yuritish bo‘yicha ishlarning tejamliligi.

Belgilangan tartibda qabul qilingan suv-kadastr axboroti suv va suv xo‘jaligi munosabatlarini tartibga solishda, suvdan foydalanish bilan bog‘liq ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik vazifalarni hal etishda majburiy yuridik kuchga egadir. Quyidagilar Davlat suv kadastrini yuritadilar:

O‘zbekiston Respublikasi Favqulotda vaziyatlar vazirligi huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati markazi - yer usti suvlari bo‘limi bo‘yicha;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi - yer osti suvlari bo‘limi bo‘yicha;

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi - suvdan foydalanish bo‘limi bo‘yicha;

Respublika hududida suv obyektlarini ro‘yhatdan o‘tkazish, suv resurslari, ularning rejimi, foydalanish, shuningdek suvdan foydalanuvchilar to‘g‘risidagi miqdor va sifat baho ko‘rsatkichlari haqida ishonchli, zamonaviy va tejamli axborotlarni olish, tartibga solish, saqlash va ularni foydalanuvchilarga berishning texnologik jarayoni Davlat suv kadastrining mazmuni hisoblanadi.

Davlat suv kadastro ma’lumotlari quyidagi maqsadlarda foydalanish uchun mo‘ljallanadi:

- suvdan foydalanishni joriy va istiqbolli rejalashtirish hamda suvni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishda;
- mamlakat hududida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda;
- suvdan kompleks foydalanish va uni muhofaza qilish sxemalarini hamda suv xo‘jaligi balanslarini tuzishda;
- suvdan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan suv xo‘jaligi, transport, sanoat korxonalari hamda boshqa korxonalar va inshootlarni loyihalashtirishda;
- gidrologik va gidrogeologik sharoitlar, daryolarda suv hajmi va suv sifati o‘zgarishlarini prognozlashda;
- suv xo‘jaligi tizimlari ishi samaradorligini oshirish tadbirlarini ishlab chiqishda;
- suvni iste’mol qilish va chiqarib yuborishni, shuningdek, suv sifati ko‘rsatkichlarini normalashtirishda;
- suvning zararli ta’sirining oldini olish va uni bartaraf etish tadbirlarini ishlab chiqishda;
- suvdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish tadbirlari o‘tkazilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirishda;
- suvdan foydalanuvchilar o‘rtasidagi, shuningdek, suvdan foydalanuvchilar bilan boshqa manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga solishda;

- suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish bilan bog‘liq boshqa masalalarni hal etishda.

Davlat suv kadastro suv va suv xo‘jaligi obyektlarining quyidagi turlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi:

1. Suv obyektlari - daryolar; turli suv tizimlarini birlashtiruvchi, oqar suvni hududiy qayta taqsimlashga yoki sug‘orishga xizmat qiluvchi kanallar; ko‘llar va suv omborlari; muzliklar; yer osti suvlari (havzalar, suvli gorizontlar, konlar).

2. Suv xo‘jaligi obyektlari (inshootlari) - gidrouzellar va suv omborlari; suv obyektlaridan suv olishga mo‘ljallangan inshootlar (kanallar, nasos qurilmalari, foydalanish quduqlari va boshqalar); oqar suvni hududiy qayta taqsimlashga xizmat qiluvchi kanallar; foydalanilgan va shaxta suvlarini suv obyektlariga tashlash inshootlari (kollektorlar, drenaj va suv to‘planadigan kanallar, quvursimon suv chiqargichlar va boshqalar); foydalanilgan suvlarni tozalash inshootlari.

Davlat suv kadastro ma’lumotlari quyidagilarga bo‘linadi:

- arxiv materiallari (daftarchalar, jadvallar, o‘zi yozadigan texnikaning lentalari va boshqalar);

- uzoq muddatli texnik manbalardagi ma’lumotlar;

- e’lon qilinadigan materiallar (suv va suv xo‘jaligi obyektlari kataloglari, har yilgi va ko‘p yillik ma’lumotlar va boshqalar).

Davlat suv kadastro ma’lumotlari tarkibi O‘zbekiston Respublikasi FVV huzuridagi "O‘zgidromet" markazi, Davlat geologiya qo‘mitasi hamda Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan tasdiqlangan "Suv kadastro ma’lumotlari tarkibi" nomli normativ-texnik hujjat bilan belgilanadi. Bu ma’lumotlar foydalanuvchilarga pulli nashrlar tarzida va so‘rov bo‘yicha (belgilangan tartibda) taqdim etiladi.

Kadastrning chop etilayotgan nashrlari, so‘rov bo‘yicha foydalanuvchilarga beriladigan ma’lumotlar turlari berish tartibi to‘g‘risida "O‘zgidromet" markazi tomonidan Davlat geologiya qo‘mitasi hamda Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi bilan birgalikda "Suv kadastro axborotnomasi" nashr etiladi.

Suv obyektlari turlariga hamda suvni va undan foydalanishni o‘rganish bo‘yicha vazifalar taqsimotiga muvofiq Davlat suv kadastro quyidagi bo‘limlarga bo‘linadi:

- Yer usti suvlari,
- Yer osti suvlari,
- Suvdan foydalanish.

Suv obyektlari sonini va holatini hisobga olish obyektlarning hajmi, holati, o‘rganilganlik darajasi va muhimligiga qarab kartografiya, gidrogeologiya va geodeziya usullari bilan amalga oshiriladi. Suv obyektlari rejimini o‘rganish tegishli idoralar tomonidan tasdiqlangan hamda "O‘zgidromet" markazi bilan kelishilgan standart usullar bo‘yicha standart asboblar vositasida olib boriladi. Davlat suv kadastro ma’lumotlari respublika, viloyatlar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlari, daryo havzalari, havza irrigatsiya tizimlari bo‘yicha, yer osti suvlari bo‘limi bo‘yicha esa gidrogeologiya mintaqalari bo‘yicha ham tizimlashtiriladi va nashr etiladi.

Yer usti suv resurslari, ularning sifati va xo‘jalik faoliyati ta’siridagi o‘zgarishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar suv obyektlari va ularning maydonlari, davlat va davlatlararo ahamiyatga ega bo‘lgan daryo havzalari, havza irrigatsiya tizimlari, viloyatlar va umuman respublika bo‘yicha umumlashtiriladi. Yer osti suv resurslari, ularning sifati va xo‘jalik faoliyati ta’siridagi o‘zgarishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar konlar, daryo havzalari va ularning maydonlari, suvli gorizontlar va yer osti suvlari havzalari, viloyatlar hamda umuman respublika bo‘yicha umumlashtiriladi. Yer osti suvlari resurslarini baholash ularning yer usti suvlari bilan o‘zaro bog‘liqligini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Suvdan foydalanish to‘g‘risidagi ma’lumotlar davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan daryo havzalari, havza irrigatsiya tizimlari, alohida muhim suv xo‘jaligi obyektlari, viloyatlar va umuman respublika bo‘yicha, shuningdek, suvdan foydalanish turlari va iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha umumlashtiriladi.

Davlat suv kadastrini yuritish tizimining yagonaligini ta’minalash uchun Davlat geologiya qo‘mitasi hamda Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan

(Davlat suv kadastrining tegishli bo‘limlari bo‘yicha) ishlab chiqiladigan yuritishga oid uslubiy ko‘rsatmalar, nashrlari maketlari va Davlat suv kadastro bo‘yicha boshqa normativ-texnik hujjatlar "O‘zgidromet" markazi bilan kelishib olinishi kerak.

Suvdan foydalanuvchilarni suv resurslari va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi zarur ma’lumotlar bilan ta’minlashda tezkorlikni oshirish, shuningdek, iste’molchilarning talablarini hisobga olgan holda ma’lumotlarni qayta ishslash va umumlashtirish darajasini oshirish uchun suv kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimi tashkil etiladi. Davlat suv kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimi "O‘zgidromet" markazi, Davlat geologiya qo‘mitasi hamda Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan yagona texnik topshiriq asosida tarmoq axborot tizimlari negizida loyihalashtiriladi va tashkil etiladi.

Davlat suv kadastrini yuritish uchun yer usti suvlari, yer osti suvlari va suvdan foydalanish bo‘limlari bo‘yicha kadastrning idoralararo bosh markazi, tashkil etiladi. Idoralararo bosh markaz funksiyasini "O‘zgidromet" markazining O‘rta Osiyo gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot instituti bajaradi. Davlat suv kadastrining idoralararo bosh markazi, hududiy markazlari va mahalliy organlarining funksiyasi ("Yer usti suvlari", "Yer osti suvlari" va "Suvdan foydalanish" bo‘limlari bo‘yicha) tegishli normativ hujjatlar bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Favqulotda vaziyatlar vazirligi huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati markazining Davlat suv kadastrini yuritish bo‘yicha funksiyalari:

a) Davlat geologiya qo‘mitasi hamda Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi bilan birgalikda Davlat suv kadastrining umumiyl prinsiplarini va ilmiy-uslubiy asoslarini, kadastrni yuritish, uni avtomatlashtirilgan axborot tizimini loyihalash va tashkil etish tartibini ishlab chiqadi;

b) Kadastrni tashkil etish va yuritishga oid barcha ishlarni muvofiqlashtiradi, yo‘naltiradi va birlashtiradi;

v) Davlat geologiya qo‘mitasi hamda Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi bilan birgalikda kadastrning idoralararo normativ-texnik hujjatlarini (shu jumladan Davlat suv kadastrining qo‘shma nashrlari maketini), shuningdek, avtomatlashtirilgan axborot tizimi uchun idoralararo loyiha hujjatlarini ishlab chiqadi;

g) Davlat geologiya qo‘mitasi hamda Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan ishlab chiqiladigan suv kadastrini yuritishga oid uslubiy ko‘rsatmalarni, nashrlar maketini va boshqa normativ-texnik hujjatlarni shuningdek, avtomatlashtirilgan axborot tizimi uchun loyiha hujjatlarini kelishib oladi;

d) Davlat geologiya qo‘mitasi hamda Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi mutaxassislarini jalb qilgan holda yer usti suvlari va yer osti suvlari hamda ulardan foydalanish to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ma tahlil qilishni, bog‘lashni va umumlashtirishni bajaradi, qo‘shma nashrlarni chiqarishga tayyorlaydi va nashr qiladi;

e) Davlat geologiya qo‘mitasi hamda Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi bilan birgalikda kadastr axborotnomasini nashr etishga tayyorlaydi;

j) "Yer usti suvlari" bo‘limi bo‘yicha:

- yer usti suvlarining klassifikatorlarini ishlab chiqishni;
- yer usti suvlari to‘g‘risidagi axborotlarni to‘plash, nazorat qilish, qayta ishslash va umumlashtirishga oid usullarni, algoritmlarni va mashinalashtirilgan dasturlarni ishlab chiqish;
- axborotlarni kodlashtirish va saqlash usullarini ishlab chiqish;
- Kadastrning avtomatlashtirilgan axborot tizimi funksional va idoraviy kichik tizimlarni loyihalash, sinash, joriy etish va takomillashtirish;
- Suv kadastri hududiy markazlari va mahalliy organlari uchun kadastrni yuritishga oid uslubiy ko‘rsatmalarni, nashrlari maketlarini va boshqa normativ-texnik hujjatlarni ishlab chiqish;
- yer usti suvlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish, nazorat qilish, qayta ishslash, saqlash va ularni foydalanuvchilar so‘roviga ko‘ra berish;

- yer usti suvlari resurslarini joriy va istiqbol uchun hamda ularning xo‘jalik faoliyati ta’siridagi o‘zgarishlarini baholash;
- kadastr nashrlarini chiqarishga va e’lon qilishga tayyorlashni;
- o‘ziga qarashli muassasalar hamda tashkilotlar tomonidan bajariladigan kadastrni ishlab chiqish va yuritishga oid ishlarga rahbarlik qilish, rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilishni amalga oshiradi.

"Yer osti suvlari" va "Suvdan foydalanish" bo‘limlari bo‘yicha kadastrni yuritish uchun zarur bo‘lgan yer usti suvlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Davlat geologiya qo‘mitasiga hamda Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligiga berilishini ta’minlaydi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasining Davlat suv kadastrini yuritish bo‘yicha funksiyalari:

"Yer osti suvlari" bo‘limi bo‘yicha kadastrni ishlab chiqishni va uni yuritishni, shu jumladan:

- yer osti suvlarining klassifikatorlarini ishlab chiqishni;
- yer osti suvlari to‘g‘risidagi axborotlarni to‘plash, nazorat qilish, qayta ishlash va umumlashtirishga oid usullarni, algoritmlarni va mashinalashtirilgan dasturlarni ishlab chiqishni;
- axborotlarni kodlashtirish va saqlash usullarini ishlab chiqishni;
- kadastrning avtomatlashtirilgan axborot tizimi funksional kichik tizimlarni loyihalash, sinash, joriy etish va takomillashtirishni;
- suv kadastri hududiy markazlari va mahalliy organlari uchun kadastrini yuritishga oid uslubiy ko‘rsatmalarni, kadastr nashrlari maketlarini va boshqa normativ-texnik hujjatlarni ishlab chiqishni;
- yer osti suvlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish, nazorat qilish, qayta ishlash, saqlash va ularni foydalanuvchilar so‘roviga ko‘ra berishni;
- yer osti suvlari resurslarini joriy va istiqbol uchun hamda ularning xo‘jalik faoliyati ta’siridagi o‘zgarishlarini baholashni;
- "Yer osti suvlari" bo‘limi bo‘yicha kadastr nashrlarini chiqarishga va e’lon qilishga tayyorlashni;

- o‘ziga qarashli muassasalar hamda tashkilotlar tomonidan bajariladigan Davlat suv kadastrini ishlab chiqish va yuritishga oid ishlarga rahbarlik qilish, rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilishni amalga oshiradi;

- kadastrni yuritish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar loyihamonini, kadastr nashrlari maketlarini va boshqa normativ-texnik hujjatlarini, shuningdek, "Yer osti suvlari" bo‘limi bo‘yicha avtomatlashtirilgan axborot tizimiga loyiha hujjatlarini kelishib olish uchun Gidrometeorologiya xizmati markaziga taqdim etadi;

- "Yer usti suvlari" bo‘limi bo‘yicha kadastrni idoralararo qo‘shma nashrlarini tayyorlash va uni yuritish uchun zarur bo‘lgan yer osti suvlariiga oid materiallarning Gidrometeorologiya xizmati markaziga berilishini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi "Suvdan foydalanish" bo‘limini Davlat suv kadastrini yuritish bo‘yicha funksiyalari:

- kadastrni avtomatlashtirilgan axborot tizimini yuritishni ishlab chiqishni va takomillashtirishni;

- suvdan foydalanish to‘g‘risidagi axborotlarni nazorat qilish, qayta ishslash va umumlashtirishga oid usullar, algoritmlarni hamda mashinalashtirilgan dasturlarni ishlab chiqishni;

- axborotlarni kodlashtirish va saqlash usullarini ishlab chiqishni;

- avtomatlashtirilgan axborot tizimining funksional kichik tizimlarini loyihalashni, sinashni, joriy etishni va takomillashtirishni;

- irrigatsiya tizimlarining havza boshqarmalari, magistral kanallar tizimlar boshqarmalari va irrigatsiya tizimlari boshqarmalari uchun kadastrini yuritish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalarni, nashrlar maketlarini va boshqa normativ-texnik hujjatlarini ishlab chiqishni;

- yer usti va yer osti suvlaridan foydalanish to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish, nazorat qilish, qayta ishslash, saqlash va berishni;


- suvdan foydalanishni joriy va istiqbol uchun baholashni hamda suv xo‘jaligi hisobot balanslarini tuzishni;

- "Suvdan foydalanish" bo‘limi bo‘yicha kadastr nashrlarini chiqarishga va e’lon qilishga tayyorlashni;

- o‘ziga qarashli muassasa hamda tashkilotlar tomonidan bajariladigan kadastrni ishlab chiqish va yuritishga oid ishlarga rahbarlik qilish, rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilishni;

- davlat suv kadastrini yuritish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar loyihamini, kadastr nashrlari maketlarini va boshqa normativ-texnik hujjatlarini, shuningdek, "Suvdan foydalanish" bo‘limi bo‘yicha kadastrning avtomatlashtirilgan axborot tizimiga oid loyiha hujjatlarini kelishib olish uchun Gidrometeorologiya xizmati markaziga taqdim etishni;

- kadastrni idoralararo qo‘shma nashrlarini tayyorlash va kadastrni yuritish uchun zarur bo‘lgan suvdan foydalanishga oid materiallarning Gidrometeorologiya xizmati markaziga berilishini;



* Strelkalar bilan kadastr axboroti harakati yo‘nalishlari belgilangan.

16-rasm. Davlat suv kadastrini yuritish sxemasi

- Davlat suv kadastrini yuritish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarning Davlat geologiya qo‘mitasiga berilishini ta’minlaydi.

1. Davlat suv kadastrining hududiy markazlari va mahalliy organlari joylardagi davlat hokimiyati organlari, yuridik va jismoniy shaxslar, suvdan foydalanuvchilar to‘g‘risidagi zarur ma’lumotlarni to‘playdilar.

2. Davlat suv kadastrining hududiy markazlari va mahalliy organlari Davlat hokimiyati organlari, yuridik va jismoniy shaxslar suv obyektlari, suv resurslari, suv rejimi, sifati va undan foydalanish, shuningdek, suvdan foydalanuvchilar to‘g‘risidagi zarur ma’lumotlar mansubligi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Favqulotda vaziyatlar vazirligi huzuridagi Gidrometeorologik xizmati markaziga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasiga, Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligiga taqdim etadilar.

3. Davlat suv kadastrining hududiy markazlari va mahalliy organlari tomonidan taqdim etilgan materiallar ekspertizadan o‘tkazish uchun Davlat suv kadastrining idoralararo bosh markazi, "O‘zgidromet" markazining O‘rta Osiyo gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot instituti Ilmiy-metodik kengashiga ko‘rib chiqish uchun kiritiladi.

4. Ekspertiza natijalariga ko‘ra Ilmiy-metodik kengash mansubligi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Favqulotda vaziyatlar vazirligi huzuridagi Gidrometeorologik xizmati markaziga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasiga, Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligiga tegishli xulosa taqdim etadi.

5. Davlat suv kadastrining hududiy markazlari va mahalliy organlari kadastr xizmatlari davlat yer kadastridan hamda binolar va inshootlar davlat kadastridan yer uchastkalari, bino va inshootlar to‘g‘risidagi axborotlarni oladi.

6. Davlat suv kadastrining hududiy markazlari va mahalliy organlari kadastr xizmati suv obyektlar mulkdorlari va foydalanuvchilaridan suv obyektlari bo‘yicha kadastr axborotlarini to‘playdi, o‘z hududlari doirasida kadastr ishini shakllantiradi, mansubligi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Favqulotda

vaziyatlar vazirligi huzuridagi Gidrometeorologik xizmati markaziga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasiga, Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi kadastr xizmatlariga beradi. Ular axborotlarni ma’lumotlar bazasiga kiritilgandan keyin Davyergeodezkadastr qo‘mitasining DKYAT ma’lumotlar bazasiga beradi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Favqulotda vaziyatlar vazirligi huzuridagi Gidrometeorologik xizmati markazi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi, Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi kadastr xizmatlari so‘rov bo‘yicha Davyergeodezkadastr qo‘mitasining DKYAT ma’lumotlar bazasidan suv obyektlari bo‘yicha axborotlarni olishi va zarur axborotlarni Davlat suv kadastrining hududiy markazlari va mahalliy organlari kadastr xizmatlariga yuborishi mumkin.

8. DKYATdan foydalanuvchilar so‘rov bo‘yicha Davyergeodezkadastr qo‘mitasining DKYAT ma’lumotlar bazasidan Suv obyektlari bo‘yicha kadastr axborotlarini olishi mumkin.

4.3 DAVLAT O‘RMON KADASTRI



Davlat o‘rmon kadastri - kadastr obyektlarining, geografik holati, huquqiy maqomi, miqdor va sifat tavsiflari hamda iqtisodiy bahosi to‘g‘risidagi yangilab

boriladigan ishonchli axborotlar tizimidir. Kadastr o‘rmonlarning himoyalanganlik toifasini aniqlash maqsadida, o‘rmonlardan oqilona foydalanishni, qo‘riqlashni, muhofaza qilishni va qayta tiklashni tashkil etish, davlat o‘rmon fondi yerlari tuzilmasida ro‘y beradigan o‘zgarishlar hujjatlarini yuritish va nazorat qilishning yagona tartibini belgilash uchun yuritiladi. O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan barcha o‘rmonlar o‘rmon kadastrining obyektlari hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat O‘rmon qo‘mitasi kadastrni yuritish bo‘yicha vakolatli organ hisoblanadi.

Davlat o‘rmon kadastri o‘rmon munosabatlarini tartibga solish, o‘rmonlarni qo‘riqlash, muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanish va ularni qayta tiklashni tashkil etish maqsadida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini, manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarni o‘rmonlar to‘g‘risidagi ishonchli kadastr axborotlari bilan ta’minlash uchun mo‘ljallangan.

Quyidagilar Davlat o‘rmon kadastrini yuritishning asosiy prinsiplari hisoblanadi:

- O‘zbekiston Respublikasi hududidagi barcha o‘rmonlarni to‘liq qamrab olish;
- makon koordinatlari yagona tizimini va yagona topografiya asosini qo‘llanish;
- o‘rmonlar to‘g‘risidagi kadastr axborotlarini shakllantirish metodologiyasining yagonaligi;
- kadastr axborotlarining ishonchliligi, ko‘rgazmaliligi va hujjatliligi;
- kadastr axborotlarining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda foydalanishga qulayligi.

Davlat o‘rmon kadastri obyektlariga taalluqli yer uchastkalari, binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yhatidan o‘tkazish vakolatli organlar tomonidan, ko‘chmas mulkka huquqlarni ro‘yhatdan o‘tkazish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Bunda o‘rmon obyektlariga taalluqli yer uchastkalari to‘g‘risidagi yer-kadastr axborotlarida erlarning maqsadli foydalanilishi bo‘yicha tuzilmasi, yer uchastkalariga huquqlarning davlat

ro‘yhatidan o‘tkazilganligi (shu jumladan yerlardan foydalanishda serviturlarda belgilangan mavjud cheklashlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar), yerkarning miqdori va sifati to‘g‘risidagi ma’lumotlar mavjud bo‘lishi kerak.

Binolar va inshootlar kadastridan o‘rmon kadastriga beriladigan obyektlarga taalluqli binolar va inshootlar to‘g‘risidagi kadastr axborotlarida ulardan maqsadli foydalanilishi, huquqlarning davlat ro‘yhatidan o‘tkazilganligi, asosiy miqdor va sifat tafsiflari to‘g‘risidagi ma’lumotlar mavjud bo‘lishi kerak.

Davlat o‘rmon kadastrini yuritish ishlarini moliyalashtirish davlat byudjeti hisobiga amalga oshiriladi va o‘rmon kadastr bo‘limi hamda Davlat O‘rmon qo‘mitasining hududiy bo‘linmalari (o‘rmon xo‘jaliklari) tomonidan amalga oshiriladi. Kadastrni yuritishni metodik ta’minalash Davlat O‘rmon qo‘mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat O‘rmon qo‘mitasining Davlat o‘rmon kadastr bo‘limi:

- kadastrning avtomatlashtirilgan axborot tizimini joriy etishni va uning faoliyatini ta’minlaydi;
- ma’lumotlar bazasi tuzilmasini ishlab chiqadi, ma’lumotlar bazasining to‘g‘ri to‘ldirilishini nazorat qiladi;
- kadastr obyektlarining miqdor va sifat jihatidan holati, iqtisodiy bahosi to‘g‘risidagi joriy o‘zgarishlarni to‘playdi va tizimlashtiradi;
- kadastr obyektlarining kadastr daftarlarni yuritadi, tizimlashtirish va avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritish uchun ma’lumotlar bazasini to‘ldiradi;
- kadastr yangi obyektlarini hisobga qo‘yadi, ular to‘g‘risidagi hisobga olish va baholash axborotlarini to‘playdi;
- kadastr axborotlarini tizimlashtiradi va ularni kadastrning avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritadi;
- kadastr yangi obyektlari to‘g‘risidagi hisobga olish va baholash axborotlarini nazorat qiladi;
- kadastr obyektlarining holati va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi hisobotni Davlat kadastrlari yagona tizimiga har yili, belgilangan tartibda taqdim etadi.

Davlat O‘rmon qo‘mitasi tizimidan tashqarida faoliyat ko‘rsatadigan Davlat o‘rmon kadastrini obyektlarining mulkdorlari, shuningdek boshqa huquqlar egalari O‘rmon xo‘jaligi bosh boshqarmasining vakolatli bo‘limiga kadastr obyektlarining geografik holati, huquqiy maqomi, miqdor va sifat tavsiflari hamda bahosi to‘g‘risidagi axborotlarni, shuningdek ularning holatidagi joriy o‘zgarishlar to‘g‘risidagi axborotlarni taqdim etishi shart.

Davlat o‘rmon kadastrini yuritish kadastr obyektlarining barcha turlarini ro‘yhatlashni, ularning miqdor va sifat tavsiflarini, iqtisodiy bahosini hisobga olishni, shuningdek kadastr axborotlarini to‘plash, tahlil qilish, ishslash, tizimlashtirish, saqlash, yangilash va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda manfaatdor foydalanuvchilarga berishni o‘z ichiga oladi.

Davlat o‘rmon kadastr obyektlari ro‘yhati ularning miqdor va sifat tavsiflarini va iqtisodiy bahosini hisobga olish uchun asos hisoblanadi. Bunda asosiy ko‘rsatkichlar qayd etiladi, ularning tarkibi tegishli normativ hujjatlardan bilan belgilanadi. Ro‘yhat natijalari bo‘yicha har bir obyekt uchun pasport tuziladi. Kadastr obyektlarining miqdor va sifat tavsiflarida kelgusida ro‘y beradigan o‘zgarishlar joriy hisobga olishda qayd etiladi.

Davlat o‘rmon kadastr obyektlarining miqdor va sifat tavsiflari hisobi ularning iqtisodiy, texnologik, biologik va ekologik belgilari bo‘yicha tasnifini o‘z ichiga oladi, ularning tarkibi kadastrni yuritish bo‘yicha normativ hujjatlarda belgilanadi. Kadastr obyektlarining miqdor va sifat tavsiflarini hisobga olish uchun O‘rmon xo‘jaligi bosh boshqarmasi tomonidan Davyergeodezkadastr qo‘mitasi bilan kelishgan holda, kadastr axborotlarini taqdim etishning texnik parametrlari va formatlari ishlab chiqiladi.

Davlat o‘rmon kadastr obyektlarini iqtisodiy baholash soliq solish, xususiylashtirish va boshqa maqsadlar uchun har qaysi obyekt qiymatini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi. Davlat o‘rmon kadastr obyektlari to‘g‘risidagi kadastr axborotlarining ishonchliligi uchun Davlat O‘rmon qo‘mitasi tarkibiy va hududiy bo‘linmalarining kadastrni yuritishga mas’ul rahbarlari javob beradilar.

1. Davlat O‘rmon qo‘mitasining vakolatli bo‘linmasi o‘rmon kadastro obyektlari bo‘yicha kadastr axborotlarini to‘playdi.

2. Davlat O‘rmon qo‘mitasining vakolatli bo‘linmasi yer kadastridan hamda binolar va inshootlar davlat kadastridan yer uchastkalari, binolar va inshootlar to‘g‘risidagi axborotlarni oladi va davlat kadastrlari yagona tizimi ma’lumotlar bazasiga beradi.




**) Strelkalar bilan kadastr axboroti harakati yo‘nalishlari belgilangan:*

17-rasm. Davlat o‘rmon kadastrini yuritish sxemasi

3. Davlat O‘rmon qo‘mitasining vakolatli bo‘linmasi so‘rovga ko‘ra Davlat kadastrlari yagona tizimi ma’lumotlar bazasidan Davlat o‘rmon kadastro bo‘yicha axborotlar olishi mumkin.

4. Davlat kadastrlari yagona tizimidan foydalanuvchilar so‘rovga ko‘ra uni ma’lumotlar bazasidan belgilangan tartibda Davlat o‘rmon kadastro bo‘yicha kadastr axborotlari olishi mumkin.

4.4. O‘SIMLIK DUNYOSI OBYEKTLARI DAVLAT KADASTRI



O‘simplik dunyosi obyektlarining davlat kadastro yovvoyi o‘simpliklar turlari tarkibi, soni, geografik tarqalishi, miqdoriy va sifat tavsifi, ulardan fodalanish, iqtisodiy baholash, ular o‘sadigan muhitning tavsifi to‘g‘risidagi uzlucksiz yangilanib turadigan axborot tizimi. Kadastr foydalaniladigan, mintaqadagi ekologik muhitga ta’sir ko‘rsatadigan yoki kamyob va turi yo‘qolib ketish xavfi bo‘lgan yovvoyi holda o‘suvchi ildizli o‘simpliklar va qo‘ziqorinlarning hamma turlarini hisobga oladi.

Bu kadastrni yurituvchilar, o‘simplik dunyosidan foydalanuvchi yuridik shaxslar: qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan yerlarda qishloq xo‘jaligi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar; davlat o‘rmon fondi yerlarida o‘rmon xo‘jaligi korxonalar; zahira yerlarda korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, joylardagi davlat hokimiyatining vakolatli organlari o‘simpliklarning kamyob va yo‘qolib borayotgan, dorivor oziqbop va manzarali turlari bo‘yicha respublikaning butun hududida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi o‘simplik dunyosi obyektlarining kadastro subyektlari hisoblanadilar. Kadastr davlat hokimiyati va

boshqaruvi organlarini, manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarni kadastr axboroti bilan ta'minlashga mo'ljallanilgan.

Quyidagilar o'simlik dunyosi obyektlarining davlat kadastrini asosiy prinsiplari hisoblanadi:

- respublikaning butun hududida o'simlik dunyosining barcha obyektlarini davlat kadastro bilan qamrab olish;
- axborotni toplash, qayta ishslash texnologiyasi va taqdim etish usulining yagonaligi;
- kadastrini yuritishni markazlashtirilgan tartibda boshqarish;
- kadastrlar yagona tizimi talablarini ta'minlash;
- kadastr axborotini toldirish va yangilashning ishonchiligi va uzlusizligi.

O'simlik dunyosi obyektlarining davlat kadastrini yuritish obyektlarni ro'yhatga olish, ular sonini aniqlash va ulardan foydalanish sifatini, obyektlarin iqtisodiy baholashni, kadastr axborotini tizimlashtirishni, saqlashni, yangilashni va uni manfaatdor foydalanuvchilarga tegishli shakllarda va hajmlarda belgilangan tartibda tezkor berishni o'z ichiga oladi.

Davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari kadastr axborotidan bepul manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda haq to'lab foydalanadilar. Kadastrni yuritish byudjet mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi o'simlik dunyosi obyektlarining davlat kadastrida quyidagi guruhlarga birlashtirilgan yovvoyi o'simliklarning har bir turi bo'yicha ma'lumotlar bo'lishi kerak:

- yovvoyi holda o'sadigan dorivor va manzarali, shuningdek, oziq-ovqat sifatida foydalaniladigan o'simliklar;
- texnik maqsadlarda foydalaniladigan yovvoyi o'simliklar;
- tabiiy yaylovlar va pichanzorlardagi o'simliklar;
- yovvoyi o'simliklarning kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan turlari.

Kadastr obyektlarining har bir guruhida quyidagi ma'lumotlar mavjud bo'lishi kerak:

- obyektlar guruhlarining maqomi;
- o'simliklar dunyosi (yaylovlarning turlari);
- keng tarqalishi (hududiy taqsimlanishi);
- mahsuldarligi;
- iqtisodiy baholanishi;
- foydalanilishi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tomonidan ishlab chiqilgan "O'zbekiston oliy o'simliklarining ta'rifnomasi", shuningdek dalani tekshirish ma'lumotlari o'simlik dunyosi obyektlarining davlat kadastrini tuzish uchun axborot manbai hisoblanadi. O'simlik dunyosi obyektlarining davlat kadastroi kadastri axboroti uzluksiz yangilashini ta'minlovchi axborotning asosiy va joriy turlarni o'z ichiga oladi. Asosiy (birlamchi) turini yuritishda obyektlar birlamchi ro'yhatdan o'tkaziladi (xatlanadi). Joriy turda asosiy tur o'tkazilgandan keyin yuz bergan barcha keyingi o'zgartirishlar qayd etiladi va kadastrga kiritiladi.

Ro'yhatdan o'tkazish, hisobga olish va baholash axboroti o'simliklar dunyosi to'g'risidagi jami kadastr axboroti bo'lib, uni harf-raqamlı (matnlar, jadvallar) va chizma (xaritalar, sxemalar) shakllarida, an'anaviy va avtomatlashtirilgan variantlarda taqdim etiladi. O'simlik dunyosi obyektlarining davlat kadastroi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan quyidagi ma'muriy-hududiy darajalarda:

- birlamchi darajada o'simlik dunyosi obyektlarning davlat kadastroi subyektlarining vakolatli shaxslari tomonidan;
- mintaqaviy darajada Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmalarining kadastr xizmati vakolatli shaxslari tomonidan;
- respublika darajasida O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining kadastr xizmati tomonidan yuritiladi.

Kadastr subyektlari darajasida vakolatli shaxslar: yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarni ro'yhatga oladi, ularning soni, sifati va bahosi to'g'risidagi axborotni yig'adi, kadastr kitobini yuritadi, o'simliklarning turlar bo'yicha tarqalishining kadastr rejasini tuzadi va mintaqaviy darajada zarur kadastr axborotini beradi.

Mintaqaviy darajada vakolatli shaslar kadastrini yuritishda subyektlarga uslubiy yordam ko'rsatadi, tushayotgan axborotni tahlil qiladi, taqdim etilgan ma'lumotlarning ishonchligini baholaydi, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar bo'yicha yovvoyi o'simliklarning ro'yhatini va yovvoyi o'simliklarning turlar bo'yicha joylashishi hududiy sxemalarini tuzadi, hisobotlar tuzadi hamda ularni har yili 1 martgacha belgilangan shaklda Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining kadastr xizmati respublika darajasida:

- o'simlik dunyosi obyektlarining davlat kadastro yuritilishini muvofiqlashtiradi;
- me'yoriy-uslubiy hujjatlarni ishlab chiqadi;
- kadastr yuritilishi ustidan nazorat qiladi;
- viloyat kadastr hisobotlarini tizimlashtiradi;
- kadastr xizmatlarini moddiy-texnik ta'minlaydi;
- o'simlik dunyosi obyektlari davlat kadastrining atomatlashtirilgan axborot tizimini ishlab chiqadi;
- manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarning kadastr materiallaridan foydalanishi tartibi va shartlarini belgilaydi;
- zarur kadastr axborotini Davlat kadastrlarining yagona tizimiga beradi.


O'simlik dunyosi obyektlarini davlat tomonidan hisobga olish:

- yovvoyi holda o'suvchi dorivor va manzarali, oziq-ovqat maqsadida foydalilanigan o'simliklar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi hamda Davlat O'rmon qo'miasi tomonidan;
- texnik maqsadlarda foydalilanigan yovvoyi o'simliklar bo'yicha Davyergeodez kadastr qo'miasi tomonidan;

- yovvoyi o'simliklarning kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan turlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tomonidan yuritiladi.

O'simlik dunyosi obyektlarining davlat hisobini yurituvchi vazirliklar va idoralar o'simlik dunyosi obyektlarining davlat kadastroi bo'yicha zarur axborotni Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda, hajmda va muddatlarda qo'mitagaga taqdim etadilar.

Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi 2001 yildan boshlab har yili o'simlik dunyosi obyektlarining zarur axborotni hisobot yildan keyingi yilning 1 aprelgacha Davlat kadastrlarining yagona tizimiga taqdim etadi. Taqdim etish shakli Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi va Davyergeodezkadastr qo'mitasi bilan kelishiladi.



18-rasm. O'simlik dunyosi obyektlari davlat kadastrini yuritish sxemasi

O'simlik dunyosining ishlab chiqiladigan kadastr axboroti ishonchiligi uchun Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining kadastr xizmati, o'simliklarning davlat tomonidan hisobga olinishi yurituvchi vazirliklar va idoralarning vakolatli shaxslari qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

1. Birlamchi darajada o'simliklar dunyosining davlat kadastrini subyektlari vakolatli shaxslari yovvoyi holda o'sadigan dorivor va manzarali, shuningdek, oziq-ovqat sifatida foydalaniladigan o'simliklar; texnik maqsadlarda foydalaniladigan yovvoyi o'simliklar; tabiiy yaylovlari va pichanzorlardagi o'simliklar; yovvoyi o'simliklarning kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan turlari to'g'risida hududlar bo'yicha kadastr axborotlarini to'playdi va Qoraqalpoqiston Respublikasi va viloyatlar Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining kadastr xizmati, vakolatli shaxslarga taqdim etadi. Ular hududlar bo'yicha kadastr axborotlarini umumlashtiradilar va Davyergeodezkadastr qo'mitasining DKYAT ma'lumotlar bazasiga beradilar.

2. Vakolatli tashkilotlar - Respublika darajasida O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi kadastr xizmati so'rovi bo'yicha Davyergeodezkadastr qo'mitasining DKYAT ma'lumotlar bazasidan hududlar bo'yicha kadastr axborotlarini olishlari mumkin.

3. Foydalanuvchilar so'rov bo'yicha DKYAT ma'lumotlar bazasidan kadastr axborotlarini olishlari mumkin.

4.5. HAYVONOT DUNYOSI DAVLAT KADASTRI



Hayvonot dunyosining davlat kadastrini yovvoyi hayvonlar soni, ularning geografik tarqalishi, miqdoriy va sifat tafsiflari, ulardan foydalanish hamda ularni iqtisodiy baholash to‘qrisidagi uzlucksiz yangilanadigan axborot tizimi.

Tabiiy erkin holda yashovchi yovvoyi hayvonlar: sut emizuvchilar, parrandalar, sudralib yurivchi hayvonlar, ham suvda, ham quruqlikda yashovchi hayvonlar, baliqlar, umrtqasizlar hayvonot dunyosining davlat kadastrini obyektlari hisoblanadi.

Davlat kadastrini yurituvchi organlar, ov qilish va baliq ovlash xo‘jaligini yurituvchi, xayvonlarni tabiiy muhitdan ajratib olib hamda ajratib olmasdan ilmiy, madaniy-ma’rifiy, o‘quv va tayyorlash maqsadlarida hayvonot dunyosidan foydalanuvchi yuridik shaxslar hayvonot dunyosi davlat kakdastrining subyektlari hisoblanadi.

Quyidagilar kadastrni yuritishning asosiy prinsiplari hisoblanadi:

- respublikaning butun hududida hayvonlarning barcha turlari yoki kichik turlarining imkonи boricha ko‘p sonini qamrab olish;
- axborotni to‘plash, qayta ishslash texnologiyasi va taqdim etish metodikasining yagonaligi;
- Davlat kadastrlari yagona tizimi talablarini ta’minlash;
- kadastr axborotini to‘ldirish va yangilashning ishonchliligi va uzlucksizligi;

- davlat kadastrini yuritishni markazlashtirilgan tartibda boshqarish.

Hayvonot dunyosining davlat kadastri obyektlarni: ro'yhatdan o'tkazishni, ular sonini hisobga olish va foydalanish sifatini, iqtisodiy baholashni, kadastr axborotini tizimlashtirishni, saqlashni, yangilashni va uni manfaatdor foydalanuvchilarga tegishli shakllarda va hajmlarda belgilangan tartibda tezkor berishni o'z ichiga oladi. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari kadastr axborotidan bepul foydalanadilar, manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda haq to'lab foydalanadilar. Kadastrni yuritish davlat byudjeti mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining hayvonot dunyosini davlat kadastrida yovvoyi hayvonlarning har bir turi (kichik turi) bo'yicha ma'lumotlar mavjud bo'ladi. Yovvoyi hayvonlar turlari quyidagi guruhlarga birlashtiriladi:

- a) Qizil kitobga kiritilgan hayvonlarning kamyob va yo'qolib ketayotgan turlari;
- b) muhofaza qilinadigan tabiiy hududlardagi hayvonlar turlari;
- v) ovlanadigan hayvonlar turlari;
- g) baliqlar;
- d) qishloq xo'jaligi zararkunandalari bo'lgan hayvonlar;
- e) o'rmon xo'jaligi zararkunandalari bo'lgan hayvonlar;
- j) odam va hayvonlarning alohida xavfli yuqumli kasalliklarini tarqatuvchi hayvonlar;
- z) hayvonlarning boshqa turlari.

Turlar (kichik turlar)ning har bir guruhida quyidagi ma'lumotlar mavjud bo'lishi kerak:

- tur (kichik tur)ning maqomi;
- tarqalishi (hududlar bo'yicha taqsimlanishi);
- soni;
- biologiyasi va tur (kichik tur)ning ommaviylashuvi;
- foydalanilishi;
- iqtisodiy baholanishi.

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan Nizomga muvofiq yuritiladigan "O‘zbekiston Respublikasi hayvonlarining genetik fondi kitobi" kadastrni tuzish uchun axborot manbai hisoblanadi. Hayvonot dunyosining davlat kadastr kadastr axborotini uzluksiz yangilashni ta’minlovchi asosiy (birlamchi) va joriy turlarni o‘z ichiga oladi. Kadastrni asosiy (birlamchi) turini yuritishda obyektlar birlamchi ro‘yhatdan o‘tkaziladi (xatlanadi). Joriy turda asosiy tur o‘tkazilgandan keyin yuz bergan barcha o‘zgartirishlar qayd etiladi va kadastrga kiritiladi.

Ro‘yhatdan o‘tkazish, hisobga olish va baholash axboroti hayvonot dunyosi to‘g‘risidagi jami kadastr axborotini tashkil etadi. Ushbu axborot xarf-raqamli (matnlar, jadvallar) va chiziqli (xaritalar, sxemalar) shakllarida, an’anaviy va avtomatlashtirilgan variantlarda taqdim etiladi. Hayvonot dunyosining davlat kadastrini Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi yuritadi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akadamiyasi hayvonot dunyosining davlat kadastrini yuritish bo‘yicha maslahat organ hisoblanadi.

Kadastr Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan quyidagi ma’muriy-hududiy darajalarda:

- birlamchi darajada hayvonot dunyosining davlat kadastr subyektlari vakolatli shaxslari tomonidan;
- mintaqaviy darajada Qoraqalpoqiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmalarining kadastr xizmati, tabiatni muhofaza qilish viloyat qo‘mitalarining vakolatli shaxslari tomonidan;
- respublika darajasida O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining kadastr xizmati tomonidan yuritiladi.

Yovvoyi hayvonlarni ro‘yhatdan o‘tkazish, ular to‘g‘risidagi miqdoriy va sifat axborotni to‘plash, kadastr daftarini yuritish, kadastr xaritalarini tuzish va mintaqaviy darajaga zarur axborotni berish subyektlar darajasidagi davlat kadastrining funksiyalari hisoblanadi.

Mintaqaviy darajada vakolatl shaxslar kadastrni yuritishda subyektlarga uslubiy yordam ko'rsatadi, tushadigan axborotni tahlil qiladi, taqdim etilgan ma'lumotlarning ishonchlilagini baholaydi, Qoraqalpoqiston Respublikasi va viloyatlar bo'yicha yovvoyi hayvonlar ro'yhatini, yovvoyi hayvonlarning turlar bo'yicha joylashishi hududiy sxemalarini va hisobotini tuzadi hamda ularni har yili 1 martgacha belgilangan shaklda Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi kadastr xizmati respublika darajasida:

- hayvonot dunyosining davlat kadastr yuritilishini muvofiqlashtiradi;
- me'yoriy-uslubiy hujjatlarni ishlab chiqadi;
- kadastr yuritilishi ustidan nazorat qiladi;
- viloyat kadastr xizmatlari hisobotlarini tizimlashtiradi;
- hayvonot dunyosining davlat kadastr bo'yicha yillik hisobotni tuzadi;
- kadastr xizmatlarini moddiy-texnik ta'minlaydi;
- hayvonot dunyosi davlat kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimini ishlab chiqadi;
- manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarning kadastr materiallaridan foydalaniши tartibi va shartlarini belgilaydi;
- zarur kadastr axborotini Davlat kadastrlari yagona tizimiga beradi.

Hayvonlarni davlat tomonidan hisobga olish hamda ulardan foydalaniш miqdorini aniqlash bo'yicha hujjatlarni olib boruvchilar:

- hayvonlar turlarini Qizil kitobga kiritish bo'yicha ilmiy tadqiqot tashkilotlari, o'quv yurtlari va boshqa idoralar, davlat qo'riqxonalari, kompleks (landshaft) zakazniklar, tabiiy bog'lar, zakazniklar va pitomniklar, davlat biosfera rezervatlari ishtirokida Fanlar akademiyasi tomonidan;
- belgilangan tartibda ov qilish va sanoat obyektlariga kiritilgan hayvonlar bo'yicha Davlat O'rmon qo'mitasi, Qishloq va suv xo'jaligining "O'zbekbaliqovlash" uyushmasi, ov qilish xo'jaligini yurituvchi boshqa tashkilotlar tomonidan;

- hisobga olinishi va hayvonot dunyosi davlat kadastriga kiritilishi kerak bo‘lgan hayvonlarning barcha turlari (kichik turlari) bo‘yicha, davlat qo‘riqxonalari, kompleks (landshaft) zakazniklar, tabiiy bog‘lar, zakazniklar va pitomniklar, davlat biosfera rezervatlari hududida tegishli ravishda, idoraviy bo‘ysunishidan qat’i nazar, kompleks (landshaft) zakazniklar, tabiiy boqlar, zakazniklar va pitomniklar, davlat biosfera rezervatlari tomonidan;

- baliqlarning sanoat turlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan;

- alohida xavfli yuqumli kasalliklarni tarqatuvchi hayvonlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining karantinli va alohida xavfli yuqumli kasalliklarning oldini olish respublika markazi tomonidan;

- qishloq xo‘jaligi zararkunandalari bo‘lgan hayvonlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan;

- o‘rmon xo‘jaligi zarurkunandalari bo‘lgan hayvonlar bo‘yicha Davlat O‘rmon qo‘mitasi tomonidan;


- yuqorida ko‘rsatilmagan hayvonlarning qolgan turlari (guruhlari) bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tomonidan yuritiladi.

Hayvonlarning davlat ro‘yhatini va ulardan foydalanish hajmi hisobini yurituvchi vazirliklar va idoralar hayvonot dunyosining davlat kadastro bo‘yicha zarur axborotni Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan belgilangan shaklda, hajmda va muddatlarda Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasiga bepul taqdim etadilar.

Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi har yili hayvonot dunyosining davlat kadastro bo‘yicha zarur axborotni hisobot yildan keyingi yilning 1 aprelijacha Davlat kadastrlari yagona tizimiga taqdim etishi kerak. Uning shakli Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadi va Davyergeodezkadastr qo‘mitasi bilan kelishiladi.

Hayvonot dunyosining ishlab chiqiladigan kadastr axboroti ishonchliligi uchun Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining kadastr

xizmati, hayvonlarning davlat tomonidan hisobga olinishi yurituvchi vazirliklar va idoralarning vakolatli shaxslari qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.



19-rasm. Hayvonot dunyosi davlat kadastrini yuritish sxemasi

1. Birlamchi darajada hayvonot dunyosining davlat kadastrli subyektlari vakolatli shaxslari Tabiiy erkin holda yashovchi yovvoyi hayvonlar: sut emizuvchilar, parrandalar, sudralib yurivchi hayvonlar, ham suvda, ham quruqlikda yashovchi hayvonlar, baliqlar, umrtqasizlar hayvonot dunyosi to‘g‘risida hududlar bo‘yicha kadastr axborotlarini to‘playdi va Qoraqalpog’iston Respublikasi va viloyatlar Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasining kadastr xizmati, tabiatni muhofaza qilish viloyat qo‘mitalarining vakolatli shaxslarga taqdim etadi.

2. Mintaqaviy darajada Qoraqalpog’iston Respublikasi va viloyatlar Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasining kadastr xizmati,

tabiatni muhofaza qilish viloyat qo'mitalarining vakolatli shaxslari hududlar bo'yicha kadastr axborotlarini umumlashtiradilar va Davyergeodezkadastr qo'mitasining DKYAT ma'lumotlar bazasiga beradi.

3. Vakolatli tashkilotlar - Respublika darajasida O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi kadastr xizmati so'rov bo'yicha hayvonot dunyosi to'g'risida hududlar bo'yicha kadastr axborotlarini olishlari mumkin.

4.6. CHIQINDILARNI KO'MISH VA UTILIZATSIYA QILISHI JOYLARI DAVLAT KADASTRI



Chiqindilarni ko'mish va utilizatsiya qilish joylari davlat kadastro - bu chiqindilarni ko'mish va utilizatsiya qilish joylarini, geografik holati, huquqiy maqomi, miqdor va sifat tavsiflari hamda iqtisodiy bahosi to'g'risidagi yangilab boriladigan ishonchli axborotlar tizimidir. Ushbu kadastr Davlat kadastrlari yagona tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining butun hududida chiqindilarni ko'mish va utilizatsiya qilish joylari to'g'risidagi axborotlarni to'plash, ishslash, saqlash va tahlil qilishni ta'minlash maqsadida yuritiladi.

Chiqindilarni ko'mish va utilizatsiya qilish joylari davlat kadastrini yuritish chiqindilarni ko'mish va utilizatsiya qilish joylarining barcha turlarini ro'yhatga olishni, obyektlarning miqdor va sifat tavsiflarini, iqtisodiy bahosini, shuningdek

kadastr axborotlarini to‘plash, tahlil qilish, ishlash, tizimlashtirish, saqlash, yangilash va qonun hujjalarda belgilangan tartibda manfaatdor foydalanuvchilarga berishni o‘z ichiga oladi.

Chiqindilarni ko‘mish va utilizatsiya qilish uchun maxsus ajratilgan va uskunalangan joylar:

- sanoat yoki maishiy chiqindilar poligonlari;
- xavfli chiqindilarni ko‘mish joylari;
- chiqindixonalar, kul-shlak tashlash joylari;
- foydalanib bo‘lingandan keyin ko‘mib tashlanadigan shlam to‘plash joylari ushbu davlat kadastroi obyektlari hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Ekoliya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi Chiqindilarni ko‘mish va utilizatsiya qilish joylari davlat kadastrini yuritish bo‘yicha vakolatli organ hisoblanadi. Bu kadastr davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini, manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarni Chiqindilarni ko‘mish va utilizatsiya qilish joylari to‘g‘risidagi ishonchli kadastr axborotlari bilan ta‘minlash uchun mo‘ljallangan.

Quyidagilar Chiqindilarni ko‘mish va utilizatsiya qilish joylari davlat kadastrini yurtitishning asosiy prinsiplari hisoblanadi:

- O‘zbekiston Respublikasi butun hududidagi chiqindilarni ko‘mish va utilizatsiya qilish joylarini to‘liq qamrab olish;
- makon koordinatlari yagona tizimini va yagona topografik asosni qo‘llanishi;
- barcha obyektlar bo‘yicha kadastr axborotlarini shakllantirish metodologiyasining yagonaligi;
- kadastr axborotlarining ishonchliligi, ko‘rgazmaliligi va hujjatliligi;
- kadastr axborotlarining qonun hujjalarda belgilangan tartibda foydalanishga qulayligi;

Chiqindilarni ko‘mish va utilizatsiya qilish joylari davlat kadastrini yuritish chiqindilarni ko‘mish va utilizatsiya qilish joylarini xatlovdan o‘tkazish, hisobga olish, baholash yo‘li bilan ta‘minlanadi va Davlat yer kadastroi hamda Binolar va

inshootlar davlat kadastrini axborotlaridan majburiy ravishda foydalanishni nazarda tutadi. Kadastr obyektlariga taalluqli bo‘lgan yer uchastkalari, binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yhatidan o‘tkazish vakolatli organlar tomonidan, ko‘chmas mulkka huquqlarni ro‘yhatdan o‘tkazish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Davlat yer kadastridan Chiqindilarni ko‘mish va utilizatsiya qilish joylari davlat kadastriga beriladigan yer uchastkalari to‘g‘risidagi yer-kadastr axborotida maqsadli foydalanilishi bo‘yicha yerlarning tuzilmasi, yer uchastkalariga huquqlarning davlat ro‘yhatidan o‘tkazilganligi (shu jumladan yerlardan foydalanishda belgilangan servitutlardagi mavjud cheklashlar va zo‘riqishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar), yerlarning miqdori va sifati to‘g‘risidagi ma’lumotlar mavjud bo‘lishi kerak.

Binolar va inshootlar davlat kadastridan Chiqindilarni ko‘mish va utilizatsiya qilish joylari davlat kadastriga beriladigan ushbu kadastr obyektlariga taalluqli binolar va inshootlar to‘g‘risidagi kadastr axborotlarida ulardan maqsadli foydalanilishi, huquqlarning davlat ro‘yhatidan o‘tkazilganligi, asosiy miqdor va sifat tafsiflari to‘g‘risidagi ma’lumotlar mavjud bo‘lishi kerak. Kadastrni yuritish qog‘oz va yoki elektron manbalarda amalga oshiriladi. Chiqindilarni ko‘mish va utilizatsiya qilish joylari to‘g‘risidagi tizimlashtirilgan kadastr axborotlari belgilangan tartibda Davlat kadastrlari yagona tizimiga beriladi.

Chiqindilarni ko‘mish va utilizatsiya qilish joylari davlat kadastrini yuritish Ekoliya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining quyidagi tarkibiy bo‘linmalari:

- respublika darajasida - Ekoliya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining yer-suv resurslari bosh boshqarmasi;
- hududiy darajada - Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Ekoliya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Chiqindilarni ko‘mish va utilizatsiya qilish joylari davlat kadastrini yuritishni metodik ta’minlash Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi va uni yer-suv resurslari bosh boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

- kadastrning avtomatlashtirilgan axborot tizimini joriy etishni va uning faoliyatini ta’minlaydi;

- ma’lumotlar bazasi tuzilmasini ishlab chiqadi, ularni Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining tarkibiy bo‘linmalariga berishni amalga oshiradi, ma’lumotlar bazasining to‘g‘ri to‘ldirilishini nazorat qiladi;

- kadastr hodimlarini kadastrni avtomatlashtirilgan axborot tizimi bilan ishslashga o‘qitishni tashkil qiladi;

- kadastr axborotlarini tizimlashtiradi va ularni kadastrning avtomatlashtirilgan axborotlar tizimiga kiritadi;

- kadastr yangi obyektlari to‘g‘risidagi hisobga olish va baholash axborotlarini to‘plashni nazorat qiladi;

- kadastr axborotlarini Davlat kadastrlari yagona tizimiga tezkorlik bilan berilishini amalga oshiradi;

- kadastr obyektlari holati va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi hisobotni Davlat kadastrlari yagona tizimiga har yili belgilangan tartibda taqdim etadi.

Qoraqlpog‘iston Respublikasi viloyatlar va Toshkent shahar Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish: boshqarmalari:

- Chiqindilarni ko‘mish va utilizatsiya qilish joylari davlat kadastr obyektlarining miqdor va sifat holatidagi joriy o‘zgarishlar, ularning atrof-muhitni, iqtisodiy bahosiga ta’siri to‘g‘risidagi axborotlarni to‘playdilar;

- kadastr obyektlarining kadastr daftarlari yuritadilar, ma’lumotlar bazasini to‘ldiradilar va ularni tizimlashtirish va Chiqindilarni ko‘mish va utilizatsiya qilish joylari davlat kadastrining avtomatlashtirilgan axborotlar tizimiga kiritish uchun yer-suv resurslari bosh boshqarmasiga beradilar;

- kadastr yangi obyektlarini hisobga qo‘yadilar, shuningdek ular to‘g‘risidagi hisobga olish va baholash axborotlarini to‘playdilar.

Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tizimidan tashqarida faoliyat ko‘rsatuvchi, chiqindilarni ko‘mish va utilizatsiya qilish joylari mulkdorlari, shuningdek boshqa huquqlar egalari yer-suv resurslari bosh boshqarmasiga kadastr obyektlarining jug‘rofiy holati, huquqiy maqomi, miqdor va sifat tavsiflari hamda bahosi to‘g‘risidagi, shuningdek ularning holatidagi joriy o‘zgarishlar to‘g‘risidagi axborotlarni taqdim etishi shart.

Chiqindilarni ko‘mish va utilizatsiya qilish joylari ro‘yhati ularning miqdor va sifat tavsiflarini va iqtisodiy bahosini hisobga olish uchun asos hisoblanadi. Bu ro‘yhatga chiqindilarni ko‘mish va utilizatsiya qilish joylarining barcha turlari kiritilishi kerak. Bunda asosiy ko‘rsatkichlar qayd etiladi, ularning tarkibi tegishli normativ hujjatlar bilan belgilanadi. Ro‘yhat natijalari bo‘yicha har bir obyekt uchun pasport tuziladi. Miqdor va sifat tavsiflarining asosiy hisobi chiqindilarni ko‘mish va utilizatsiya qilishning hisobga qo‘yish vaqtida foydalanishga topshirilgan va faoliyat ko‘rsatayotgan har qaysi joyi bo‘yicha amalga oshiriladi.

Chiqindilarni ko‘mish va utilizatsiya qilish joylarining miqdor va sifat tavsiflari hisobi ularning iqtisodiy, texnologik, biologik va ekologik belgilari bo‘yicha tasnifini o‘z ichiga oladi, ularning tarkibi va davlat kadastrini yuritish bo‘yicha normativ hujjatlar bilan belgilanadi. Bu joylarni miqdor va sifat tavsiflarini hisobga olish uchun Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan Davyergeodezkadastr qo‘mitasi bilan kelishgan holda kadastr axborotlarini taqdim etishning texnik parametrlari va formatlari ishlab chiqiladi. Hisobga olish axboroti kadastr daftariga yoziladi va davlat kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritiladi.

Chiqindilarni ko‘mish va utilizatsiya qilish joylarini iqtisodiy baholash chiqindilarni ko‘mish va utilizatsiya qilish soliq solish, xususiy lashtirish va boshqa maqsadlar uchun har bir joyning holatini, qiymatini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi. Iqtisodiy baholash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ularning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Chiqindilarni ko‘mish va utilizatsiya qilish joylari to‘g‘risidagi kadastr axborotlarining ishonchliligi uchun yer-suv resurslari bosh boshqarmasi,

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Ekoliya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmalarining Chiqindilarni ko‘mish va utilizatsiya qilish joylari davlat kadastrini yuritishni amalga oshiruvchi rahbarlari javob beradilar.

1. Chiqindilarni ko‘mish va utilizatsiya qilish joylari mulkdorlari, shuningdek boshqa huquqlarning egalari chiqindilarni ko‘mish va utilizatsiya qilish joylari bo‘yicha kadastr axborotlarini Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Ekoliya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmalarining vakolatli bo‘linmalariga taqdim etadilar.


2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Ekoliya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmalarining vakolatli bo‘linmalari mulkdorlardan va ushbu obyektlarga boshqa huquqlar egalaridan chiqindilarni ko‘mish va utilizatsiya qilish joylari to‘g‘risidagi kadastr axborotlarini to‘playdilar, kadastr yig‘majildlarini shakllantiradilar va ularni Ekoliya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining vakolatli bo‘linmasiga beradilar.

3. Ekoliya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining vakolatli bo‘linmasi Davlat yer kadastridan hamda Binolar va inshootlar davlat kadastridan yer uchastkalari, binolar va inshootlar to‘g‘risidagi axborotlarni oladi.

4. Ekoliya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining vakolatli bo‘linmasi obyekt (chiqindilarni ko‘mish va utilizatsiya qilish joylari) CHKUJDKga kiritilgandan keyin kadastr axborotlarini DKYAT ma’lumotlar bazasiga beradi.

5. Ekoliya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining vakolatli bo‘linmasi so‘rov bo‘yicha DKYAT ma’lumotlar bazasidan chiqindilarni ko‘mish va utilizatsiya qilish joylari to‘g‘risidagi axborotlarni olishi mumkin.

6. Ekoliya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining vakolatli bo‘linmasi chiqindilarni ko‘mish va utilizatsiya qilish joylari obyektlari bo‘yicha zarur axborotlarni Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Ekoliya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmalarining vakolatli bo‘linmalariga yuboradi.



**) Kadastr axborotlarining harakat yo'naliishlari strelkalar bilan belgilangan.*

20-rsam. Chiqindilarni ko'mish va utilizatsiya qilish joylari davlat kadastrini yuritish sxemasi

NAZORAT SAVOLLARI

1. Konlar, foydali qazilmalar va texnogen hosilalarning yuzaga chiqish hollari davlat kadastrini yuritish bo'yicha vakolatli organ bo'lib qaysi dalat organi hisoblanadi?
2. Davlat o'rmon kadastrini yuritish bo'yicha vakolatli organ bo'lib qaysi davlat organi hisoblanadi?
3. O'simlik dunyosi obyektlari davlat kadastrini yuritish bo'yicha vakolatli organ bo'lib qaysi davlat organi hisoblanadi?

4. Hayvonot dunyosi davlat kadastrini yuritish bo‘yicha vakolatli organ bo‘lib qaysi davlat organi hisoblanadi?

5. Qo‘riqlanadigan tabiiy hududlar davlat kadastrini yuritish bo‘yicha vakolatli organ bo‘lib qaysi davlat organi hisoblanadi?

6. Chiqindilarni ko‘mish va utilizatsiya qilish joylari davlat kadastrini yuritish bo‘yicha vakolatli organ bo‘lib qaysi davlat organi hisoblanadi?

7. O‘zbekiston Respublikasining “Yer osti boyliklari to‘g‘risida”gi Qonuni qachon qabul qilingan?

8. O‘zbekiston Respublikasining “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni qachon qabul qilingan?

9. Chiqindilarni ko‘mish va utilizatsiya qilish joylari davlat kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risida nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaysi sonli qarori bilan tasdiqlangan?

10. Davlat o‘rmon kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risida nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaysi sonli qarori bilan tasdiqlangan?

5-BOB. TABIIY HUDUDLAR GURUHIGA KIRUVCHI DAVLAT KADASTRALARI VA ULARNI YURITISH XUSUSIYATLARI

5.1. HUDDUDLAR DAVLAT KADASTRI

O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy birliklari: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri va tumanlar (shaharlar) davlat kadastro yuritiladigan hududlar hisoblanadi. Ayrim hollarda davlat kadastro yuritiladigan hududlar bo‘lib iqtisodiy mintaqa yoki erkin iqtisodiy zona va boshqalar bo‘lishi mumkin.

Davlat kadastrlari yagona tizimiga kiruvchi barcha davlat kadastrlarining obyektlari, muayyan hududda joylashgan sanoat, transport, sog‘liqni saqlash, ta’lim, madaniyat, ijtimoiy soha, ma’muriy va boshqa ahamiyatga ega bo‘lgan obyektlar, shuningdek ushbu obyektlar to‘g‘risidagi geofazoviy, statistik va boshqa zarur ma’lumotlar hamda ular joylashgan hududlar hududlarning davlat kadastro obyektlari hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi **Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro davlat qo‘mitasi** hududlar davlat kadastrini tashkil etish va yuritish bo‘yicha maxsus vakolatli organ hisoblanadi.

Hududlar davlat kadastrini tuzish va yuritish ishlari O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti mablag‘lari va qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi. Kadastr hududlarning tabiiy-resurs va xo‘jalik salohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va ekologik holatini hisobga olish hamda baholash maqsadlarida tuziladi va yuritiladi. U davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini, mahalliy davlat hokimiyati organlarini, manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarni hududiy rejalshtirish va hududlarni boshqarish sohasida qarorlar qabul qilish uchun zarur bo‘lgan, hududlarning tabiiy-resurs va xo‘jalik salohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va ekologik holati to‘g‘risidagi kompleks, aniq axborot bilan ta’minalash uchun mo‘ljallangan.

Hududlar davlat kadastrini yuritish quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

- barcha darajadagi hududlarning davlat kadastrini yuritish metodologiyasining yagonaligi;
- hududlarni tabiiy-resurs va xo‘jalik salohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va ekologik holatini to‘liq qamrab olish;
- fazoviy koordinatalarning yagona tizimini va yagona kartografik asoslarini qo‘llash;
- barcha obyektlar bo‘yicha geofazoviy ma’lumotlarni shakllantirish metodologiyasining yagonaligi;
- hududlar davlat kadastri axborot resurslarining dolzarbliji, to‘g‘riliqi, to‘liqligi, butligi, aniqligi, ravshanligi va hujjatlarga asoslanganligi;
- kadastr axborotining ochiqligi va undan hamma foydalanishi mumkinligi, uni olish, tarqatish va saqlashning qonuniyligi;
- yer kadastri va boshqa davlat kadastrlarining axborot tizimlari hamda davlat axborot resurslarini tashkil qiluvchi reestrlar bilan o‘zaro bog‘langanligi;
- kadastr axborot resurslarini tuzish, yangilash, qayta ishlash, saqlash, taqdim qilish va ulardan foydalanishni ta’minlaydigan hududlar davlat kadastrining bazaviy subyektlari faoliyatini muvofiqlashtirish;
- kadastrni tuzish va yuritish ishlarini davlat yer kadastri, DKYAT va Milliy geoaxborot tizimini tashkil etish va yuritish ishlari bilan muvofiqlashtirish.

Hududlar davlat kadastri ma’lumotlarining kompleksligi, to‘liqligi va to‘g‘riliqi:

- hududiy rivojlanishni rejorashtirish va hududlarni boshqarish;
- aholi hayot faoliyatining xavfsiz muhitini shakllantirish;
- hududlarni tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish;
- hududlarda aholini, ishlab chiqarish obyektlarini va ishlab chiqarish kuchlarini bir xilda taqsimlash;
- atrof tabiiy muhitning ifloslanish darajasini pasaytirish;
- sanoat obyektlari va boshqa obyektlarning muhandislik-transport infratuzilmasi samarali va ishonchli faoliyat ko‘rsatishi;

- hududlarni barqaror rivojlantirish maqsadida tabiiy resurslarni va alohida maqomga ega hududlarni, shu jumladan muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni, tarixiy va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni, suv resurslarini va o‘rmonlarni muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanish;
- hududlarni boshqarish va rivojlantirishni boshqa masalalari bo‘yicha qarorlar qabul qilinishini ta’minlash.

Hududlarning davlat kadastr tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- 1) tashkiliy tuzilma;
- 2) texnik va dasturiy vositalar;
- 3) axborot resurslari;
- 4) metama'lumotlar bazalari;
- 5) geofazoviy ma'lumotlar servislari;
- 6) normativ-huquqiy hujjatlar, texnik reglamentlar va standartlar.

Hududlar davlat kadastrining tashkiliy tuzilmasi quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, mahalliy davlat hokimiyati organlari (hududlarning davlat kadastr axborotidan foydalanish);

- hududlar davlat kadastrini tuzish va yuritish bo‘yicha vakolatli organ sifatida Davyergeodezkadastr qo‘mitasi;
- Davlat kadastrlari, geodeziya va kartografiya milliy markazi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastr davlat korxonalari tumanlar (shaharlar) filiallari;
- kadastr tizimida ro‘yhatdan o‘tkazilishi va hisobga olinishi lozim bo‘lgan axborot resurslarini tuzish, yangilash, qayta ishlash, saqlash, taqdim etish va ulardan foydalanishni amalga oshiradigan davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mulkchilikning barcha shakllaridagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar.

Hududlar davlat kadastr umumdavlat (DKYAT va Milliy geoaxborot tizimi), Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, tumanlar (shaharlar) darajasida yuritiladi. Hududlar davlat kadastrini tuzuvchi va yurituvchi Davyergeodezkadastr qo‘mitasi tarkibiga kiruvchi korxonalar:

- respublika darajasida — Davlat kadastrlari, geodeziya va kartografiya milliy markazi;

- mintaqqa, tuman va shahar darajalarida — tegishli hududiy yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastro davlat korxonalari tomonidan amalga oshiriladi.

Hududlar davlat kadastrining tashkiliy tuzilmasiga o‘z vakolatlari doirasida axborot resurslarini taqdim etish uchun mas’ul bo‘lgan quyidagi bazaviy subyektlar kiradi:

1) O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi — quyidagi ma’lumotlar bo‘yicha:

- qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan foydalanish;

- irrigatsiya tizimlari va inshootlari joylashishi va holati to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

- gidrotexnika inshootlari davlat kadastro ma’lumotlari (kapitalligi III klassdan past gidrotexnika inshootlari bo‘yicha — inshootlarning mansubligi bo‘yicha);

Davlat O‘rmon qo‘mitasi — davlat o‘rmon kadastro ma’lumotlari;

2) O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi — quyidagi ma’lumotlar bo‘yicha:

- texnogen xavfi yuqori bo‘lgan zonalar davlat kadastro (portlash xavfi va yong‘in xavfi yuqori bo‘lgan zonalar (obyektlar) — bo‘lim) ma’lumotlari;

- ichki ishlar organlarining hududiy bosh boshqarmalari, boshqarmalari va bo‘limlari, tayanch punktlari, yo‘l-patrol xizmati, yong‘in xavfsizligi xizmati postlarining va ichki ishlar organlari blok-postlarining joylashishi va ulanish ma’lumotlari;

3) O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi quyidagilar bo‘yicha:

- joydagи obyektlarning o‘zgarishiga sabab bo‘lgan tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar to‘g‘risidagi axborot;

- texnogen xavf yuqori bo‘lgan zonalar davlat kadastro (bo‘lim — xavfi yuqori bo‘lgan, odamlarni evakuatsiya qilish yoki ko‘chirishni talab qiladigan zonalar) ma’lumotlari;

4) O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi — moddiy madaniy meros obyektlari davlat kadastro ma’lumotlari va ushbu obyektlarga xizmat ko‘rsatuvchi muassasalarining ulanish ma’lumotlari bo‘yicha;

5) O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi — quyidagi ma’lumotlar:

- texnogen xavf yuqori bo‘lgan zonalar kadastro (bo‘lim — kuchli ta’sir etuvchi zaharli kimyoviy moddalar, pestitsidlar, radioizotop mahsulotlar, radioaktiv moddalar va boshqa moddalarni ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash va ulardan foydalanish obyektlari) ma’lumotlar;

- sog‘liqni saqlash muassasalari: kasalxonalar, klinikalar, poliklinikalar, feldsherlik hamda jarohatlanish punktlari, dispanserlar, dorixonalar va boshqalarning joylashishi hamda ulanish ma’lumotlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

6) O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi — maktabgacha hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining joylashishi va ulanish ma’lumotlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

7) O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, tasarrufida oliy ta’lim muassasalari bo‘lgan vazirliklar va idoralar — idoraviy mansub oliy ta’lim muassasalarining joylashishi va ulanish ma’lumotlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bo‘yicha;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi markazi — o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining joylashishi va ulanish ma’lumotlari bo‘yicha;

8) O‘zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirishvazirligi — aloqa obyektlari davlat kadastro ma’lumotlari bo‘yicha;

9) O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi — quyidagi ma’lumotlar bo‘yicha:

- konlar, foydali qazilmalar va texnogen hosilalarning yuzaga chiqish hollari davlat kadastro ma'lumotlari;

- tabiiy xavf yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastro (bo'lim — xavfli geologik jarayonlarning yuzaga chiqish zonalari) ma'lumotlari;

10) O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi — quyidagi ma'lumotlar bo'yicha:

- davlat shaharsozlik kadastro ma'lumotlari;

- qurilayotgan binolar va inshootlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

11) O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi — quyidagi ma'lumotlar bo'yicha:

- hayvonot dunyosi davlat kadastro ma'lumotlari;

- o'simlik dunyosi obyektlari davlat kadastro ma'lumotlari;

- chiqindilarni ko'mish va utilizatsiya qilish joylari davlat kadastro ma'lumotlari;

- muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar davlat kadastro ma'lumotlari;

12) O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi — aholi soni to'g'risidagi statistik ma'lumotlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Davlat statistika ishlari dasturi doirasida shakllanadigan tumanlar (shaharlar) bo'yicha alohida yillik statistik ko'rsatkichlar;

13) Davyergeodezkadestr qo'mitasi — quyidagi ma'lumotlar bo'yicha:

- davlat yer kadastro ma'lumotlari;

- binolar va inshootlar davlat kadastro ma'lumotlari;

- kartografiya-geodeziya davlat kadastro ma'lumotlari;

14) O'zbekiston Respublikasi Favqulotda vaziyatlar vazirligi huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati markazi — quyidagi ma'lumotlar bo'yicha:

- davlat suv kadastro (yer usti suvlari, yer osti suvlari, suv resurslaridan foydalanish) ma'lumotlari;

- tabiiy xavf yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastro (bo'lim — gidrometeorologik hodisalar xavfi yuqori bo'lgan zonalar) ma'lumotlari;

15) O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi — quyidagi ma’lumotlar bo‘yicha:

- tabiiy xavf yuqori bo‘lgan zonalar davlat kadastri (bo‘lim — seysmik xavf yuqori bo‘lgan zonalar) ma’lumotlari;

- texnogen xavf yuqori bo‘lgan zonalar davlat kadastri (bo‘lim — yadro fizikasi korxonalaridagi radiatsiya xavfi yuqori bo‘lgan zonalar) ma’lumotlari;

16) O‘zbekiston Respublikasi «Sanoatgeokontexnazorat» davlat nazorati — texnogen xavf yuqori bo‘lgan zonalar davlat kadastri (bo‘lim — ishlab chiqarish obyektlarida, portlash-yong‘in xavfi va radiatsiya xavfi bo‘lgan obyektlarda bo‘lishi mumkin bo‘lgan avariya holatlari xavfi yuqori bo‘lgan zonalar) ma’lumotlari va texnogen xavf yuqori bo‘lgan obyektlardan foydalanuvchi tashkilotlarning ularish ma’lumotlari bo‘yicha;

17) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «Davsuvxo‘jaliknazorat» davlat inspeksiyasi — gidrotexnika inshootlari davlat kadastri (davlat mulkida bo‘lgan, shuningdek respublika va mintaqaviy suv xo‘jaligi va energetika tizimlariga kiradigan kapitalligi I, II, III klassli gidrotexnika inshootlari bo‘yicha) ma’lumotlari;

18) «O‘zbekiston temir yo‘llari» aksiyadorlik jamiyatini — temir yo‘llari davlat kadastri ma’lumotlari;

19) «O‘zavtoyo‘l» davlat qo‘mitasi — avtomobil yo‘llari davlat kadastri ma’lumotlari bo‘yicha;

20) «O‘zbekenergo» aksiyadorlik jamiyatini — quyidagi ma’lumotlar bo‘yicha:

- energetika obyektlari davlat kadastri ma’lumotlari;

- gidrotexnika inshootlari davlat kadastri (kapitalligi III klassdan past gidrotexnika inshootlari bo‘yicha — inshootlarning mansubligi bo‘yicha) ma’lumotlari;

21) «O‘zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasi — yetkazib berish quvurlari davlat kadastri ma’lumotlari bo‘yicha.

Hududlar davlat kadastro axborot tizimining texnik va dasturiy vositalariga hududlarning davlat kadastro axborot resurslari ro'yhatdan o'tkazilishi, hisobga olinishi, saqlanishi, dolzarblashtirilishi va foydalanuvchilarga taqdim etilishini ta'minlaydigan umumdavlat, mintaqaviy, tumanlar va shaharlar geoportallari hamda geoaxborot tizimlari tarmog'i kiradi.

Kadastr tizimining axborot resurslari ma'lumotlarning umumlashtirilgan tarkibi va ularga kiritish uchun asoslar umumdavlat, mintaqaviy, tuman va shahar darajalaridagi axborot resurslaridan iborat bo'ladi.

Hududlar davlat kadastro axborot resurslarining tuzilmasi va batafsil mazmuni Davyergeodezkadestr qo'mitasi tomonidan o'z vakolatlari doirasida kadastro tizimi uchun axborot resurslari taqdim etilishi uchun mas'ul bo'lgan vazirliklar va idoralar bilan kelishgan holda belgilanadi. Kadastr metama'lumotlari axborot resurslari, shu jumladan hududning tarkibi, tuzilmasi, sifati, ayrim qismlari, geofazoviy ma'lumotlardan foydalanish shartlari va ularni tuzuvchilar to'g'risidagi ma'lumotnomalar axborotni o'z ichiga oladi. Kadastr hujjatlari va geofazoviy ma'lumotlarning turiga qarab, metama'lumotlar boshqa ma'lumotnomalar axborotni o'z ichiga olishi mumkin.

Metama'lumotlarning tartibga solingan to'plamlarini o'z ichiga oluvchi metama'lumotlar bazalari tegishli hududiy yer tuzish va ko'chmas mulk kadastro davlat korxonalari tomonidan tuziladi hamda geofazoviy ma'lumotlar va axborot tizimlari servislарини qidirish, sifatini baholash, ulardan foydalanish shartlarini ta'minlash uchun geoportallar tarmog'ida joylashtiriladi.

Hududlar davlat kadastro tizimida quyidagi axborot tizimlari servislari ega bo'lgan geoportallar tarmog'i yaratiladi va unga xizmat ko'rsatiladi:

- 1) axborot tarmoqlarida geofazoviy ma'lumotlar to'plamlari va servislari aniqlashni ta'minlaydigan qidirish servislari;
- 2) geofazoviy ma'lumotlar to'plamlarini, geofazoviy obyektlarning tavsiflari to'g'risidagi axborotni va metama'lumotlar tarkibini ko'rib chiqish servislari;
- 3) kadastro ma'lumotlariga bevosita kirishni yoki ulardan nuxxalar olishni ta'minlaydigan kirish servislari;

4) geofazoviy ma'lumotlar koordinatalarini bir koordinatalar tizimidan yoki kartografik proeksiyadan boshqasiga almashtirishni ta'minlaydigan almashtirish servislari.

Metodik, lingvistik, texnik va dasturiy vositalar hududlarning davlat kadastrini tuzish va yuritish jarayonida quyidagi asosiy operatsiyalarni avtomatlashtirilgan tarzda bajarilishini ta'minlashi lozim:

- elektron hujjat aylanishi va kadastr ma'lumotlari almashuvining bixillashtirilgan tizimidan foydalangan holda boshqa kadastrlar va axborot tizimlari bilan hujjatlashtirilgan ma'lumotlar almashuvi;
- hududlar davlat kadastro axborot tizimida saqlanayotgan ma'lumotlardan rezerv nusxa ko'chirish va ularni himoya qilish;
- yangi hujjatlar va ma'lumotlarni ro'yhatdan o'tkazish va hisobga olish, shuningdek belgilangan tartibda haqiqiy emas deb topilgan hujjatlar va ma'lumotlarning saqlanishini arxiv rejimiga o'tkazish yo'li bilan axborot resurslarini dolzarblashtirish;
- geofazoviy ma'lumotlar bazasini kiritish, tahrir qilish va soz holda saqlash, hududlar davlat kadastro raqamli xaritalarini shakllantirish, chiqarish va ulardan foydalanish;
- axborotni obyektning manzili yoki ro'yhatdan o'tkazish (identifikatsiya) raqami, yer uchastkasining koordinatalari yoki kadastr raqami, hujjatning nomi va rekvizitlari bo'yicha qidirish;
- tahliliy hisobotlar tuzish, chiqish hujjatlarini bosma va yoki elektron shaklda shakllantirish va chiqarish;
- hududlar davlat kadastro axborot resurslaridan foydalangan holda kiritilgan yoki shakllantirilgan va kiritilgan kirish chiqish hujjatlari reestrini bosma va yoki elektron shaklda yuritish.

Davyergeodezkadestr qo'mitasi tomonidan vakolatli vazirliklar va idoralar bilan birgalikda kadastr hisobi va kadastr ma'lumotlari almashuvi, hududlar davlat kadastrini tuzish va rivojlantirish uchun bixillashtirilgan elektron hujjatlar

aylanishi tizimining axborot resurslarini tashkil etish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar, texnik reglamentlar va standartlar ishlab chiqiladi.

Hududlar davlat kadastrini tuzish quyidagi asosiy masalalarining hal etilishini o'z ichiga oladi:

- kadastrni tuzish konsepsiyasini va maqsadli davlat dasturini ishlab chiqish;
- normativ-huquqiy va metodik bazani ishlab chiqish;
- kadastr tizimining barcha bazaviy subyektlari faoliyat yuritishini va o'zaro hamkorlikda ishlashini tashkil qilish;
- dasturiy-texnik komplekslarni ishlab chiqish (tanlash);
- kadastrni yuritishning barcha darajalarida ularning axborot resurslarini shakllantirish va ma'lumotlar bazalarini tashkil etish (to'ldirish) bo'yicha ishlarni tashkil qilish;
- bazaviy subyektlar bilan hududlar davlat kadastro foydalanuvchilariga axborot taqdim etish tizimi o'rtaida axborotlar almashuvining axborot-kommunikatsiya tizimini shakllantirish;
- kadastr axborot tizimidan foydalanuvchilarni va tizimga xizmat ko'rsatuvchi mutaxassislarni o'qitish yo'li bilan kadastr axborot tizimining faoliyat yuritishini kadrlar bilan ta'minlash.

Hududlar davlat kadastrini tuzish ikkita asosiy bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich:

- kadastrni tuzish konsepsiyasini va maqsadli davlat dasturini ishlab chiqish hamda belgilangan tartibda tasdiqlash;
- kadastr axborot tizimining ma'lumotlar bazasiga bazaviy axborot tariqasida kiritilishi nazarda tutiladigan materiallar va ma'lumotlarni uni yuritishning tegishli darajalarida to'plash, tizimlashtirish va tahlil qilish ishlari;
- kadastro axborot tizimi va geoportallarining texnik komplekslarini uni yuritishning barcha darajalarida xarid qilish va o'rnatish;
- kadastr ma'lumotlarining kadastr hisobga olinishi va almashuvi uchun mo'ljallangan bixillashtirilgan elektron hujjatlar aylanishi tizimini ishlab chiqish hamda joriy etish;

- kadastr geoaxborot tizimlari va geoportallarining dasturiy ta'minotini ishlab chiqish, zarur hollarda xarid qilish hamda o'rnatish;

- kadastr geoaxborot tizimlari va geoportallaridan tajriba tariqasida foydalanish;

Davyergeodezkadastr qo'mitasi markaziy apparatining tegishli bo'linmalari, Davlat kadastrlari, geodeziya va kartografiya milliy markazi, hududiy yer tuzish va ko'chmas mulk kadastro davlat korxonalarining, hududlar davlat kadastrini tuzish va yuritish bo'yicha boshqa bazaviy subyektlarning faoliyatini tashkil qilish.

Ikkinci bosqich:

- hududlar davlat kadastro bazaviy subyektlarining taqsimlangan ma'lumotlar bazalari o'rtasida axborot almashuvining kommunikatsiya kanallarini o'rnatish;

- axborotni muhofaza qilishni va hududlarning davlat kadastro axborot resurslaridan foydalanish tizimini tashkil qilish;

- kadastro geoaxborot tizimlari ma'lumotlar bazalariga ma'lumotlarni muntazam kiritib borish va dolzarblashtirish ishlarini uni yuritishning barcha darajalarida tashkil qilish;

- foydalanuvchilarining so'rovlari bo'yicha kadastr hujjatlarini, ma'lumotnomalar va boshqa axborotni, shu jumladan interaktiv davlat xizmatlari shaklida shakllantirish va berish ishlarini tashkil qilish;

- kadastr geoaxborot tizimlari va geoportallaridan sanoat yo'sinida foydalanish;

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini, mahalliy davlat hokimiyati organlarini, manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarni hududlarning davlat kadastro axborotlari bilan muntazam (doimiy) ta'minlash.

Hududlar davlat kadastrini yuritish Davlat kadastrlari, geodeziya va kartografiya milliy markazi, tegishli hududiy yer tuzish va ko'chmas mulk kadastro davlat korxonalari tomonidan hududiy davlat kadastrining bazaviy subyektlaridan olingan ma'lumotlar va hujjatlar, davlat hokimiyati va boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari bo'yicha qarorlari olingan, tizimlashtirilgan, umumlashtirilgan va ro'yhatdan

o‘tkazilgandan keyin tegishli darajadagi hududlarning davlat kadastro axborot resurslarini shakllantirish va dolzarblashtirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Respublika darajasida hududlarning davlat kadastro tizimiga:

- mamlakat hududining 1:200 000 mashtabdagi yagona raqamli kartografik asosi;

- davlat chegarasi va ma’muriy-hududiy birliklarning chegaralari;

- mamlakat hududining kadastr bo‘yicha bo‘linishi birliklari;

- O‘zbekiston Respublikasi aholisini joylashtirishning bosh sxemasi;

- O‘zbekiston Respublikasi hududini rejallashtirish sxemalari;

- hududlardan foydalanish, mamlakat hududini ekologik, muhandislik-geologik, seysmik, gidrogeologik, tuproq, iqtisodiy, soliq va boshqalarga oid mintaqalarga bo‘lish bo‘yicha davlat kadastrlari va axborot tizimlarining axborot resurslari;

- hududiy rejallashtirish, shaharsozlik, yer tuzish va boshqa sohadagi normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar kiritiladi.

- Mintaqaviy darajada hududlarning davlat kadastro tizimiga:

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar hududlarining 1:10 000 yoki 1:25 000 mashtabdagi yagona raqamli kartografik asosi;

- davlat chegarasi va ma’muriy-hududiy birliklarning chegaralari;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar hududlarini kadastr bo‘yicha bo‘lish birliklarining chegaralari;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar hududlari va aholi punktlari chegaralaridan tashqaridagi mintaqaviy ahamiyatga molik bo‘lgan obyektlar hududlarining ayrim qismlarini rejallashtirish sxemalari;

- hududlarni istiqbolli rivojlantirishning loyiha qarorlari va muhandislik, transport hamda ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish loyihalari;

- hududlardan foydalanish, mintaqalar hududlarini ekologik, muhandislik-geologik, seysmik, gidrogeologik, tuproq, iqtisodiy, soliq va boshqalarga oid mintaqalarga bo‘lish bo‘yicha davlat kadastrlari va axborot tizimlarining axborot resurslari;

- hududiy rejalarashtirish, shaharsozlik, yer tuzish va boshqa sohadagi normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar kiritiladi.

Tuman darajasida hududlarning davlat kadastro tizimiga:

- tuman hududining 1:5 000 yoki 1:10 000 masshtabdagi yagona raqamli kartografik asosi;
- qishloq va posyolka fuqarolar yig‘inlari hamda mahallalarning ma’muriy-hududiy birliklari chegaralari;
- tuman hududini kadastr bo‘yicha bo‘lish birliklarining chegaralari;
- yer uchastkalarining chegaralari;
- tuman hududini va aholi punktlari chegaralaridan tashqaridagi mintaqaviy ahamiyatga molik obyektlar bilan birgalikda hududlarning ayrim qismlarini rejalarashtirish sxemalari;
- hududlar davlat kadastro axborot tizimlari alohida tuzilmaydigan tuman bo‘ysunuvidagi shaharlar, posyolkalar, qishloq aholi punktlarining bosh rejalar, hududlarni zonalashtirish rejalar, ko‘rsatib o‘tilgan aholi punktlarining tarixiy-arxitektura rejalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- hududlardan foydalanish, tuman hududini ekologik, muhandislik-geologik, seysmik, gidrogeologik, tuproq, iqtisodiy, soliq va boshqalarga oid mintaqalarga bo‘lish davlat kadastrlari hamda axborot tizimlarining axborot resurslari;
- hududiy rejalarashtirish, shaharsozlik, yer tuzish va boshqa sohadagi normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar kiritiladi.

Shahar darajasida hududlarning davlat kadastro tizimiga:

- shaharning 1:2 000 masshtabdagi yagona raqamli kartografik asosi;
- shahar, shahar tumanlari (mavjud bo‘lsa) va mahallalarning chegaralari;
- shahar hududini kadastr bo‘yicha bo‘lish birliklarining chegaralari;
- shaharning bosh rejasi, hududlarni zonalashtirish rejalar, tarixiy-arxitektura rejasi va shahar hududining bataysil rejalar;
- iqtisodiy va soliqqa oid zonalashtirish chegaralari;
- davlat yer kadastro ma’lumotlari asosida — yer uchastkalari, ularning kadastro raqamlari, chegaralari va ekin maydoni (ularda joylashgan bino va

inshootlarning konturlarini belgilagan holda), mo‘ljallangan maqsad va funksional foydalanish, yerlarni yer uchastkalari egalari, foydalanuvchilar, ijaraga oluvchilar hamda yer uchastkalari mulkdorlari o‘rtasida taqsimlash, yer uchastkalaridan foydalanish bo‘yicha majburiyatlar;

- binolar va inshootlar davlat kadastro, shaharsozlik davlat kadastro ma’lumotlari, xizmat ko‘rsatuvchi ta’mirlash tashkilotlari ma’lumotlari, infratuzilmaning qurilishi tugallangan obyektlarini muhandislik-geodezik ijroviy syomka natijalari va boshqa rasmiy manbalar asosida — muhandislik-transport infratuzilmasi;

- binolar va inshootlar davlat kadastro, madaniy meros obyektlari davlat kadastro, shaharsozlik davlat kadastro ma’lumotlari va boshqa rasmiy manbalar asosida — binolar va inshootlar, ularning huquqiy rejimi, texnik holati, me’moriy va madaniy qimmati;

- moddiy madaniy meros obyektlari davlat kadastro ma’lumotlari asosida — madaniy meros yodgorliklari;

- geografik obyektlarning nomlari davlat reestri ma’lumotlari, topografik planlar, boshqa rasmiy manbalar asosida — mahallalar, ko‘chalarning nomlari va joyning nom berilgan boshqa obyektlari;

- topografik planlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining shahar hududidagi obyektlarning manzillarini belgilash yoki o‘zgartirish haqidagi qarorlari asosida — shahar hududidagi manzillar reestri;

- belgilangan tartibda tasdiqlangan shaharsozlik dasturlari, infratuzilmani rivojlantirish, madaniy meros yodgorliklari va tabiiy obyektlarni muhofaza qilish, hududni ko‘kalamzorlashtirish, obodonlashtirish hamda muhofaza qilish sxemalari va loyihalari, davlat investitsiya dasturlari va loyihalari;

- shaharsozlik davlat kadastro ma’lumotlari asosida — boshqa shaharsozlik hujjatlari, loyiha hujjatlari materiallari, qurilish uchun ruxsatnomalar, shaharsozlik reglamentlari, qurilishi tugallangan hamda foydalanish uchun qabul qilingan obyektlar va boshqa shaharsozlik hujjatlari;

- qizil chiziqlar va qurilishlarni tartibga solish chiziqlari;

- shaharsozlik davlat kadastro ma'lumotlari, tegishli shaharsozlik hujjatlari, ekologik, gidrometeorologik, radiologik, sanitariya-gigienaga oid hamda boshqa tadqiqotlar va qidiruvlar ma'lumotlari asosida — ayrim hududlar va yer uchastkalarining ekologik va muhandislik-geologik tavsiflari, ularda shaharsozlik reglamentlari va cheklovlarni inobatga olgan holda shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish imkoniyati;

- boshqa davlat kadastrlarining va axborot tizimlarining hududlardan foydalanish, shahar hududini ekologik, muhandislik-geologik, seysmik, gidrogeologik va boshqalarga oid mintaqalarga bo'lish bo'yicha axborot resurslari;

- hududiy rejalashtirish, shaharsozlik, yer tuzish va boshqa sohadagi normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlar kiritiladi.

Hududlar davlat kadastrini yuritish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarning tarkibi, mazmuni, formatlari, taqdim etish davriyiligi va tartibi Davyergeodezkadastr qo'mitasi tomonidan hududlar davlat kadastrining bazaviy subyektlari bilan kelishgan holda belgilanadi.

Davlat kadastrlari, geodeziya va kartografiya milliy markazi, hududiy yer tuzish va ko'chmas mulk kadastro davlat korxonalari hududlar davlat kadastrini yuritishning tegishli darajalarida quyidagilarni amalga oshiradi:

- kadastrni bazaviy subyektlari bilan o'zaro hamkorlik qilish va ulardan kadastr axborot tizimining ma'lumotlar bazasida ro'yhatdan o'tkazilishi, hisobga olinishi hamda kiritilishi lozim bo'lgan axborotni doimiy qabul qilib olish;

- olingan ma'lumotlar va hujjatlarni dastlabki qayta ishslash, ularni nazorat qilish va tizimlashtirish hamda ularni kadastr axborot tizimining ma'lumotlar bazasiga kiritish;

- hududlarning davlat kadastro axborot tizimi hamda geoportallarining texnik va dasturiy vositalariga xizmat ko'rsatish;

- axborotni saqlash va arxivlashtirish tizimiga xizmat ko'rsatish;

- boshqa davlat kadastrlari, reestrlar va axborot tizimlari bilan axborot almashish;

- qonun hujjatlariga muvofiq axborotni undan ruxsatsiz foydalanishdan muhofaza qilish tadbirlari;
- qonun hujjatlariga muvofiq intellektual mulkni muhofaza qilish tadbirlari;
- Davyergeodezkadastr qo‘mitasi tomonidan vakolatli vazirliklar va idoralar bilan kelishgan holda belgilangan tartibda kadastr hujjatlarini shakllantirish va uni manfaatdor foydalanuvchilarga berish;
- hududdan, yerdan va boshqa tabiiy va xo‘jalik resurslaridan foydalanishning holati, ushbu hududda joylashgan turli obyektlarning holati va o‘zgarishlari to‘g‘risidagi axborotni umumlashtirish va tahliliy hisobotlar tuzish;
- hududlar davlat kadastr axborot resurslari to‘g‘risidagi metama’lumotlar bazasini tashkil etish va yuritish, hududlar davlat kadastrining ochiq axborot resurslarini shakllantirish hamda geoportallar tarmog‘ida ulardan foydalanish;
- foydalanuvchilarning so‘rovlariga javoban hududlarning davlat kadastr axborot tizimi ma’lumotlar bazasining axborot resurslaridan ruxsat berilgan foydalanish chegaralaridagi kadastr ma’lumotnomalarini shakllantirish;
- tegishli darajadagi hududlarning davlat kadastr axborot resurslarini tasarruf qiluvchi tomonidan tasdiqlangan ro‘yhatga muvofiq foydalanuvchilarning alohida toifalariga hududlar davlat kadastr axborot resurslaridan ruxsat berilgan holda to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanishni ta’minlash tadbirlari;
- kadastrni yuritish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar va metodik hujjatlarni ishlab chiqish hamda joriy etish;
- kadastrni yuritish vositalarini rivojlantirish va joriy etish;
- kadastrda saqlanadigan axborot ochiq hisoblanadi va undan hamma foydalanishi mumkin, tarkibida foydalanish cheklangan axborot bor bo‘lgan ma’lumotlar bundan mustasno;
- Hududlar davlat kadastrida saqlanadigan axborotni muhofaza qilish axborot munosabatlarining tegishli subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Kadastrning davlat mulki yoki davlat yoxud tijorat siri hisoblangan axborotidan foydalanishga cheklolvar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda belgilanadi.

Hududlar davlat kadastrida saqlanadigan va foydalanishga cheklovlar bo‘lmasdan axborot:

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, hududlar davlat kadastrining boshqa bazaviy subyektlariga — hududlarning davlat kadastro axborot resurslaridan ruxsat berilgan holda to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanish huquqini berish yo‘li bilan muntazam (doimiy) asosda;

- manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarga — so‘rov bo‘yicha besh kun ichida, shuningdek tegishli darajadagi hududlarning davlat kadastro axborot resurslarini tasarruf qiluvchi tomonidan tasdiqlangan foydalanuvchilarning alohida toifalari ro‘yhatiga muvofiq hududlar davlat kadastro axborot resurslaridan ruxsat berilgan holda to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanish;

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, hududlar davlat kadastrining boshqa bazaviy subyektlariga — to‘lovlardan undirilmamasdan;

- manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarga — haq to‘lash evaziga beriladi. To‘lov miqdori, muddatlari va tartibi belgilangan tartibda Davyergeodezkadastr qo‘mitasi tomonidan belgilanadi.

Hududlar davlat kadastrini yuritish uchun taqdim etilgan ma’lumotlarni to‘g‘riliqi uchun ushbu ma’lumotlarni taqdim etish vakolatiga kiradigan vakolatli tashkilotlar va mansabdar shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar. Yuridik va jismoniy shaxslar hududlarning davlat kadastro davlat axborot resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanishdagi shartlar:

- axborotni hujjatlashtirish, shakllantirish, undan foydalanish hamda davlat axborot resurslaridan foydalanishni tashkil qilish tartibi va talablariga rioya qilish;

- davlat axborot resurslarining axborot xavfsizligini ta’minlash;

- davlat axborot resurslarini shakllantirishda va ularning faoliyat yuritishini ta’minlashda litsenziyalari dasturiy hamda sertifikatsiyalangan texnik vositalardan foydalanishga majburdir.


Yuridik va jismoniy shaxslar hududlarning davlat kadastroi davlat axborot resurslarini shakllantirishda va ulardan foydalanishda qonun hujjalari muvofiq boshqa majburiyatlariga ham ega bo'lishlari mumkin.

Yuridik va jismoniy shaxslar hududlarning davlat kadastroi axborot resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanishda:

- axborot bilan ishslash, davlat axborot resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish qoidalari buzganligi;
- davlat axborot resurslaridagi axborot o'g'irlaganligi, yo'qotilganligi, buzilganligi, blokirovka qilganligi va qalbakilashtirilganligi;
- mualliflik huquqlari va intellektual mulk to'g'risidagi qonun hujjalari buzilganligi uchun javob beradilar.

Yuridik va jismoniy shaxslar hududlarning davlat kadastroi axborot resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanishda qonun hujjalari muvofiq boshqa jihatlar yuzasidan ham javob berishlari mumkin.

1. Bazaviy subyektlar hududlar davlat kadastroi tizimiga berish uchun axborotlarini to'playdilar, yangilaydilar, qayta ishlab chiqadilar, saqlaydilar;
2. Davyergeodezkadastr qo'mitasining hududiy yer tuzish va ko'chmas mulk kadastroi davlat korxonalari axborot resurslarini bazaviy subyektlardan oladilar, viloyatlar, tumanlar va shaharlar darajasida hududlar davlat kadastroi axborot resurslariga kiritadilar, respublika darajasidagi hududlar davlat kadastroi axborot resurslari bilan xamkorlikda ish olib boradilar;
3. Davlat kadastrlari, geodeziya va kartografiya milliy markazi respublika darajasida hududlar davlat kadastroi axborot resurslarini yuritadilar, hududiy yer tuzish va ko'chmas mulk kadastroi davlat korxonalari axborot resurslari bilan hamkorlikda ish olib boradilar;
4. Davlat kadastrlari, geodeziya va kartografiya milliy markazi DKYAT va Milliy geoaxborat tizimi axborot resurslari bilan xamkorlikda ish olib boradilar;
5. DKYAT va Milliy geoaxborat tizimi hududlar davlat kadastroi axborot resurslari bilan xamkorlikda ish olib boradilar;



*) Strelkalar bilan kadastr axboroti harakati yo 'nalishlari belgilangan.

21-rsam. Hududlar davlat kadastrini yuritish sxemasi

6. Iqtisodiyot vazirligi va joylardagi davlat hokimiyati organlari hududlar davlat kadastro axborot resurslaridan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ruxsat etilgan miqdorda foydaladilar;

7. Foydalanuvchilar hududlar davlat kadastro axborot resurslaridan so‘rov bo‘yicha axborotlarini olishi mumkin.

5.2. QO'RIQLANADIGAN TABIIY HUDUDLAR DAVLAT KADASTRI



Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat kadastro O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan Fanlar akademiyasi ishtirokida yuritiladi va tabiiy muhitning muhofaza etiladigan toifalariga kiritilgan obyektlari bo'yicha bixillashtirilgan ma'lumotlar to'plamidan iborat bo'ladi, u O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari yagona tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat kadastro ana shunday hududlar tarmoqlarini rejalashtirish, ularni muhofaza qilishni ta'minlash, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, tegishli tartibga rioya qilinishi ustidan davlat nazorati darajasini oshirish, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning asosiy tavsiflari bilan tezkorlik bilan tanishish, shuningdek ularning ishlab chiqaruvchi kuchini va joylashtirishni rivojlantirishdagi rolini hisobga olish uchun mo'ljallangan.

Quyidagilar muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat kadastrini hisobga olish obyektlari hisoblanadi:

- davlat qo'riqxonalari, kompleks (landshaft) zakazniklar, tabiiy bog'lar, davlat tabiat yodgorliklari, tabiat pitomniklari, tabiiy kurort hududlari, dam olish hududlari, suvni muhofaza qilish zonalari va qirg'oqbo'yi polosalari, yer usti va yer osti suvlari hosil bo'ladigan hududlar (daryo vodiylari, surilma konuslari, tog'

etaklari) baliqchilik xo'jaligi hududlari, alohida tabiiy resurslarni boshqarish uchun hududlar, davlat biosfera rezervatlari hamda qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalar bilan muhofaza etiladigan toifaga kiritilgan boshqa tabiiy hududlar.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar o'zining faoliyat ko'rsatish maqsadi va rejimiga ko'ra quyidagi toifalarga bo'linadi:

- davlat qo'riqxonalari;
- kompleks (landshaft) zakazniklar;
- tabiiy bog'lar;
- davlat tabiat yodgorliklari;
- alohida tabiiy obyektlar va komplekslarni saqlash, ko'paytirish va tiklash uchun hududlar;

- muhofaza etiladigan landshaftlar;
- alohida tabiiy resurslarni boshqarish uchun hududlar.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar bo'y sunishi, muhimligi, shuningdek tabiiy obyektlarning noyobligiga ko'ra mahalliy va umum davlat ahamiyatiga ega bo'lishi mumkin. Faqat qonunchilikda belgilangan tartibda tashkil etilgan obyektlargina ro'yhatdan o'tkaziladi va muhofaza etiladigan tabiiy hududlar kadastriga kiritiladi. Obyektlarni kadastrga kiritish uchun zarur bo'ladigan hujjatlar ro'yhati Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat kadastr ushbu hududlarning huquqiy maqomi va tartibi, ularni geografik holati, miqdori va sifatiga oid tavsiflari, ekologik, ilmiy, ma'rifiy, tarixiy va boshqa qiymatlari, idoraviy mansubligi, yer egalari va yerdan foydalanuvchilar, shuningdek hisobga olingan har bir obyekt bo'yicha ushbu hududlardagi tabiiy resurslardan foydalanish xarakteri to'g'risidagi ma'lumotlardan iborat bo'ladi.

Kadastr hujjatlari kartografiya, fotografiya, hisobot, hisobga olish materiallarini va boshqa materiallarni, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning holati to'g'risidagi, kadastr shakllarini tuzishda hisobga olinadigan ma'lumotlarni

o‘z ichiga oladi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar kadastro quyidagi asosiy shakllarni o‘z ichiga oladi:

1-shakl (yig‘ma) - "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar ro‘yhati";

2-shakl - "Davlat qo‘riqxonalari, kompleks (landshaft) zakazniklar, tabiiy bog‘lar, davlat biosfera rezervatlarining yer-suv resurslari";

3-shakl - "Davlat qo‘riqxonalari, kompleks (landshaft) zakazniklar, tabiiy bog‘lar, davlat biosfera rezervatlarining o‘simglik dunyosi";

4-shakl - "Davlat qo‘riqxonalari, kompleks (landshaft) zakazniklar, tabiiy bog‘lar, davlat biosfera rezervatlarining hayvonot dunyosi";

5-shakl - "Davlat tabiat yodgorliklarini, alohida tabiiy obyektlar va komplekslarni saqlash, ko‘paytirish va tiklash uchun hududlarni umumiy tavsifi";

6-shakl - "Muhofaza etiladigan landshaftlarni, alohida tabiiy resurslarni boshqarish uchun hududlarning umumiy tavsifi";

7-shakl - "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tabiatni muhofaza qilish faoliyatining asosiy natijalari".

Shakllarning tuzilishi va mazmuni Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan belgilanadi.

7-shakldan tashqari, barcha shakllar bo‘yicha ma’lumotlar tuman ("T" literli shakl), viloyat ("V" literli shakl) va respublika (litersiz shakl) darajasida ishlab chiqiladi. 7-shakl bo‘yicha ma’lumotlar faqat tuman darajasidagina beriladi. Barcha shakllarga (tuman, viloyat va respublika darajasida) muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning hozirgi holati va uning o‘zgarishi darajasi tahlil qilingan holdagi qisqacha izohnoma beriladi.

Tuman darajasida - muhofaza etiladigan tabiiy hududlar kadastro tarkibiga "T" literi bilan barcha shakllar bo‘yicha ma’lumotlar, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar rahbarlarining hisobotlari, tadqiqotlar, izlanishlar materiallari, hisobga olish ma’lumotlari va boshqa birlamchi kadastr hujjatlari kiritiladi.

Viloyat darajasida - alohida "muhofaza etiladigan tabiiy hududlar kadastro tarkibiga "T" va "V" literlari bilan barcha shakllar bo‘yicha ma’lumotlar kiritiladi.

Respublika darajasida - muhofaza etiladigan tabiiy hududlar kadastro tarkibiga "V" literi bilan va litersiz barcha shakllar bo'yicha ma'lumotlar kiritiladi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar kadastro Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining uchchala darajalardagi organlari tomonidan yuritiladi:

- tuman (shahar) darajasida - tuman ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish inspeksiyasi tomonidan;
- viloyat (Qoraqalpog'iston Respublikasi) darajasida - Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmalarining inspeksiya xizmati tomonidan;
- respublika darajasida - Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'miasi respublika inspeksiya xizmati tomonidan.

3 va 4-shakllar bo'yicha ma'lumotlarni tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ishtirok etadi.

Yer osti chuchuk suvlari manbalarining hamda noyob va qimmatbaxo metallar konlari va nishonalarining shakllanish hududlari bo'yicha kadastr ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'miasi tomonidan tuziladi. Belgilangan shakldagi yakuniy ma'lumotlar umumiyligida kadastrga kiritish uchun nazarda tutilgan muddatlarda Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga taqdim etiladi.

Kadastr tadrijiy ravishda yuritiladi, shakllar bo'yicha ma'lumotlar, hisobot yildan keyingi yilning 1 yanvaridagi holat bo'yicha, har yili bir marta taqdim etiladi. Tuman darajasida - 2-t, 3-t, 4-t, 5-t, 7-t shakllari bo'yicha ma'lumotlar (hisobotlar) tuman (shahar) Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish (obyekt joylashgan erdagi) inspeksiyasiga muhofaza etiladigan hududlar rahbarlari tomonidan hisobot yildan keyingi yilning 1 fevraligacha taqdim etiladi. (O'zR VM 01.04.2005 y. 95-son Qarori taxriridagi xat boshi). 6-t va 7-t shakllari bo'yicha ma'lumotlar yerkuniy hisobga olish hujjatlari asosida tuman tabiatni muhofaza qilish inspeksiyasi tomonidan tayyorlanadi.

Tuman inspeksiyalari taqdim etilgan ma'lumotlar (hisobotlar)ni to'g'rilib qilinani aniqlaydilar, tuman (shahar) bo'yicha muhofaza etiladigan tabiiy hududlar

ro‘yhatini tuzadilar (1-t yig‘ma shakl) barcha kadastr materiallarini tuman hokimligi bilan kelishib oladilar va 1-t, 2-t, 3-t, 4-t, 5-t, 6-t, 7-t shakllari bo‘yicha 1 martgacha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmalariga taqdim etadilar.


Viloyat darajasida - olingan materiallar viloyat inspeksiya xizmati tomonidan umumlashtiriladi va tahlil qilinadi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan kelishib olinadi hamda 1 aprelgacha 1-“V”, 2-“V”, 3-“V” 4-“V”, 5-V”, 6-“V” shakllari bo‘yicha Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasiga jo‘natiladi.

Respublika darajasida - muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat kadastro Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining "Boshersuvnazorat" boshqarmasi tomonidan yuritiladi.

1. Tuman (shahar) Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish inspeksiysi Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar bo‘yicha kadastr axborotlarini to‘playdi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasining inspeksiya xizmatilariga taqdim etadi.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmalarining inspeksiya xizmatilari hamda Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining respublika inspeksiya xizmati ("Boshersuvnazorat" boshqarmasi) Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar bo‘yicha kadastr axborotlarini umumlashtiradilar va Davyergeodezkadastr qo‘mitasining DKYAT ma’lumotlar bazasiga beradi.

3. Vakolatli tashkilotlar - O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi "Boshersuvnazorat" boshqarmasi va boshqalar so‘rovi bo‘yicha Davyergeodezkadastr qo‘mitasining DKYAT ma’lumotlar bazasidan Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar bo‘yicha kadastr axborotlarini olishlari mumkin.



* Strelkalar bilan kadastr axboroti harakati yo'nalishlari belgilangan.

22-rasm. Muhofaza etiladigan hududlar davlat kadastrini yuritish sxemasi

4. DKYATdan foydalanuvchilar so'rov bo'yicha Davyergeodezkadastr qo'mitasining DKYAT ma'lumotlar bazasidan Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar bo'yicha kadastr axborotlarini olishlari mumkin.

5.3. ТАБИЙ ХАВФ ЮҚОРИ БЎЛГАН ЗОНАЛАР ДАВЛАТ КАДАСТРИ



Tabiiy xavf yuqori bo‘lgan zonalar davlat kadastrini yagona tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi va tizimli kuzatishlar, tadqiqotlar hamda axborotlar to‘plash natijalari bo‘yicha tayyorlanadigan, doimo yangilab boriladigan va zarurat bo‘lganda aniqlashtiriladigan tabiiy xavfi yuqori bo‘lgan zonalarning unifikatsiya qilingan tavsiflari va tasvirlari, har yili ro‘y beragan xavfli tabiiy hodisalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar to‘plamidan iborat bo‘ladi.

Tabiiy xavfi yuqori bo‘lgan zonalar davlat kadastrini obyektlarini hisobga olishni, ularning holatini va ro‘y beragan xavfli tabiiy (geologik, gidrometeorologik) jarayonlar (hodisalar) oqibatlarini baholashni ta’minlash maqsadida yuritiladi.

- Tabiiy xavfi yuqori bo‘lgan zonalar davlat kadastrini yuritish quyidagi vakolatli organlar tomonidan:

- Davlat geologiya qo‘mitasining "O‘zbekgidrogeologiya" davlat geologiya korxonasi - xavfli geologik jarayonlar ro‘y beradigan zonalar bo‘yicha;
- O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Seysmologiya instituti - seysmik xavf yuqori bo‘lgan zonalar bo‘yicha;

- Favqulotda vaziyatlar vazirligi huzuridagi "O'zgidromet" markazi - gidrometeorologiya hodisalari xavfi yuqori bo'lgan zonalar bo'yicha amalga oshiriladi.

Tabiiy xavf yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastrini yuritish:

- kadastr axborotlarini toplash, tizimlashtirish, saqlash, hisobga olish va baholash;

- Davlat kadastrlari yagona tizimiga kiritish uchun har yilgi axborot hisobotlarini tuzish;

- foydalanuvchilarni Tabiiy xavf yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastro bo'limlarini yuritish bo'yicha vakolatli vazirliklar va idoralar tomonidan belgilangan tartibda kadastr axborotlari bilan ta'minlash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Kadastr obyektlarini hisobga olish to'g'risidagi, har yili ro'y bergan xavfli tabiiy jarayonlar, ularning miqdor va sifat tavsiflari, xavfli tabiiy jarayonlar (hodisalar) oqibatlari to'g'risidagi muntazam ravishda yangilab va to'ldirib boriladigan ma'lumotlar:

- xavfli geologik jarayonlar ro'y beradigan zonalarda - zilzilalar, ko'chkilar, yemirilishlar, cho'kishlar, o'pirilishlar, suffoziyalar, karstlar va boshqalar;

- gidrometeorologiya hodisalari xavfi yuqori bo'lgan zonalarda - suv toshqinlari, sellar, qor ko'chkilari, kuchli shamollar, jalalar, qurg'oqchilik, suv bosishi va boshqalar tabiiy xavf yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastrining asosini tashkil qiladi.

Quyidagilar Tabiiy xavf yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastrining asosiy prinsiplari hisoblanadi:

- O'zbekiston Respublikasining butun hududini qamrab olish;
- koordinatlar yagona tizimi va topografiya asoslarini qo'llanishi;
- hisobga olish yagona tizimini, kadastr axborotlarini ishlash va taqdim etish metodikasini qo'llanishi;
- avtomatlashtirilgan geoaxborot texnologiyalarini qo'llanishi;

- ma'lumotlarning ishonchliligi va ko'rgazmaliligi, kadastr axborotlarini har yili to'ldirib va yangilab borilishi;
- kadastr axborotlarining ochiqligi.

Tabiiy xavf yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastrini yaratish va yuritish bilan bog'liq ishlar tegishli vazirliklar va idoralarga maqsadli foydalanish uchun ajratiladigan davlat byudjeti mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladi.

Quyidagilar tabiiy xavfi yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastri obyektlari hisoblanadi:

- xavfli geologik jarayonlar ro'y beradigan zonalar bo'yicha - zona (daryolar havzasi) elementlari - xavfli geologiya jarayonlari rivojlanadigan kichik zonalar (soy havzasi), uchastkalar;
- seysmik xavfi yuqori bo'lgan zonalar bo'yicha - zilzila markazlari paydo bo'lishi muqarrar zonalar (seysmogen zonalar) va turlicha toifadagi seysmik ta'sir zonalar;
- gidrometeorologiya hodisalari xavfi yuqori bo'lgan zonalar bo'yicha - xavfli gidrometeorologiya hodisalari ro'y berish zonalari (daryolar havzasi), ular elementlari va xavfli gidrometeorologiya hodisalari rivojlanadigan kichik zonalar.

Quyidagilar hisobga olishning boshlang'ich hududiy birligi hisoblanadi;

- xavfli geologik jarayonlar ro'y beradigan zonalar bo'yicha - 1000 m³dan ortiq hajmli xavfli geologiya jarayonlarining nomuntazam ro'y berishi. Shuningdek kadastr obyektlari doirasida xavfli geologiya jarayonlariga har yili duch keladigan maydon ham hisobga olinadi. Grafik hisobga olish tegishli shartli belgilardan foydalangan holda 1:25000 va 1:200000 masshtabli topografiya xaritalarida amalga oshiriladi;

- seysmik xavf yuqori bo'lgan zonalar bo'yicha - zilzilalar ro'y beradigan zona va 25 km² maydondagi turlicha toifada ta'sir ko'rsatish zonasini hududi. Shuningdek seysmogen zonadan tashqarida yoki seysmik xavfi ancha past bo'lgan zonada zilzila ro'y berganda seysmik xavfning yuqori toifasiga o'tadigan maydonlar ham hisobga olinadi. Seysmik xavfli zonalarni tasvirlash uchun kartografik materiallar belgilangan shartli belgilardan foydalangan holda

1:1000000 yoki 1:500000 va 1:200000 (ayrim hududlar uchun) masshtabda tuziladi;

- gidrometeorologiya hodisalari xavfi yuqori bo‘lgan zonalar bo‘yicha - xavfli gidrometeorologiya hodisalari sodir bo‘ladigan zona hududi, daryo havzasi (yuqori, o‘rta, quyi oqim), tog‘ massivi (yonbag‘ir ekspozitsiyasi). Xavfli gidrometeorologiya zonalarini tasvirlash uchun kartografik materiallar belgilangan shartli belgilardan foydalangan holda 1:1 000 000 yoki 1:500 000 va 1:200000 (ayrim hududlar uchun) masshtabda tuziladi.

Tabiiy xavf yuqori bo‘lgan zonalar davlat kadastro ma’lumotlari tarkibiga quyidagilardan iborat bo‘lgan hisobga olish va baholash axborotlari kiradi:

1) xavfli geologik jarayonlar ro‘y beradigan zonalar bo‘yicha:

- kadastr obyekti (xavfli geologik jarayonlar ro‘y berish zonasini) va kadastr obyekti elementlarini (kichik zona va uchastka) nomi;
- kadastr nomeri (soy havzasi, xavfli geologiya jarayonlari - xavfli geologik jarayonlar rivojlanish uchastkasi);
- kadastr obyektining, rivojlanishi mumkin bo‘lgan va har yili xavfli geologik jarayonlar bilan zararlanadigan maydon hajmi;
- joylashgan o‘rni (xavfli geologik jarayonlar ro‘y bergen joy, ma’muriy manzili, koordinatlari);
- xavfli geologik jarayonlarning rivojlanish turlari (ko‘chkilar, o‘pirilishlar, cho‘kishlar, yemirilishlar, suffiziylar va karstlar);
- xavfli geologiya jarayonlari ro‘y berish zonasida joylashgan obyektlar ro‘yhati;
- xavfli geologiya jarayonlari etkazgan zarar to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- xavfli geologiya jarayonlari ro‘y berish zonalarining 1:25000 masshtabdagi kadastr xaritalari (hisobdagisi, operativ) hamda qog‘oz va elektron manbalardagi 1:200000 masshtabli kadastr obyektlari xaritalari;

2) seysmik xavf yuqori bo‘lgan zonalar bo‘yicha:

- kadastr obyektining nomi - turlicha toifali seysmik xavfli zonalar, kadastr obyekti elementlari - seysmogen zonalar, toifalar bo‘yicha tabaqlashtirilgan

seysmik ta'sirning seysmogenlararo maydonlari, kuchli zilzilalar markazi (pleystoseyst) hududlari;

- seysmogen zonalarning, seysmik xavfi toifalari bo'yicha seysmik ta'sirning seysmogenlararo maydonlari kadastr nomeri;

- seysmogen zonalarning va seysmik ta'sir zonalarining xarakterli ta'sirlari (kengligi va uzunligi) bilan belgilanadigan kadastr obyekti hajmi;

- yuqori seysmik xavfning rivojlanish turlari (seysmogen zonalar doirasida kuchli zilzilalarning takrorlanuvchanligi, muayyan maydonda silkinishlar takrorlanuvchanligining muqarrarlik bahosi);

- yuqori seysmik xavf zonalaridagi obyektlar ro'yhati;

- yuqori seysmik xavf yetkazgan zarar to'g'risidagi ma'lumotlar (ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik);

- ayrim hududlar uchun tabiiy xavf yuqori bo'lgan seysmik zonalarning 1:1000000, 1:500000, 1:200000 masshtabli qog'oz va elektron manbalardagi kadastr xaritalari;

3) gidrometeorologiya hodisalari xavfi yuqori bo'lgan zonalar bo'yicha:

- kadastr obyektini (gidrometeorologiya hodisalarining yuqori xavfli zonalari, daryolar havzasasi, tizmatog' yonbag'irlari, kotlovina) va kadastr obyekti elementlari (kichik zona - soy havzasasi, yonbag'ir joylashuvi, gidrometeorologiya xavfining ro'y berish uchastkasi) nomi;

- kadastr nomeri (daryo va soy havzasasi, tizmatog' yonbag'ri, kotlovina bo'yicha);

- joylashgan o'rni (ma'muriy manzili, xavfli gidrometeorologiya hodisasi ro'y berish uchastkasi);

- xavfli gidrometeorologiya hodisasining turlari (tavsifi);

- paydo bo'lishining asosiy sabablari;

- xavfli gidrometeorologiya hodisalarining ro'y berish zonasida joylashgan obyektlar ro'yhati;

- xavfli gidrometeorologiya hodisalari yetkazgan zarar to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

- xavfli gidrometeorologiya hodisalari ro‘y berish zonalarining qog‘oz va elektron manbalardagi 1:25000, 1:200000 masshtabli kadastr xaritalari.

Tabiiy xavf yuqori bo‘lgan zonalar davlat kadastrini har yili baholash mazmuni quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- yer yuzasining amalda zararlanishini baholash;
- xavfli tabiiy jarayonlar va hodisalar ro‘y berishi intensivligini baholash;
- xavfli tabiiy jarayonlar va hodisalar ro‘y berishidan ijtimoiy, moddiy va ekologik sohalarda ko‘rilgan zararni baholash.

Quyidagilar kadastr hujjatlarining asosiy turlari hisoblanadi:

- obyektning kadastr ishi (tabiiy xavf yuqori zona pasporti);
- kadastr xaritalari (1:25000 masshtabli hisob xaritalari, 1:200000 masshtabli seysmik rayonlashtirish kadastr xaritalari, (OSR, DSR) va seysmogen zonalarning 1:1000000, 1:500000, 1:200000 masshtabli xaritalari);
- kadastr daftari (boslang‘ich kadastr axborotlari shakllari);
- kadastr obyektlarining holati to‘g‘risidagi hisobot.

Kadastr hujjatlari qog‘oz, elektron va boshqa manbalarda tuziladi.

Tabiiy xavfi yuqori bo‘lgan zonalar davlat kadastri bo‘yicha ma’lumotlar Davyergeodezkadastr qo‘mitasiga kelishilgan shakl bo‘yicha vakolatli organlar tomonidan har yili hisobot yildan keyingi yilning 1 yanvarigacha bo‘lgan holatga ko‘ra beriladi.

Xavfli geologik jarayonlar ro‘y beradigan zonalar bo‘yicha Davlat geologiya qo‘mitasi Davyergeodezkadastr qo‘mitasiga DKYAT ma’lumotlar bazasiga kiritish uchun ro‘y bergen xavfli geologik jarayonlar to‘g‘risida quyidagi yig‘ma axborotlarni taqdim etadi:

- xavfli zonalarning nomi;
- xavfli geologiya jarayonlari ro‘y beradigan zonalar va zararlanishi mumkin bo‘lgan maydonlarning hajmlari;


- joylashgan o‘rni (sodir bo‘lgan joy: viloyat, tuman, koordinatlar, egallagan maydoni);
- xavfli geologiya jarayonlari rivojlanishining eng ko‘p turi;
- xavfli geologiya jarayonlari ta’sir ko‘rsatadigan zonada joylashgan obyektlar ro‘yhati;
- xavfli geologiya jarayonlari ro‘y berish zonalarining 1:200000 masshtabli joylashish sxemasi.

Seysmik xavf yuqori bo‘lgan zonalar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Seysmologiya instituti Davyergeodezkadastr qo‘mitasiga DKYAT ma’lumotlar bazasiga kiritish uchun hududning seysmik xavfliligi to‘g‘risida quyidagi yig‘ma axborotlarni taqdim etadi:

- seysmik xavfli zonalarning nomi;
- seysmik xavfli zonalarning makondagi holati va xarakterli hajmlari;
- seysmik xavflilikning eng ko‘p turi (paydo bo‘lish zonalari, silkinish zonalari, har xil turdagи seysmik joylashuv holati);
- zilzilalar katalogi;
- kuchli zilzilalar markazlari (pleystoseyst);
- seysmogen zonalar va seysmik silkinishlar ta’sir ko‘rsatadigan zonalarning 1:1 000 000 masshtabli hamda ayrim hududlar uchun 1:500 000, 1:200000 masshtabli joylashish xaritalari.

Gidrometeorologiya hodisalari xavfi yuqori bo‘lgan zonalar bo‘yicha "O‘zgidromet" markazi Davyergeodezkadastr qo‘mitasiga DKYAT ma’lumotlar bazasiga kiritish uchun xavfli gidrometeorologiya hodisalari paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan zonalar to‘g‘risida quyidagi yig‘ma axborotlarni taqdim etadi:

- xavfli zonalarning nomi;
- joylashgan o‘rni (viloyat, tuman);



**) Strelkalar bilan kadastr axboroti harakati yo'nalishlari belgilangan.*

23-rasm. Tabiiy xavf yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastrini yuritish sxemasi

- gidrometeorologiya hodisalarining eng ko‘p turi;
- xavfli gidrometeorologiya hodisalarining vujudga kelish zonalarining va zararlanishi mumkin bo‘lgan maydoni;
- 1:200 000 mashtabli kadastr xaritalari (xavfli gidrometeorologiya hodisalari paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan zonalar hisobi);
- xavfli gidrometeorologiya hodisalari ta’sir ko‘rsatadigan zonada joylashgan obyektlar ro‘yhati.

1. Hududiy bo‘linmalar va vakolatli tashkilotlar xizmatlari TXYUZ bo‘yicha kadastr axborotlarini to‘playdi.

2. Vakolatli tashkilotlar - Davlat geologiya qo‘mitasining "O‘zbekgidrogeologiya" DGK, Fanlar akademiyasining Seysmologiya instituti,

"O'zgidromet" markazi Tabiiy xavf yuqori bo'lgan zonalar (TXYUZ) bo'yicha kadastr axborotlarini umumlashtiradilar va Davyergeodezkadastr qo'mitasining DKYAT ma'lumotlar bazasiga beradi.

3. Vakolatli tashkilotlar - Davlat geologiya qo'mitasining "O'zbekgidrogeologiya" DGK, Fanlar akademiyasining Seysmologiya instituti, "O'zgidromet" markazi so'rov bo'yicha Davyergeodezkadastr qo'mitasining DKYAT ma'lumotlar bazasidan TXYUZ bo'yicha kadastr axborotlarini olishlari mumkin.

5.3. TEXNOGEN XAVF YUQORI BO'LGAN ZONALAR DAVLAT KADASTRI



Texnogen xavfi yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastro Davlat kadastrlari yagona tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi va tizimli kuzatishlar, o'lchashlar, tadqiqotlar hamda axborotlar to'plash natijalari bo'yicha tayyorlanadigan texnogen xavfi yuqori bo'lgan zonalarning unifikatsiya qilingan qisqacha tavsiflari va tasvirlari to'plamidan iborat bo'ladi. Kadastr obyektlarini hisobga olishni, ularning holatini va ro'y bergan xavfli texnogen hodisalar oqibatlarini baholash maqsadida yuritiladi.

Texnogen xavf yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastrini yuritish texnogen xavf yuqori bo'lgan zonalarni xatlovdan o'tkazish, uning tavsiflari va

parametrlarini baholash, kadastr axborotlarini hujjatlashtirish, hisobga olish hamda undan texnogen avariylar va halokatlarni oldini olish bo'yicha profilaktika va ogohlantirish choralarini o'z vaqtida va samarali amalga oshirish. Ular vujudga kelgan taqdirda esa - tezkorlik bilan mahalliylashtirish va bartaraf etish orqali ta'minlanadi.

Texnogen xavf yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastri obyektlari bo'lib, O'zbekiston Respublikasining "Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq belgilangan xavfli ishlab chiqarish obyektlarida ro'y berishi mumkin bo'lgan texnogen hodisalar (yong'inlar, portlashlar, xavfli zararli moddalarni tashqariga chiqarish, binolar, inshootlar, texnik qurilmalar va shu kabilar) zonalari:

- radioaktiv moddalar va materiallar ishlab chiqariladigan, ulardan foydalaniladigan, ular qayta ishlanadigan, hosil bo'ladigan, saqlanadigan, tashiladigan, yo'q qilib tashlanadigan obyektlar;
- barcha turdag'i sanoat elektr qurilmalari qo'llanadigan obyektlar;
- gidrotexnika inshootlaridan, shu jumladan yirik korxonalar chiqindixonalari va tindirgichlaridan foydalaniladigan obyektlar;
- ionli nurlanishlar manbalaridan foydalaniladigan obyektlar;
- favqulodda vaziyatlarga (suv, gaz, issiqlik va elektr energiyasi ta'minotining to'xtab qolishiga, uy-joy massivlarini suv bosishiga, kanalizatsiya va suvni tozalash tizimlarining ishdan chiqishiga) olib keluvchi buzilishlar (zararlanishlar) sodir bo'lishi mumkin bo'lgan obyektlar hisoblanadi.

Texnogen xavf yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastrini yuritish quyidagi bo'linmalar tomonidan:

- ishlab chiqarish obyektlarida, portlash-yong'in chiqishi va radiatsiya xavfi mavjud bo'lgan obyektlarda avariya hollari sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yuqori xavfli zonalar, sanoat, konchilik va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishi bo'yicha davlat inspeksiyasi, uning tarmoq va mintaqaviy inspeksiyalarining Texnogen xavf yuqori bo'lgan zonalari bosh kadastr markazi;

- odamlarni evakuatsiya qilishni yoki ko'chirishni talab qiladigan xavf yuqori bo'lgan zonalar bo'yicha - O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining Texnogen xavfi yuqori bo'lgan zonalar kadastro markazi;
- portlash va yong'in chiqishi xavfi yuqori bo'lgan zonalar (obyektlar) bo'yicha – O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Davlat yong'in xavfsizligi xizmatining Texnogen xavf yuqori bo'lgan zonalar kadastro markazi;
- kuchli ta'sir qiluvchi zaharli ximikatlar, pestitsidlar, radioizotop buyumlar, radioaktiv va boshqa moddalarni ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash va ulardan foydalanish obyektlari bo'yicha – O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati respublika markazi va uning hududiy markazlari Texnogen xavfi yuqori bo'lgan zonalar kadastro markazi;
- yadro fizikasi korxonalarida radiatsiya xavfi yuqori bo'lgan zonalar bo'yicha – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutining Texnogen xavf yuqori bo'lgan zonalar kadastro markazi tomonidan amalga oshiriladi.

Texnogen xavf yuqori bo'lgan zonalar bosh kadastro markazi kadastrni yuritishni muvofiqlashtiradi. Quyidagilar Texnogen xavf yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastrini yuritishning asosiy prinsiplari hisoblanadi:

- Texnogen xavfi yuqori bo'lgan zonalarni to'la respublika butun hududida qamrab olishi;
- kadastr axborotlarining ishonchliligi, ko'rgazmaliligi va hujjatliligi;
- barcha obyektlar bo'yicha kadastr axborotlarini shakllantirish va ularni har yili yangilab borish metodologiyasining yagonaligi;
- fazoviy koordinatalari yagona tizimini va yagona topografik asosni qo'llanishi;
- kadastr axborotlarining ochiqligi.

Quyidagilar Texnogen xavfi yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastrining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- Texnogen xavfi yuqori bo'lgan zonalar to'g'risidagi axborotlarni to'plash, tahlil qilish, ishlash, hisobga olish, tizimlashtirish, saqlash, yangilab borish;

- Texnogen xavfi yuqori bo‘lgan zonalar pasportlarini tuzish va yuritish;
- kadastr daftarini yuritish, kadastr plan va xaritalarini tuzish;
- davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini, manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarni zarur kadastr axborotlari bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ta’minlash.

Kadastrni yuritish bo‘yicha ishlar davlat byudjeti mablag‘lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga moliyalashtiriladi. Kadastrni tegishli vakolatli organlarning rahbarlari tomonidan tasdiqlanadigan dasturlar va jadvallar asosida yuritiladi, ularda kuzatishlar, zonalarning boshlang‘ich va joriy kadastr axborotlarini to‘plash, ishslash, tadqiqotlar tartibi belgilanadi.

- Texnogen xavf yuqori bo‘lgan zonalar davlat kadastrini obyektlaridan foydalanuvchi tashkilotlar:

- obyektlarni identifikasiya qiladi;
- boshlang‘ich va joriy kadastr axborotlari hamda miqdori va sifat holati, iqtisodiy bahosi, atrof muhitga ta’sir ko‘rsatishidagi o‘zgarishlarni to‘plash va tizimlashtirishni amalga oshiradi;
- kadastr daftarini yuritadi, ma’lumotlar bazasini to‘ldiradi va tizimlashtiradi hamda texnogen xavf yuqori bo‘lgan zonalar davlat kadastrini Avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritish uchun ushbu kadastrni bosh markaziga beradi;
- texnogen xavfi yuqori bo‘lgan zonalar kadastr pasportlarini ishlab chiqadi;
- o‘zgarishlarni kadastr pasportlariga o‘z vaqtida kiritishni ta’minlaydi;
- texnogen xavfi yuqori bo‘lgan yangi zonalar hisobini yuritadi, ular to‘g‘risidagi axborotlarni to‘playdi.

Har qaysi texnogen xavfi yuqori bo‘lgan zonalar uchun "Sanoatgeokontexnazorat" davlat nazorati bilan kelishgan holda belgilangan namunadagi kadastr pasporti rasmiyalashtiriladi va tasdiqlanadi. Quyidagilar obyektning kadastr pasportini tuzish uchun boshlang‘ich ma’lumotlar hisoblanadi:

- kuzatishlar, o‘lchashlar va tadqiqotlar natijalari bo‘yicha olinadigan ma’lumotlar;

- sanitariya-texnika pasportlari, sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi, ishlab chiqarish-texnika, konstruktorlik, texnologik, foydalanish hujjatlari;
- Texnogen xavfi yuqori bo‘lgan zonalar to‘g‘risida korxonalar, tashkilotlar va boshqa rasmiy manbalardan olinadigan axborotlar.

Kadastr pasportlarini ishlab chiqqan vakolatli organlar 5 kun muddatda ulardan bir nusxadan:

- Texnogen xavfi yuqori bo‘lgan zonalar bosh kadastr markaziga;
- bosh kadastr markazining tegishli mintaqaviy bo‘linmasiga;
- Texnogen xavfi yuqori bo‘lgan zonalar kadastr markaziga;
- zonalar kadastr markazining tegishli mintaqaviy bo‘linmasiga taqdim etadi.

Texnogen xavfi yuqori bo‘lgan zonalar bosh kadastr markazi va zonalar kadastro markazi vakolati bo‘yicha kadastr pasportlarini tekshiradi hamda tegishli ro‘yhatdan o‘tkazish axborotlarini kadastr daftariga yozib qo‘yadi.

Bosh kadastr markazi har yili Davlat kadastrlari yagona tizimiga kiritish uchun hisobot yilidan keyingi yilning 1 martigacha Davyergeodezkadastr qo‘mitasiga zarur kadastr axborotlarini taqdim etadi. Kadastr ma’lumotlarini taqdim etish shakli va ularning hajmi "Sanoatgeokontexnazorat" davlat nazorati tomonidan va Davyergeodezkadastr qo‘mitasi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi. Quyidagilar Texnogen xavfi yuqori bo‘lgan zonalar davlat kadastrni (TXYUZDK) tarkibiy qismlari hisoblanadi:

- obyektlarni identifikatsiya qilish va Texnogen xavf yuqori hodisalar ro‘y berishi mumkin bo‘lgan zonalarni ro‘yhatdan o‘tkazish;
- zonalarni miqdor va sifat tavsiyalarini hisobga olish;
- zonalarni iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy baholash.

Texnogen xavfi yuqori bo‘lgan zonalarning kadastr axborotlari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- ro‘y berishi mumkin bo‘lgan turi ko‘rsatilgan holda kadastr obyektining nomi;
- zonalarning joylashgan o‘rnini;

- Texnogen xavfi yuqori hodisalarni vujudga keltiradigan obyektning idoraviy mansubligi va uni foydalanishga kiritilgan sanasi;
- obyektdan foydalanish maqsadi (agar xavf antropogen omillar ta'sirida vujudga kelsa va tabiiy hodisa bo'lmasa);
- obyektni hisobga olish sanasi;
- obyektning kadastr nomeri;
- zonalarda joylashgan obyektlarning ro'yhati;
- zonalarning hisobga olingan vaqtdagi holati;
- kartografik materiallari - Texnogen xavfi yuqori hodisa ro'y beragan va ro'y berishi mumkin bo'lgan ta'siriga uchragan zonalar tasvirlangan tegishli masshtabdagi topografik xaritalari.

Texnogen xavfi yuqori bo'lgan zonalarningning hisobga olinadigan axborotlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- obyektni xavflilik belgilari ro'yhati;
- obyektni texnologik asbob-uskunasi tavsifi;
- obyektlardagi xavfli moddalardan foydalanish to'g'risidagi ma'lumotlar;
- zarar yetkazadigan va buzuvchi omillar tavsiflari: ta'sirlarning kuchi, tezligi, hajmi, turkumligi, chastotasi, asosiy yo'nalishi va ro'y berish tezligi;
- inson salomatligiga va atrof tabiiy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar ro'yhati;
- sanitariya-muhofaza va qo'riqlash zonalari to'g'risidagi ma'lumotlar;
- inson faoliyati turlarini cheklash zarur bo'lgan uchastkalar chegaralari yoki masofalar to'g'risidagi ma'lumotlar;
- odamlarni evakuatsiya qilishni yoki ko'chirishni talab qiladigan zonalar tavsifi;
- Texnogen xavfi yuqori bo'lgan zonalar hududlaridan foydalanishni belgilangan rejimi, zonalarda ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyati, odamlarni yashash shart-sharoitlari;
- hodisalar ta'siriga uchragan obyektlar va inshootlar, ushbu obyektlarning buzilishi va shikastlanishi darajasi to'g'risidagi ma'lumotlar.

Texnogen xavf yuqori bo‘lgan zonalarni baholash ma’lumotlari quyidagilardan iborat:


- zonalarni o‘rganish bo‘yicha aerosuratga olishlar, gidrometeorologiya, muhandislik, geologiya, seysmik, texnologik, ekologik tadqiqotlar va boshqalar natijalari to‘g‘risidagi sinovdan o‘tkazilgan hisobotlar;
- avariylar xavfini va ro‘y berishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarni baholash xulosalari;
- sanitariya-gigiena sharoitlari to‘g‘risidagi, suv, havo, yer, ifloslantiruvchi (zararli) moddalar konsentratsiyalari holati to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- faoliyati texnogen xavfi yuqori hodisalar bilan bog‘liq bo‘lgan korxonalar tomonidan ro‘y bergan hodisalarni idoraviy tekshirishlar natijalari bo‘yicha xulosalar;
- zonalarni o‘rgangan (tekshirishgan) rasmiy komissiyalar va mutaxassislarning ekspert xulosalari;
- zonalardagi va ular yaqinidagi yer va suvdan foydalanish, u yerda turli maqsaddagi obyektlarni joylashtirish imkoniyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- hodisalar yetkazgan zarar to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

Hisobga olish va baholash ma’lumotlari Texnogen xavf yuqori bo‘lgan zonalar to‘g‘risidagi kadastr axborotlari yig‘indisidan iborat bo‘ladi, ular alfavit-raqamlı (matnlar, jadvallar) va chizma (xaritalar, sxemalar) ko‘rinishda taqdim etiladi, qog‘oz va yoki elektron manbalarda berilgan namunadagi kadastr pasporti shaklida rasmiylashtiriladi.

Texnogen xavfi yuqori bo‘lgan zonalarning davlat kadastrini yuritish kadastr axborotlari uzluksiz ravishda yangilab borishni ta’minlovchi asosiy (boshlang‘ich) va joriy hisobga olish (ro‘yhatlar) turlaridan iborat bo‘ladi. Zonalarni dastlabki ro‘yhatdan o‘tkazishda (ro‘yhatlar tuzishda) obyektlar identifikatsiya qilinadi, ularning miqdor va sifat tavsiflari, hodisalarning ro‘y berishi va ta’siri dinamikasi qayd etiladi.

Obyektlarni identifikatsiya qilish usullari, zonalar tavsiflari tarkibi Davyergeodezkadastr qo‘mitasi bilan kelishgan holda tegishli vakolatli organlar

tomonidan tasdiqlanadigan normativ hujjatlar bilan belgilanadi. Ro‘yhatdan o‘tkazish axborotlari va boshqa asosiy ma’lumotlar kadastr daftariga yoziladi.



* Strelkalar bilan kadastr axboroti harakati yo‘nalishlari belgilangan.

24-rasm. Texnogen xavfi yuqori bo‘lgan zonalar davlat kadastrini yuritish sxemasi

Joriy hisobga olishda boshlang‘ich hisobga olishdan keyin ro‘y bergen barcha o‘zgarishlar va ro‘y bergen yangi markazlari qayd etiladi. Qayd etilgan joriy o‘zgarishlar kadastr pasportiga va kadastr daftariga kiritiladi va Texnogen xavfi yuqori bo‘lgan zonalarning davlat kadastri markazi va bosh kadastr markaziga beriladi. Texnogen xavfi yuqori bo‘lgan zonalarni kadastr axborotlarini

ishonchliligi uchun kadastrni yuritish zimmasiga yuklangan kadastr markazi va bosh kadastr markazi obyektlaridan foydalanuvchi tashkilotlarning mansabdor shaxslari javob beradilar.

1. Kadastr obyektlaridan foydalanuvchi tashkilotlar o‘z obyektlari bo‘yicha kadastr axborotlarini to‘playdilar va ularni tegishli vakolatli idoralarga beradilar.

2. Vakolatli idoralar - Ichki ishlar vazirligining Davlat yong‘in xavfsizligi xizmati, Sog‘liqni saqlash vazirligining Davlat sanitariya-epidemiologiya respublika markazi, Fanlar akademiyasining Yadro fizikasi instituti respublika bo‘yicha TXYUZ kadastr axborotlarini to‘playdilar va ularni TXYUZDKni yuritish bo‘yicha bosh idora – “Sanoatgeokontexnazorat” davlat nazoratiga beradilar.

3. TXYUZDKni yuritish bo‘yicha bosh idora – “Sanoatgeokontexnazorat” davlat nazorati TXYUZ obyektlari bo‘yicha kadastr axborotlarini Davyergeodezkadastr qo‘mitasining DKYAT ma’lumotlar bazasiga beradi.

4. “Sanoatgeokontexnazorat” davlat nazoratining bosh idorasi so‘rov bo‘yicha Davyergeodezkadastr qo‘mitasining DKYAT ma’lumotlar bazasidan TXYUZ bo‘yicha axborotlarni olishi mumkin.

5. Vakolatli idoralar - Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Ichki ishlar vazirligining Davlat yong‘in xavfsizligi xizmati, Sog‘liqni saqlash vazirligining Davlat sanitariya-epidemiologiya respublika markazi, Fanlar akademiyasining Yadro fizikasi instituti so‘rov bo‘yicha “Sanoatkontexnazorat” davlat inspeksiyasining bosh idorasi orqali Davyergeodezkadastr qo‘mitasining DKYAT ma’lumotlar bazasidan TXYUZ bo‘yicha axborotlarni olishi mumkin.

6. Kadastr obyektlardan foydalanuvchi tashkilotlar so‘rov bo‘yicha Davyergeodezkadastr qo‘mitasining DKYAT ma’lumotlar bazasidan TXYUZ bo‘yicha axborotlarni olishi mumkin.

7. DKYATdan foydalanuvchilar so‘rov bo‘yicha Davyergeodezkadastr qo‘mitasining DKYAT ma’lumotlar bazasidan TXYUZ bo‘yicha kadastr axborotlarini olishi mumkin.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Hududlarning davlat kadastrini yuritish bo'yicha vakolatli organ bo'lib qaysi davlat organi hisoblanadi?
2. Qo'riqlanadigan tabiiy hududllar davlat kadastrini yuritish bo'yicha vakolatli organ bo'lib qaysi davlat organi hisoblanadi?
3. Tabiiy xavf yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastrini yuritish bo'yicha vakolatli organ bo'lib qaysi davlat organi hisoblanadi?
4. Texnogen xavf yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastrini yuritish bo'yicha vakolatli organ bo'lib qaysi davlat organi hisoblanadi?
5. O'zbekiston Respublikasi "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi Qonuni qachon qabul qilingan?
6. Tabiiy xavf yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risida nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaysi sonli qarori bilan tasdiqlangan?
7. Texnogen xavf yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risida nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaysi sonli qarori bilan tasdiqlangan?
8. Hududlarning davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risida nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaysi sonli qarori bilan tasdiqlangan?

6-BOB DAVLAT KADASTRLARI YAGONA TIZIMIGA TEGISHLI MA’LUMOTLARNI TARKIBI VA ULARNI TAQDIM ETISH TARTIBI

6.1. DAVLAT KADASTRLARI YAGONA TIZIMIGA TEGISHLI MA’LUMOTLAR TEMATIK QATLAMLARI

Davlat kadastrlari yagona tizimi Geoaxborot tizimining bazaviy kartografik asosi 1:200 000 masshtabli xaritaga muvofiq keladigan quyidagi tematik qatlamlardan tashkil topadi:

- “Matematik asos” tematik qatlami;
- “Gidrografiya” tematik qatlami;
- “Joy relefi” tematik qatlami;
- “Aholi punktlari” tematik qatlami;
- “Aloqa yo‘llari” tematik qatlami;
- “Tuproq-o‘simlik qoplami” tematik qatlami;
- “Siyosiy va ma’muriy chegaralar” tematik qatlami.

